



84  
F-88



IVAN FRANKO   
FERUZA

JAHON ADABIYATI TURKUMIDAN 

84	2073/1		
F-88	d. Franko		
Fexxo			
2020			17.135

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан кечиктирилмаган ҳолда топширилиши шарт

Илгариги берилмалар микдори \_\_\_\_\_

22/1.507.210



JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

**IVAN FRANKO**

**FERUZA**

*Qissa va hikoyalar*



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
2020

UO'K: 821.161.2-3

KBK 84(4Ukr)

F 88

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

**Abdulhamid CHO'LPON va b.**

Feruz ismli qiz o'zi ko'ngil qo'ygan yigitning ortidan konga ishlashga keladi. Qalbidagi muhabbat tufayli og'ir mehnatga, turmush qiyinchiliklariga chidaydi. Sevgan yigiti Ivan esa uning muhabbatiga beparvo qaraydi. Hamqishlog'i Ganka bilan ham uchrashib yuradi. Oqibatda ikkala qiz janjallashib qoladi.

Ganka esa johilligi tufayli Feruzani suvga tashlab yuboradi. Ana shu noto'g'ri qadam navnihol yoshlarning bevaqt o'limiga sabab bo'ladi.

Qo'lingizdagi to'plamdan o'rin olgan qissa va hikoyalar sizga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

ISBN 978-9943-6341-9-0

2073/1

Закроща Аку

© A. Cho'lpon va b. (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna-kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O. de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muayassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalarini yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## FERUZA

*Polsha mamlakatiga tobe Galitsiya o'lkasida yashovchi „rusinlar“ turmushidan olingan. Galitsiya Jahon harbidan burun Avstriyaga qarardi. Harbdan so'ng (hozir) Polsha qo'lida edi. „Rusinlar“ nash'at va til e'tiboralari bilan ukrainlarga, ya'ni maloruslarga yaqindirlar.*

### Feruza „mehmon“ kutadi

- Ivan, Ivanjon, jonimning malhamginasi!
- Xo'sh, nima deysan?
- Sen o'zing shu kunlarda allaqanday qattiqko'ngil, badmuomala bo'lib qolibsanki...
- Ayt axir, nima demakchisan?

Kuzning shamoli Borislaf<sup>1</sup> shaharchasining tor ko'chalarida g'uvullab, hushtak chalib aylanar va bir kun burun shaxtadan qo'porilgan nam uvoqlarini har tomonga irg'itib o'ynardi. Tun esa juda qorong'i.

– Xo'sh, qachongacha men bu yerda sening gap boshlashingni kutib turaman? Shunday shamolda bu yerga, ko'chaga nima uchun chaqirib chiqding meni? Gapir?

– Men sening bilan haligiday... burunlari o'z qishlog'imizda gaplashardik-ku... Ana shunaqasiga gaplashayin, deb edim.

---

<sup>1</sup> *Borislaf* – Galitsiya o'lkasi, Dragobichi okrugida bir qishloq yoki kichkina shaharchadir. Ozakirit va neft kabi tog'dan va yerdan chiqib turgan ma'danlari bilan mashhurdir.



– Obbo! Toza topibsan gaplashadigan paytni, bu joyni! Ayta qol tezroq, nima demakchisan, koʻrmay yotibsanmi axir, shunday dildirab qoldim?

– Koʻrib yotibman, koʻrib yotibman, – uning ovozi qaltirar va ul oʻzi Ivandan ortiqroq ushbu dildirab edi.

– Ivan... koʻrinadikim, endi sen meni sevmaysan... yo-ki sevsang ham burungiday emas.

– Xa, xa, xa! Qayerdan bilding sen muni?

– Anavi-chi, Ganka degan dumaloq yuzliging-chi... Har oqshom sen oʻshaning ortidan chopasan.

– Tuf senga! Uning ortidan men chopar emishman!.. Ul oʻzi chopadi mening ortimdan. Men qandoq qilay axir, ortimdan ergashishini qoʻymasa oʻzi?

– Nega boʻlmasa men haydab yotibsan?

– Ey, sen hadeb oʻzingni gapirasan, xolos. Nima kerak senga? Bir narsaga zoriqqanmisan? Aytgil axir, oʻzing nima bilasan, sen bir narsaga zoriqqanda men hech qaytargan emasman.

Qiz bir „uh“ tortdi.

– „Zoriqqaningda“ emish! Sen bilsang edi agar mening qanday zoriqqanimni!.. Nimasini aytay... Menga bir narsa kamlik qiladi, Ivancha.

– Nima ekan?

– Sen.

– Men yoningdaman-ku!

– Nima chiqardi undan? Modomiki sen meni unutding, sen meni sevmaysan. Sen bilan birga boʻlsam, hech narsaga zoriqishdan qoʻrqmas edim. Sen uchun har qanday qi-yinchilikka ham chidar edim.

– Iye, esing yoʻq sening, – deb qizning soʻzini boʻldi Ivan, – esing yoʻq dedim, tamom, „Gankaga berilib ketding“, deb valaqlaysan, men boʻlsam Ganka toʻgʻrisida oʻylamayman ham.

So'ngra qizga yaqinlashdi. Va uni ko'ksiga tortib turib ancha yumshoq va sekin ovoz bilan dedi:

– Qo'rqma Feruza, men seni unutmayman. Esingda bor-mi, unda daraxt ostida qilgan ahdim. Ikkovimiz ham endi birozgina qiynalamiz, xolos... Senga qiyin bo'lganini men bilmaymanmi? Hozir menga ham oson emas. Yana ikki haftagina... Tinchlan endi. Kafamizga qaytaylik. „Dir-dir“ qaltirab yotibsan, ushbu qolibsan. Yur, ikkovimiz traktirga kiraylik. Yur, isinib olasan. Sening uying juda olis axir.

– Men hali nima...

– Yura qol, gap sig'maydi.

Shunday qilib qizni kuch bilan derlik-traktirga olib kirdi. Unda odam zich edi. Ishchilar, ishchi xotin-qizlar to'lganlar. Havo yomon dam bo'lgan. Neftli ko'ylaklardan nafasni bo'g'uvchi bir hid ko'tarilgan, qichqirib kulishlar, araq hidlari yuksalgan.

Ularga hech kim e'tibor qilmadi. Ikkalasi pechka yonidagi ustalga o'tirdilar.

Feruza o'zining eng yomon dushmani, mana bu Ivaning ko'ngli tufaylidan o'ziga kundosh bo'lgan Gankani izlab, butun tegrasiga qiziqish bilan ko'z yugurtib chiqdi.

Ganka yo'q edi, shuning uchun u erkin nafas oldi. Bir kichkina stakanchada vishnyovka ichib biroz isingach, ochilib gapira boshladi. U o'z qishlog'ini va undagi tanish-bilishlarini bir-bir eslab o'tdi. Oxirda Ivanning boshini o'ziga tomon engashtirib turib, pichirladi:

– Yangi gap topib qo'ydim.

– Qanday yangi gap?

– Mehmon kutayotibman.

– Mehmon, kim ekan u?

– Qani, topgil-chi o'zing.

– Senikiga kelmakchi bo'lgan mehmonni qaydan bilay men?

– Bilishing kerak.

– Bilishim kerak, kim bo‘ldi endi u mehmon?

– O, shunga ham aqli yetmaydi-ya.

So‘ngra Feruza Ivanning qulog‘ini hazil bilan bir cho‘z-di-da, dedi:

– Umi, u bola, sening bolang, Ivan.

U bu so‘zni to‘ppa-to‘g‘ri, xursand bo‘lib turib ayt-makchi edi, na ko‘ngli na ovozi bu tilagiga unamadi. Yura-gi urib, qaltirab ketdi. U bilar edikim, ko‘p narsa, balki-da, uning butun hayoti – mana shu so‘zning Ivan tomonidan qanday qabul qilinishiga bog‘liq.

Feruza o‘zida onalik vaziyatini sezgandan beri, shu nar-sani Ivanga qanday qilib aytish to‘g‘risida o‘ylar va shuni o‘ylab qo‘rqar edi. Albatta, bir narsa deydi Ivan – nima deydirkin. Endi shu tobda u gap og‘zidan chiqib ketgan-dan so‘ng, sho‘rlik qiz, xuddi og‘ir bir ishda ayblangan-day, xuddi Ivandan allaqanday mudhish bir hukm kutgan-day, rangi oppoq oqarib, qo‘rqib o‘tirardi.

Ivan uchun esa go‘yo bu narsaning sira ahamiyati yo‘q kabi edi. U boshini teskari burdi, ko‘zini shipga tomon ko‘tardi va astagina hushtak chala boshladi, so‘ngra Feru-zaga qarab, xuddi eshitmagan kabi so‘radi:

– Xo‘sh, yana bittagina ichasanmi?

– Yo‘q, ichmayman, – dedi qiz sekingina.

Ivan o‘ziga bir stakan pivo so‘ratib oldi-da, jim bo‘ldi. Feruza esa qimirlab ketishdan ham qo‘rqib, toshday qo-tib turardi. „Endi bitdi har narsa, – degan o‘ylar aylanardi uning boshida. – U meni sevmaydi. U meni mana shu bot-qoqqa tashlab ketadi“.

Traktir „guv-guv“ qilar va qaynardi. Feruza bo‘g‘ila boshladi. Uning ko‘kragini allanarsa kelib qisganday bo‘-lardi. O‘rnidan turdi.

– Xo‘sh, ketayotibsanmi?

– Ha!

Ivan o‘rnidan qo‘zg‘olmadi, „Biroz o‘tir“ ham demadi, hamon o‘sha shipga tikilishda davom qildi. Qizning ko‘zlarida yoshlar qo‘zg‘olmoqqa boshladilar, lekin u iroda kuchi bila ularni qaytardi.

– Tun oydin.

– Tun oydin.

Ko‘chaga chiqib edikim, shamol uni darrov o‘zining sovuq quchog‘iga tortdi, kiygan kiyimining etaklarini yirtdi, yuzlariga neftli yerning qora tuzlarini keltirib urdi, shunda ham qiz sho‘rlik hech narsani sezmasdi. Negakim, uning o‘z ko‘ngli shu tobda ko‘chadan ham qorong‘iroq va sovuqroq edi...

### Konlarda

Borislaf shaharchasining bir chetida, qo‘rg‘on tashqarisidagi zovurlardan kavlanib olina turgan yer mumining katta bir ombori bor. Bu ombor Linden degan katta bir mushtumzo‘rning xususiy mulki edi. U ombor deganimiz ulkan bir yog‘och binodan iborat bo‘lib, uning to‘rt tomoni chuqur zovurlar bilan o‘ralib olingan, dovollarning oldiga esa zovurlardan kavlab olingan xom tuproqlar uyilib tashlangan edi. Yolg‘iz zambarg‘altaklarning qatnashi bilan ochilgan tor yo‘laklar, bir tomondan – o‘sha tuproq uyumlari orasidan chiqib kelib, omborning darvozalariga tomon uzalib ketardilar.

Orqada, ombor derazalari ro‘baro‘sida, qo‘shimcha solingan ikkita choldovol bo‘lib, unda ombor qorovuli yashar edi. Bu choldovol yuksak tuproq uyumlari orasida berkinib qolib ketganligidan, uning kichkina terazachalari orqali quyosh shu‘lalari juda siyrak o‘tardi.

Qorovul bolalarni boshqa odamlarga tarbiyaga berib yuborgan „beva“ bir kishi edi. Lindendan olgan ish haqlaridan tashqari ham biror narsa olmoq istagan qorovul choldovolning ikki xonasidan birini ishchi xotinlarga yotoq uchun ijaraga qo‘ygan edi. U o‘zi yolg‘iz bir xonaga ham qanoat qilar edi – baribir o‘zi ham tunlarning ko‘pini ombor qo‘rishda o‘tkazgani uchun oz uxlardi. U vaqtlarda hali Borislaf shaharchasi politsani ham bilmas edi.

Tunning anchaga yetib qolgan vaqti. Tor, iflos va dimoqni bo‘g‘uvchi xona ishchi xotinlar bilan to‘lgan. Yalang‘och dovollar, ohak bilan naridan beri oqlangan taxtalar, ularning biriga allaqanday surat yopishtirilgan va yana bir bo‘lak ko‘zguchoa osilib qo‘yilgan.

Bir burchakda ko‘rpa-to‘shagi poxoldan iborat bo‘lgan uch taxtali bir yog‘och kart turadi. Teraza oldida baland-baland uch oyoqli kichkinagina ustalcha, xona ichida ko‘zga ko‘rina turgan narsalarning barchasi – mana shundan iborat. Na pechka, na oshxona asbob, na ko‘rpa-to‘shak va na sandiqdan asar yo‘q.

Kart bo‘sh qolgani holda, past yerda xuddi bochkadagi mayda baliqlarga o‘xshab allaqancha va allaqanday odamlar uyulishib yotadilar. Ular og‘ir-og‘ir va qattiq hansirash bilan nafas oladilar va xona ichidagi g‘ira-shirada bir joyga tashlab qo‘yilgan kir ust-boshlari uyumiga o‘xshab ko‘rinarlilar. Bu ishchi xotinlarning yotoqxonasi.

Xotinlar, qizlar, yosh-yosh juvonlar muhtojlik orqasida uzoq yerlardan surilib kelganlar. Butun kunduzi bilan ishlab horgach, ular endi sovuq va yalang‘och yerda, qo‘llari ustiga bosh qo‘yib va bir-birlariga mahkam yopishib yotarlarkim, bu, birinchidan, joy torligi uchun bo‘lsa, ikkinchidan – issiq yotmoq uchundir.

Ularning yuzlari muhtojlik orqasida sap-sariq bo‘lgan,

qo'llari esa tuproqdan va yer mumidan yana bir qavat teri orttirgan... Ustlaridagi titilib ketgan kiyimlari gavdalari-ga zo'rg'a-zo'rg'a ilashib turadi. Mehnat va hasrat bilan dog'langan qari chehralari ham yosh chehralar bilan bir qatorda yotarlar. Ulardan hali go'zallik izlari yo'qolmagan bo'lsa-da, vaqtdan burun yoqalariga yopishgan og'ir mehnat, muhtojlik va buzuqlik – u yuzlarni erta-qachon so'ldirib bitirgan.

Xonada jimlik; yolg'iz ba'zi-ba'zida birortasi tushida bosinqirab qichqiradi, qo'llarini to'lg'aydi, uyqu orasida allakimlarga la'nat o'qiydi. Yoki yonida yotganini quchoqlaydi. U, balki, tushida sevgan yigitini quchoqlab yotgandir.

Ularning hammasidan ham tinchsiz yotgan ana u kampiridir. Bir zamon butun qishloqda yakka-yagona ro'zg'or egasi bo'lgan xotin – o'sha edi. Hozir uni gadoydan ayirish qiyin. Butun kunduzi bilan ishlab, ozgina narsa topadi: qari suyaklarida darmon qolmagan, uning darmoni omborning bir burchida o'tirib olib, zovurdan chiqqan tuproqlarni tozalashgagina yetadi. Bu ishi uchun unga kunda uch „sheska“<sup>1</sup> haq beradilar.

Lekin kechalari unga jon kiradi. Aftidan, xuddi o'sha vaqtlarda yashab o'tkazgan rohat kunlari ko'nglida qayta tiriladi, shekilli.

Xirxiragan ovozi bilan u, kampir, o'zining qiz chog'idagi ko'pdan unutilib ketgan qo'shiqlarni kuylaydi. Chiroylik liboslarini ko'zgu oldida tutib tuzatayotganday, juldur engillarini ushlab-ushlab qo'yadi. Burungi qadrdon qo'shnilar bilan gaplashib, yangi marjonlarini maqtab yotganday kibr bilan boshini qimirlatadi. So'ngra yana

<sup>1</sup> „Sheska“ – 8 tiyinlik pul; demak, uch „sheska“ – 24 tiyin.

allaqanday la'natlar, og'ir ho'ngrashlar, dod-voylar bilan bir-bir ketin chiqib keladi. Undan keyin yana qo'shiq parchalari... va butun kecha shu ahvol.

Uning yonida yotgan xotin bu bosinqishlar orqasida necha martaba uyqusidan uyg'onadi, hadeb kampirni haydaydi va „tinch yotsin“, deb biqiniga turtadi – lekin hech bir foydasi bo'lmaydi. Uyqudan uyg'ongach, kampir tushida ko'rganlarining hech birini eslamaydi, lekin uyquda tinch yotish ham sira qo'lidan kelmaydi.

### **Feruzaning tashvishi**

Teraza oldidagi kichkina ustalcha ustida tozalanmagan yer mumidan sariq bir sham' yonib turadi. Uning olovi hadeb pirillaydi. Va bir xilda yonmagani uchun uxlab yotgan ishchi xotinlarning ustallariga chuchmal ko'lagalar tashlaydi.

Ustal oldida quyi egilib bir qiz o'tiradi. Butun shu uyda uyqusi qochgan odam bolasi shudir. U xafa. Uning qayg'uli ko'zlari yignaning shoshilish harakatini kuzatib borarlar. U shu tobda ko'ylakcha – kichkina bir ko'ylakchani tikib o'tiradi, qorong'i kechalarda zo'r berib tikadi, negakim, kunduz kuni boshqa ishi bor, undan bo'shayolmaydi.

– Gankani o'ylamayman ham, dedi...

Qizning boshida xunuk o'ylar yuradi.

– Balki, bu gapi to'g'ridir-da. Lekin nima uchun u meni sevgan yo sevmaganini ochiq aytmaydi. Ey, gapirishning nima keragi bor. Men o'zim ko'rmay yotibmanmi? Yo'q, u meni sevmaydi. Mening to'g'rimda o'ylamaydi ham u – bergan va'dasini unutdi, ba'zida quruq so'z bilan o'sha va'dasini esga olib qo'yishlariga ishonib bo'lmaydi. So'z nima degan narsa o'zi, o'tkinchi shamol, boshqa narsa emas. U meni masxara qilib, mendan kulayotganga

o'xshaydi. Mening ahmoqligimga – uni deb otam, onam, hovli-joylarimdan kechganimga kulayotgandir. Chinakam, har narsamni, hamma narsani berdim men unga. Endi kelib mendan olinaturgan narsa qolmagandan so'ng men unga kerak bo'lmay qoldim, ko'ziga yomon ko'rinib qoldim.

Shunday qilib uning yuzlarida yana burungi yoshlar qo'zg'ola boshladilar. Yolg'iz bu daf'a qiz sho'rlik u yoshlarni to'xtatmadi, qaytarmadi. Yigna yurishdan to'xtadi. O'zi ham sababini bilmagani holda, Feruza, shamning oloviga nazar soldi. Olov ustidan ko'm-ko'k tutun ko'tarilgan va quyuq tuman shaklida shipga solingan edi. Qizning boshi og'ridi.

Bu vaqtda shamol tashqarida hushtak chalar, teraza va eshiklarning yorig'idan o'tib, sho'rlik qizning badanlariga sovuq changalini botirardi.

Feruza bir yig'lab olib, shu bilan ancha yengilladi.

– Yo'q, u meni sevadi. U meni sevmay qo'ysa, men o'lib qolar edim. Men unga nima qilib qo'ydimki, meni unutmogga majbur bo'lsin. Yaqinda dunyoga kelajak yosh go'dakni, u bo'lmasa agar, men qanday qilib sarishta qilaman?

Chinakam, Feruza sho'rlik oraga go'dak bola kirgandan keyin, Ivanning o'zi bilan ham qanday aloqada bo'lish-bo'lmasligini bilmas edi. „Bola“ degan so'zni eshitganidan keyin Ivanning teskari burilganini u axir o'z ko'zi bilan ko'rdi. Ivanda pul yo'qligini, uning bir kun ham ishdan bo'shamaganini qiz o'zi ham biladi. Shu uchun o'ziga xastaxonaga kirib yotishdan boshqa iloj qolmaganini ham biladi sho'rlik qiz.

Butun shu ko'rgiliklarini u burunroq, sovuqda mujmayib va tishlarini kakirlatib, traktirdan uyga qaytgan vaqtda ham ko'z oldiga keltirib qo'ygan edi. Lekin, u endi shu



tobda u to'g'rida o'ylamasdi. Negakim, o'ylagali qo'rqardi. Va xuddi suvga botayotgan kishi bir cho'p, bir poxol parchasiga osilganday, qiz sho'rlik ham birgina fikrga osilardi: „U meni sevsachi! Men bilan bo'lsa-chi! U men bilan bo'lsa, hech narsadan qo'rqmasdim, u har narsani bajaradi...“

Feruz shu xil fikrlar bilan shuurli suratda o'zini aldar, shu fikrni o'zicha talqin qilar va shuning natijasida o'sha ishlarning gulday bo'lib bitishiga tamom derlik ishonib ketardi. „Shunday bo'lishi kerak“, derdi. Axir uni deb behuda yerga ota-onalaridan kechgani yo'q, bekorga bu qadar og'irliklarni ko'targani yo'q. „Ikovimiz ham ozgina qiynalamiz, xolos, undan so'ng hamma narsa o'z joyiga tushadi. Butun g'amlar yuvilib ketadi“, deb bekorga va'da bergani yo'q Ivan ham.

Ivan nima qilmoqchi, ajabo, Feruz buni anglayolmasdi, lekin o'z ko'nglining, ko'klam chog'i qor ostidan yorug' dunyoga chiqib kelayotgan maysaday quvonib, yengillab borganini sezardi...

U shanga ko'z tashladi, sham esa bu vaqtda o'chay-o'chay deb yitillab, yorug' bermay qo'ygan; yolg'iz buruqsab, butun hujrani is bilan to'ldirgan edi. Feruzaning ko'kragi juda qattiq urar, qo'lidagi yignasi uchib yurganday bo'lardi. Charchash, qotishdan asar ham yo'q. Cholg'i chalib turadi. Allanarsa yitillaydi, go'yoki ko'm-ko'k ekinzor o'rtasida quyosh nurlariga ko'milgan uzun bir yo'l cho'zilib yotganday ko'rinar. Yumshoq, sevimli qo'llarning ta'masiga o'xshagan allanarsa... qitiqlaydi.

Qizning boshi engashdi va shu bilan uxlab qoldi.

Yiroqlardan, Borislaf tomondan esa shamol bo'g'iq qichqirishlar va qo'shiqlar ovozi surib kelmakda. Bu, traktirdan chiqqan ishchilarning qichqirish va qo'shiq ay-

tishlari edikim, ular orasida ham eng kuchligi yana Ivan-ning ovozi edi.

### Kundoshlar

Ertalab Feruza boshqa ishchi xotinlardan burun uyg'ondi. Uning boshi og'rir, xuddi titrab-qaqshar, lekin o'zi bu to'g'rida o'ylab ham turmasdi. Tezgina yuvinib, traktirga tomon chopdi. U yerda Feruza bir haftalik nonushta — har kun bir kosachada qaynoq sut bilan bir bo'lak non — haqini ilgaridan to'lab qo'ygan edi. Lekin tomog'idan hech narsa o'tmadi.

Sutni zo'rg'a ichib, nonni qo'yniga soldi-da, chopib ketdi. Qayerga, buni uning o'zi ham durustgina bilmas edi. Ishga borishga hali ertarak edi. U Ivanni ko'rmakchi bo'lardi. Lekin uning ko'chadan topilishiga o'zi ham ishona olmasdi. Bu kunlarda Ivan qayda yotib-turadi, buni ham bilmasdi. Shunday qilib, Feruza tavakkal bilan, quyuq va yopishqoq loyni shilpillatib kecha-kecha, sovuqdan qaltirab, ko'kragini taka-puka qilayotgan iztirobni horg'inliq va harakat bilan bosmoqchi bo'lib yo'lga tushdi.

Borislaf jonlana tushdi. Qorong'i uylardan, bo'g'uvchi va tor bostirmalar ichidan iflos va maol odamlar chiqa boshladilar. Ularning kunlari qarg'ishlar va janjallar bilan boshlanadi. Yuzlarni yuvmasdanoq ular traktirlarga yo'l soladilar. U yerda bir istakondan araqni urib, orqasidan quruq nonni „zakuska“ qilib, yana o'sha quruq non bilan birga jindak qazini qo'ltiqqa joylab, so'ngra ishga jo'naydilar. Ko'chada o'tin ortgan, kartoshka, un, bug'doy va boshqa oziq-ovqat yuklagan aravalalar chizilib ketadilar. Butun shularning ustida o'chiq rangli va qosh-qovog'i soliq osmon allaqanday o'ylarga botib turadi. Olislarda,

Dol tog'ining yonbag'rida esa yuksak bo'yli „tikanli daraxt“ o'rmoni<sup>1</sup> ko'm-ko'k ko'karib ko'rinadir.

Ko'cha loylarida shilpillab yurib, Feruza qancha jin-ko'chalarni aylandi. Eshigi ochiq traktirlarning hammasini qaradi: Ivan yo'q edi. Muyulishga, ishchilar hayoti va kecha buzuqchiligining bosh markazi bo'lgan Kirmetskiy nomerlari yaqiniga kelgach, u Gankaga yo'liqib qoldi.

Bu ham Ivan bilan Feruzaning qishlog'idan kelgan bir qiz edi. Sog'lom, qizil yuzli, olaygan ko'zli va qalin labli bu qiz – arvoq Feruzaga qaraganda xuddi ulkan polvonday ko'rinadi.

Yelkasida obkash, ikki paqir suvni ko'targani holda, Ganka shipillagan loydan yo'g'on va qip-qizil oyoqlari bilan juda dadil qadam bosib boradi. Qora sochlarini boshiga o'rab olgan, qora va porloq ko'zlari esa sog'lomlik va kuch bilan yarqiraydi.

Ba'zi odamlar bo'ladikim, yo'qchilik va og'ir mehnat changaliga tushib qolsalar ham, g'alaba, chin muhtojlik nima ekanini anglamaydilar. Qayg'u-hasrat degan narsani bilmaylar. Bizning Ganka ham ana shularning biri edi.

Ular, xuddi ho'kiz ish uchun yaratilganday, mehnat uchun yaratilganlar. Ular o'zlarining temir sihatlari o'zlariga xizmat qilishdan bo'yin tovlagandagina qayg'ira boshlaydilar.

Feruza burundan Gankani sevmas edi. Endi u bilan birga bo'lganda Ivanning ochilib yayrashini, u bilan tegishib, u bilan o'yinga tushganlarini ko'rgach, Gankani chin ko'ngildan yomon ko'ra boshladi. Ivanning kecha aytgan gapi – „Ganka o'zi ketimdan o'ralashadi“, degani – Feruzaning yurak-bag'rini o'rtab ketdi.

---

<sup>1</sup> Men, lug'atning ko'rsatganicha, shunday atadim, balki, bu „ar-ar“ daraxtidir.

– Menga qara, Ganka, – dedi u salom-alik qilmasdan to‘ppa-to‘g‘ri unga yaqinlashib kelib.

– Xo‘sh, nima gaping bor menga?

– Sen Kirnetskiynikida xizmat qilasan-a?

– Ha, to‘rt kundani beri.

– Xo‘sh, kecha mening Ivaning keldimi o‘sha yerga?

– Sening Ivaning? Nechik sening Ivaning bo‘lar ekan? – deb piching otib gapirdi Ganka.

– O‘zing yaxshi bilasan nechik ekanini, – dedi Feruza o‘zidagi jahlni bosib turib.

– Qancha seniki bo‘lsa, o‘shancha meniki ham. Balki, sendan ko‘ra ko‘prak meniki bo‘ladi. Nega desang, seni qiya boqib ham ko‘rgisi kelmaydi, men bilan bo‘linganda esa ichiga sig‘maydi.

– Bekor aytasan. U o‘zi aytib berdi menga, sen chopasan Ivanning ketidan. Menga qara, agar yana bir martaba u bilan bir joyda ko‘rsam, ko‘zingni o‘yib olaman bu yoqqa.

– Qo‘lingdan kelsa dorga os! Nega menga osilasan sen!

– Saqlan! Saqlan! – deb baqirdi Feruza, zo‘rg‘a dam olgani holda. – Saqlan uni ergashtirishdan!

– Saqlanmayman hech, nima qila olarding? Kecha ham birga edim, bugun ham birga bo‘laman. Xohlasam, birga bo‘laveraman, menga desa g‘azabingdan „tars“ yorilib ket, parvoyim yo‘q mening.

Feruza shu yerda o‘zini yo‘qotdi va musht ko‘tarib Gankaga hamla qildi. Lekin ul qo‘lidagi paqirni shunday bir ko‘tardi-yu, uni shundoqqina suvga pishib tashladi.

Ko‘chada to‘planib olib, bu ikki kundoshning shovqini eshitib turgan ishchilar kula ketdilar.

– Barakalla, Ganka! Cho‘mlitirib qo‘y uni! Olovi bosilsin, – deb qichqirdi bir.

INVENTAR NO 2073/1  
Banzuoma Akel

– Xo‘sh, Feruzacha, cho‘zib qol, qani, sochlaridan. Ni-ma haddi bor ekan sening yigitingni tortib olgali, – deb achchiqqina tegadi boshqalari.

Feruzi kamoli uyalgani va achchiqlanganidan o‘zini bilmas edi.

U butun uyib ketgan va sovuqdan qaltirar, shu uchun azobi ham badtar olovlanardi. So‘ngra birdan o‘zini Gan-kaga tashladi va uning sochlaridan ushlab tortishga va urishga boshladi.

Ganka esa hanuz yelkasida obkash bilan paqirlari bo‘l-gan holda, biroz noiloj qolib turdi, na obkashni tashlash, na-da mudofaa boshlashni bilolmadi. Lekin so‘ngra birdan qaror berib, obkashni irg‘itdi-da, bo‘shalgan qo‘llari bilan Feruzani shunday kuchli bir zarb bilan tushirdiki, u sho‘rlik birdan yerga yiqildi. Va uning sochlarini ham qo‘yib yubordi.

– Hu, hu, hu, – qahqaha otdilar ishchilar. – Mana qiz degan. Sallot-a, sallot. Ajab qildi!

– Ivan, – dedilar boshqalari xuddi shu vaqt traktirdan chiqib kelgan Ivanga, – beri kelgil-a! Tomosha ko‘rasan!

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radi Ivan.

– Eyy, bu yoqqa kel! Bu yerda seni deb ikki qiz bola yumdalashayotir. Beri kel, hech bo‘lmasa tomoshani ko‘r! Lekin juda ham, baxti bor yigit ekan-da, qiz bolalar ham uni talashib mushtlashadi-ya!

Ivan keldi va nima bo‘lganini darrov payqadi.

– Ganka, – deb haybat bilan gapirdi u, – nima qilganing bu?

– Mana buni qara, – deb qichqirdi Ganka, – menda nima ishi bor ekan, bilmadim, ko‘cha-ko‘yda ham hadeb menga osiladi, meni odamlarga masxara qilib o‘ynaydi.

Feruzi zo‘rg‘a dam olgani holda o‘rnidan turdi. Uning ko‘kragi og‘rir, nafasi qisilardi.

– Ivan, – dedi u yolborish bilan.

– Yo‘qol, padaringga la‘nat sening! – deb o‘shqirdi Ivan. – Sen menga osila berasan hadeb, nuqul ko‘cha-ko‘yda sharmanda qilasan odamni! Bor, tezrak kiyimingni yangila! Qara, shundoqqina uyib qolibsana.

– Men sepdim u qizga bir paqir suvni, pichagina olovi bosilsin, dedim, – deb achitdi Ganka. – Men bilan hazil-lashishga yaramaganini xo‘p bilib qo‘ysin u.

Shu gapni aytdi-da, paqirlarni obkashga ilib, tezgina jo‘nab ketdi.

Ivan ham, ko‘nglida la‘nat o‘qigach, burildi va boshqa ishchilar bilan birga o‘z ishiga ketdi.

Feruzaning yolg‘iz qoldi. Uning butun vujudi qaltirar, u o‘zini butun dunyoda kuchsiz, baxtsiz va yolg‘iz tuyardi. Nega kerak unga yashash? Axir, hamma narsa unga ravshan bilindi, endi unda hech bir shubha va hech qanday umid qolmadi.

Qanday va qachon ekanini bilmagani holda uyiga qaytdi, ho‘l kiyimini yeshib, qurug‘ini kiydi, so‘ngra ishiga chiqib ketish o‘rniga kartga cho‘zildi, yotdi va asta-sekin ingrashga boshladi. Bu vaqtda uyda ham hech kim yo‘q edi.

Feruzaning boshining yomon og‘riganini, butun vujudining mudhish suratda charchaganini sezdi. Tashnalikdan entikardi. Zo‘rg‘a o‘rnidan turib, biroz suv ketirdi, ichdi, so‘ngra boshini ho‘l sochiq bilan o‘ragach, yotib uyquga ketdi.

### **Feruzaning sho‘ri**

O‘sha kunning o‘zida bir-ikki piyola pivo ichib chiqmoq uchun Ivan Kirnetskiynikiga kirdi. Ganka uning oldiga so‘ralgan pivoni keltirib qo‘ydi-da, indamasdan ketdi.

Ivan ham unga hech bir ahamiyat bermadi. Sekin-asta pivosini ichib, yo mudraganday, yoki bir narsani o'ylagan-day bo'lib o'tirdi.

Ganka bir necha marta uning yonidan o'tdi. Har martabada unga qarab, tikilib o'tardi, aftidan, unga gap tashlab o'tmakchi bo'lardi-yu, lekin bu daf'a unday qilmadi. Oxirda ikkinchi pivoni buyurganda, Ganka istakonni ustal ustiga qo'yib turib, xohlar-xohlamas gapirdi:

– Xo'sh, qani ana u... nimang?

– Qaysi u?

– Sening nishonling<sup>1</sup>-chi?

– Mening nishonlim? Mening hech qanday nishonli-pishonlim yo'q.

– Ha, gapir yolg'onni. Feruza „oyim“ nimang bo'lmasa? U o'zini nishonlingday emas, xuddi xotiningday qilib ko'rsatadi: „Mening Ivanimni ergashtira ko'rma“, dedi.

– Xa, xa, xa! – deb kulib yubordi Ivan.

– O'shaningga aytib qo'y, – deb jahl bilan tez-tez gapirdi Ganka. – Mundan keyin menga osila ko'rmasin. Men unga oqsoch emasman. Agar yana bir martaba gap taqqunday bo'lsa, men arvoq yuzlariga ham qaramay, shunday kelishtirib savalaymanki, xuddi o'ttiz ikki tishi quyilib tushadi. Bilib qo'ysin! Tushundingmi?

– Ey, nariroq yur sen ham mendan, – dedi Ivan. – O'zing borib ayt unga nima xohlasang, bu sizning o'z ishingiz, ammo meni bir soat bo'lsa ham tinch qo'ying.

Ganka ketdi. Ivan o'tirib, pivo ichishda qoldi. Shu vaqtda traktirga birdan bir gala ishchilar kelib kirdilar. Ivanni ko'rgach, ular unga tegisha boshladilar:

– Ha, Ivan, Borislafdan ketar emishsan, deb eshitdim-a?

---

<sup>1</sup> Nishonli – Bo'lib qo'yilgan, unashilgan qiz.

– Menmi? Yetti uxlab bir tushimga ham kirgani yo‘q.

– Feruzaga uylanib, uning yeriga ishlagali borarkan-sanmi?

– Nima balo, jinni bo‘ldingizmi?

– Aslida, sen o‘zing jinni bo‘lganga o‘xshaysan, Boris-lafning erkin turmushini tashlab, ho‘kizdek bo‘yinturuqqa kirmakchisan.

– Bolalar! – bu pichinglarga qoni qaynab, istakoni bilan ustalni urib qichqirdi Ivan. – Shu gapni gapirgan odam it bolasidan o‘zga emas!

– Eyy, biz ichimizdan chiqarib aytayotganimiz yo‘q. Sening Feruzang bilan birga yota turgan qizlar shunday dedilar. Feruza o‘sha qizlarga debdirki, „Ivan bilan maslahatimiz bitgan!“

– Jinni bo‘lib qolibdir u Feruza! Nima maslahat bo‘libdir ekan oramizda? Oriy rost. U o‘zi necha martaba: „Yur, Borislafdan ketamiz“, deb menga osildi. Men undan qutulmoq uchun bir marta: „Ha, xo‘p, xo‘p, yana bir-ikki hafta sabr qilaylik, undan keyin bir nima bo‘lib ketar“, deb qo‘ydim. Bo‘lgan gap shugina.

– Hu, hu, hu! – deb qahqaha soldilar ishchilar. – Bop-labsan, lekin, „Bir-ikki hafta sabr qilaylik, undan keyin bir nima bo‘lib ketar“. Mana bu gapni qarang! Bir-ikki haftadan keyin ham shu bu kungi hangomaning o‘zi bo‘ladi-da, a?

– Ha, albatta-da. O‘zingiz bilasiz, axir: mulk-u dastmoya degan narsalar yo‘q. Qancha ishlab topsam, o‘shanga egaman, xolos.

– Hoy Ivan, bir zamon bor edi-ku, – deb qichqirdi ishchilardan Ivanni yaxshi taniy turgan birisi.

– Eyy. Bor ekan-u, ketgan, murodiga yetgan, – dedi Ivan qo‘lini siltab. – Otam butun bir qishloqda birinchi boy



bo'lgan ekan, undan nima foyda menga? Hozir nima bor qo'limda?

– Qolsa, shirin xayoli qolgan, – deb qichqirdi ulfatlardan biri.

– Rost aytasan. Shirin xayoli qolgan, xolos. Lekin xayol bilan hech kimning qorni to'ymaydi. Xo'sh, endi Feruzaning nimasi bor? U o'zi aytadiki: „Men seni deb uy-joyimdan kechib, bu yerlarga kelganman“, lekin buni men undan ko'ra yaxshiroq bilaman. Uyi-joyidan kechdi – chunki, kechmasa bo'lmas edi. Uyi torlik qilib qolgan edi. Otasining mundan boshqa ham ikkita qizi bor, ularni erga berishi kerak, qo'lida balo ham yo'q. Uning yer-suv degani ham ikki parcha yer-u bitta choldovol yeriga qiziqib, birorta yeri ozroq odam bu qizni olsa-olardi. Lekin shundayam qiz sog'lom bo'lsa-yu, mehnatga yarasa.

Bordi-yu mana bu Feruzaga o'xshagan nimjon bo'lsa, na ovga yaramasa, na dovga. Xo'sh, Feruzani qanaqasiga ish xotini deb bo'ladi? Agar boy bo'lsang, uni qurchoqday yasantirib qo'ysang, xuddi yosh bolaga qaraganday qarasang, o'shanda, ehtimol, munday bir odamga o'xshardi. Shu yo'qsullikda biz, xalq, mundaylarga uylangandan ko'ra, bo'yimizga besh-o'n pud tosh bog'lab, o'zimizni daryoga tashlamog'imiz durust.

– Rost, rost, endi hazilni tashla, – deb, tasdiqladilar ishchilar.

Xuddi shu choqda traktir uyining burchagida turgan katta pechkaning ketidan, rangi o'chgan va mung'aygan bir „qora“ chiqib keldi. Traktirga orqa eshikdan kirib, bu shovqin va g'ovur-g'uvurda hech kimning nazariga ilinmay anchadan beri o'tirardi bu qora. Bu, o'zimizning Feruza edi.

U xuddi bezgak tutayotganday qaltirardi. Uning ko'z-

lari yonar, lablari oppoq oqargan va issiqdan yorilib ketgandi. Bo'shang qadamlar bilan bosib, qisila-qisila ishchilar orasidan o'tib, traktirning orqa joyiga keldi va Ivanning oldida to'xtab, qo'llarini yergacha yetkizgan holda unga ta'zim qildi.

Hamma jim bo'ldi va hayron bo'lib unga tikildi.

– Rahmat senga, Ivan, – deb gap boshladi u, – rahmat! Umringda bir martaba ko'nglingdagi gapni tiling bilan, yolg'on qo'shmasdan aytib berding. Oldimda qanday ko'cha borligini men endi xo'b bilib oldim. Qo'rqma, men sening ko'changga kirmayman, sening yo'lingga ko'ndalang ham kelmayman. Ko'ngling qanday xohlasa o'shanday tur!

Shundan so'ng u Ivanga yana bir martaba ta'zim qildi.

Bu vaqtda Ivan xuddi yigna ustida o'tirganday o'tirardi.

– Endi menga bergan va'dalaring, „Seni olaman, qo'ldan chiqqan yerlarimni yana sotib olib, o'zim ekaman“, deganlaringga kelsak, u gaplarning hammasini yolg'on aytgan ekansan. Lekin men shu vaqtgacha senga ishonib kelgan ekanman. Undan keyin: „Feruzani bu yerga otasi haydadi“, degan gaping ham yolg'on, bu gaping menga tuhmat bo'ladi, yaxshi yigit. Otam, hattoki, mening qayerdaligimni ham bilmaydi. Buni boshqalar ham bilmaydilar. Yolg'iz o'zim bilaman. Bir kun men sening bu yerda ekaningni bilib qoldim, bu yerda kasal bo'lganingni, kimsasiz va sovuq bir olachiqda yolg'iz o'zing yotganingni, kuni bo'yi og'zingga bir tomchi suv tomuzg'unday kishi bo'lmaganini eshitdim, shundan buyon mening ko'nglimni bir fikr nishtaladi. Biz, axir, bir-birimizni sevar edik-ku. El oldida bo'lmasa hamki, u mening nishonlim bo'ladi-ku, deb o'yladim men.

Shundan keyin narsalarimni yig'ishtirdim-da, bu yerga qarab yo'l soldim, qanday qilay, falak meni qiynab o'ynamoqchi bo'lgan ekan, tilagidan necha baravar ortiq ham qiynab oldi. Uning qolgan-qutganini bu kun mana sen to'lg'azding. Sen hatto har qanday marradan o'tkazib, har qanday mo'ljalidan oshirib yubording. Yana bir rahmat aytaman senga, xayr.

Shu gapni aytdi-yu, Ivanga uchinchi marta ta'zim qilgandan so'ng, u chiqib ketdi.

Bu kutilmagan hodisadan so'ng ishchilar bir daqiqa jim qoldilar. So'ngra tezgina talvasalarini bosib olib, dag'al va xunuk pichinglarni yog'dira boshladilar.

– Qurg'ur-ey, xuddi ariday chaqadi-ya?

– Qiz emas, balo!

– Ishda eriga taqir foydasi tegmaydi, tili bilan, ko'z-yoshlari bilan esa odamning naq bag'rini ezadi.

– Qani, shundaqasiga bir uylanib ko'r-chi!

Shuncha odam orasida yolg'iz Ivangina damini chiqar-masdan, boshini quyi solib o'tirardi.

### **Feruzaning qayg'uli oqibati**

Kirnetskiynikidan chiqqach, Feruza hech bir yerdagi to'xtamasdan, qayerga va nima uchun borayotganini o'zi ham bilmagan holda ko'cha bo'ylab ketdi. Ko'cha sovuq va qorong'i bo'lib, mayda yomg'ir ko'z ochirgali qo'ymasdi. Uyigan va loylangan ko'cha, ko'chadan ko'ra ko'prak yomg'ir suvi to'plangan kenggina bir ko'chaga o'xshardi.

Feruza yopishqoq loydan etigini bazo'r tortib olib, nafasini ham yetkizib yo'l bosardi. Allanarsa uning bag'rini o'rtar, lekin na ko'zida yosh, na boshida o'ydan asar yo'q edi.

Yolg'iz muhim va belgisiz bir ish pishqir – „Qoch bu yerdan, chop. Berkin“, – degan bir o'y uni oldiga solib haydardi.

Berkinish kerak. Lekin qayerga, kimdan? U hozir o'z-o'zidan qochib berkinmak istaganini o'zi ham bilmasdi. Yuz qadam ham bosgani yo'q ediki, uning yonida, birdaniga, xuddi yerdan chiqqan kabi Ganka paydo bo'lib qoldi. Qayerdan chiqib keldi u? Feruzaning boyagi gaplarini eshitgan bo'lsa kerak. Feruzaning traktirdan yolg'iz chiqqanini ko'rib, u ham hech kimga bildirmasdan chiqdi-da, ketidan quva ketdi. U Feruzaning yonida shu qadar kutilmagan ravishda paydo bo'lib qoldikim, hatto uni ko'rgandan keyin qo'rqib ham ketdi va qichqirib yubordi. Ganka bo'lsa, unsizgina kulib qo'ydi.

– Qo'rqib ketdingmi? – deb so'radi u – Qo'rqma, men Gankaman.

– Nima istaysan mendan? – deb zo'rg'a gapira oldi Feruza.

– Hech narsa istamayman. Ko'cha ekan, men ham ke-  
layotirman. Sen bilan birga bu yerdan ketib ham bo'lmay-  
dimi yo?

– Bu axir sening yo'ling emas-ku?

– Bo'lmasa sening yo'lingmidi? Sening uyingga bor-  
moq uchun orqaga qaytish kerak-ku?

– Menga baribir, – dedi Feruza.

– Men bo'lsam ana shu yoqqa boraman, – dedi  
Ganka.

Bir daqiqa qadar ikkalasi ham indamay borishdi. Te-  
varak bo'm-bo'sh; yolg'iz traktirdangina qiyqirgan va  
qo'shiq aytgan tovushlar keladi. So'ngra Dol degan qop-  
qora va azamat o'rmon „g'uv-g'uv“ qilib, kuzning yomon  
havosida ingraydi.

– Ha, nima deysan endi? Ivanning seni rosa o‘xshatib-di-ku? – deb achitib gapirdi Ganka.

– Ha, shunga xursandmisan sen?

– Menmi? Menga baribir! Men muni ko‘pdan bilardim.

– Nimani bilarding?

– Sening endi eshitayotgan gaplaringni! Ivanning seni sevmaganini, yolg‘iz aldab yurganini, senga uylanish degan gap uning xayolida ham bo‘lmaganini.

– U o‘zi gapirdimi senga bu gaplarni?

– Bo‘lmasam-chi, boshqa kim gapirardi?

– Demak, u seni sevar ekan-da?

– Menimi? Men qaydan bilay? Mening nazarim ilmaydi.

– Nega bo‘lmasa hadeb uning bilan gaplasha berasan?

– Xa, xa, xa! Mening tushimga ham kirmaydi gaplashish. U o‘zi menga yopishib keladi. Nima balolarni gapiradi. Lekin men u gaplarning nimaligiga juda yaxshi tushunaman. Shu yaxshi-da, men bilib turamanki, u agar menga suykanib kelayotgan bo‘lsa, albatta, ko‘nglida bir g‘arazi bor! U ham biladiki, men unga iljayib kulib kelsam, uni o‘lgudek sevib qolganimdan emas, mening ham ko‘nglimda bir g‘araz bo‘lganligidan!

– Tuuuf! – dedi Feruza chin ko‘ngildan.

– Xoh tupur, xoh tupurma, meningcha, yaxshi yo‘l shu. Sen ulug‘ sevgiga berilish orqasida shunday darajaga tushdingki! Mana hozir qayerga borishingni bilmasdan yo‘l bosayotirsan! Men bo‘lsam, mana, qornim to‘q, tani-jonim sog‘! O‘zim xursandman. Unga ham yomon bo‘layotgani yo‘q!

– Unga ham?

– Albatta, unga ham. Axir sen o‘zing ko‘rib turasanki, u men bilan birga bo‘lganda yayraydi, gaplashadi, kuli-

shadi. Xursandlik qiladi. Sen bilan bo'lganda, jahli chiqadi, xolos.

– Sen uni o'zingga isitib olgansan!

– Yo'q, oppog'im, isitib olganim yo'q uni men, sen o'zing esipas, ishbilmas narsasan. Ha! Yigitlar bilan muomala qilishni bilmaysan, bittasini topib olasan-da, „Oyim ham shu, kunim ham shu“, deb osilib olasan. Xa, xa, xa, bilsang edi sendan boshqalar qanday bo'larlar. Qanday qilib ishni yo'lga solarlar! Menga nima, o'shani deb ozib, sarg'ayib, yig'lab-siqtab turaymi? Yo'q, kutgan shu bo'lsa, kuta tursin! Kerak bo'lsa, meni desa u o'zi sarg'aysin!..

– Men muni qilolmayman!

– Qilolmasang, o'zingdan o'pkala! Unaqa, „Sen isitib olding“, deb yurma! Isitish nima kerak? Isitmasam ham bu kecha yonimga keladi.

Bu so'zni eshitgach, Feruza unaqa qichqirib ham turmadi, yolg'iz qo'lini ko'kragiga bosib, bir dovdirandi. Agarda Ganka quchoqlab suyab qolmasa, o'shandayoq yerga yiqilgan bo'lardi.

– Hay. Nima bo'ldi senga? – deb qichqirda Ganka, birinchi daf'ada o'zi xuddi o'lganga o'xshardi. Mana bu hangomani ko'ring endi! – Qizni xuddi bir qop somunday ko'tarib turib g'udurlandi Ganka. – Esidan og'ib qoldimi yo butunlay tugab qoldimi?

So'ngra boshini egib, qizning ko'kragiga quloq soldi.

– Nafas ololmay qolibdir sho'rlik. Nima qilaman endi muni munday yerda? Qichqirsam, birorta odam eshitib, kelib o'ziga keltirib berarmikan?

Va shu onda Ganka to'rt tomonga ko'z yugurtdi. Juda qorong'i edi. Ular allaqanday yomon ko'chalardan biriga kirib qolganlar. Yaqin o'rtada na bir uy, na traktir – hech

narsa yo‘q edi. Yolg‘iz ko‘chaning ikki tomonida baland-baland tuproq uyumlari bor edi.

Tikilib qolgandan so‘ng, Ganka qanday joyda turganliklarini bildi. Bu joy bir zamonlar birinchi daf‘a kovlangan konlardan birining o‘rni edi. Bor neftni kovlab olgach, zovurlarni qaytadan ko‘mib tashlagan edilar. Ishlar boshqa joyga ko‘chirilgan, bu yerda esa tuproq uyumlari bilan bo‘sh zovurgina qolgan edi. U zovurlardan ba‘zilarining oldiga taxta mixlaganlar, ba‘zilariga esa suv to‘ldirgan edilar.

– Bu shamolda, munday joyda kim eshitadi mening qichqirganimni? – deb Feruzani suyab turgani holda guvrandi Ganka. – Nima, men jinnimidim? Muni bu yerda bir umr qo‘rib o‘tirgani? O‘zi kelib qolar hushiga. Muning tezligini ko‘ring tag‘in! Meni so‘kadi, sochlarimni yuladi, hu, senday shallaqini.. Ko‘rsatib qo‘yaman men senga o‘ynasha turgan odamni!

Birdan Gankaning yuragida tentaklarcha g‘azab olovi alangalandi. Shu alanga bilan jonlanib ketib, yana bir daf‘a tegrasiga qaradi, u yoq-bu yoqqa quloq berdi. So‘ngra hech kim yo‘qligini bilgach, yana Feruzani ko‘targan holda, xuddi it kabi ko‘cha bo‘ylab oldinga tomon chopdi.

So‘ngra u bir tuproq uyumi ustiga chiqib, yana bir daf‘a tegrasiga qarandi-da, ehtiyot bilan pastga, o‘rtasida boshlangan zovuri bo‘lgan bir tekislikka tushdi.

Yo‘lni oyog‘i bilan parmalab yurib, zovurni topdi. Bu zovurning og‘zi ikki taxta bilan berkitilgan, lekin bitta taxtasini allakimlar sug‘urib tashlagan edilar.

Ganka qo‘li bilan parmalab yurib, zovurning eshigini topdi-da, so‘ngra butun kuchi bilan narigi taxtani torta boshladi, ikkita mix qoqilgan va o‘zi qanchadan beri chirib yotgan taxta tezgina ko‘cha qoldi. So‘ngra oyoqla-

rini zovurning labiga mahkam niqab tutib, pastga engashdi, hissiz yotgan Feruzani asta-sekin qo'llari ustidan yerga tushirgach, boshini pastga qilib turib zovurning qorong'i og'ziga tashlab yubordi.

Zovur og'zigacha deyarli suv bilan to'la edi, shuning uchun Feruza xuddi yengil bir kesakday astagina, jimgina zovurning og'ziga qarab ketdi...

### **Jinoyatchi qiz**

Hamma yog'i uyigan, butun kiyimlariga loy-tuproq yopishgan va yuzi xuddi o'lik yuziday oppoq oqargan Gankani, yarim soatdan so'ng oshxonaga kelib kiringach, xo'jayin xotini jahl bilan qarshi oldi.

– Shu vaqtgacha qayerlarda daydiding, qiz o'lgur Ganka?

– „Qayerlarda daydiding?“ Suvg'a chiqib edim.

– Yolg'on aytasan, paqirlar shu yerda turibtir-ku?

Shundan keyin Ganka yana yolg'on aytib turmasdan, yugurib oshxonadan chiqdi-da, paqirlarni olib suvga ketdi.

Xo'jayin xotini yana biroz guvrangach, jahlidan tushdi. „Ganka qaysi go'rlarda o'ynasa o'ynay bersin! Menga nima? O'zim ham bilmaymankim, bu Borislafda hech qanday oqsochni tiyib bo'lmaydi – hammasi ham o'ynqaroq“, deb o'yladi.

Yarim kechadan ancha oshganda, Kirnetskiynikidan mast va quvnoq ishchilar chiqib keldilar. Ular ko'cha o'rtasida galalashib kelarkan, baland ovoz bilan so'zlashar, qo'shiq aytar edilar.

Ularning orasida yolg'iz Ivan qayg'ili edi. Bu oqshom u oz ichgan. Allaqanday og'ir o'ylarga botganday, doim tumtayib o'tirgan va unda bir turli shoshqinlik ko'ringan



edi. Uning ko'kraginda allaqanday bir qayg'i – novut bo'lgan yosh umr qayg'isi, Borislafning og'ir turmushi orqasida qo'ldan ketgan otameros yerlar qayg'isi qo'zg'olgan edi. Feruzaning so'zlari uning ko'kragini og'ir bir zarb bilan achitgan va uning butun yemak, ichmak, o'ynamoq, kuylamoq ishtahalarini bo'g'ib qo'ygan edi.

– Ivan bugun ishtahasini yo'qotib qo'yibdir, – deb o'rtoqlari undan kularlar va o'zini chetga olarlar edi.

Mana shu ahvol bilan u boshqa ishchilarning ortidan yolg'iz o'zigina ketayotib edikim, Ganka chiqib kelib, birdan muning qo'liga osildi. Ivan hatto bir qur seskanib ham oldi. Tun qo'lga yopishgan odamni tanib bo'lmaslik darajada qorong'i bo'lgach, albatta, har qanday odam ham seskanadi-da!

– Kim bu? – deb qichqirib yubordi u.

– Men-men! Ivan, men, – deb asta pichirladi Ganka.

– Senmisan? Nima kerak senga?

– Xafa bo'lib qoldingmi mendan?

– Menmi? Sendanmi? Nega xafa bo'layin?

– Xudo ursin, agar menda qilcha gunoh bo'lsa, – allaqanday hovliqma bir shoshilish bilan tez-tez gapirdi Ganka. – Bekordan bekorga nega tegar edim men unga? U o'zi menga osildi, janjalni ham o'zi avval qo'zidi. Keyin meni urgali yugurdi. O'zing ayt! Axir u shunday qilib turganda, men nima – qarab turamanmi?

– Men senga bir narsa deb yotibmanmi? – qovog'ini solib javob berdi Ivan.

– Ivanjonim, – dedi Ganka, nafasi bo'g'ilib turib, – qanday rahmdil yigitsan sen. Chinakam sen mendan xafa emasmisan-a? Nega bo'lmasa traktirda tumtayib o'tirding? Aytib ber-chi menga?

Ganka Ivanning yonboshida, uning qo'liga osilib, xud-

di qorong'ilik va yolg'izlikdan qo'rqqanday unga yopishib borardi.

– Ey! Nimasini so'raysan uning? – dedi Ivan va qo'lini uning qo'lidan tortib olmoqchi bo'ldi.

– Yo'q, yo'q, shoshma? Qayerga ketayotibsan? – deb so'radi Ganka.

– Uyimga boraman, uxlayman.

– Yur! Menikiga boramiz.

– Istamayman!

Ivan bundan burun ham Gankanikida bir kecha yotgan edi. Ganka Kirnetskiyning mollari uchun omborlik vazifasini o'tagan bir ayrim uyda turardi. Unda mol toylari va tugunlari orasida katta bir „yog'och eshak“ turadi.

Gankaning bir juft bolish va bitta issiq ko'rpasi bo'lib, u yotib yurgan omborning pechkasi bo'lmasa ham, Ivaning boshqa ishchilar bilan turatrgan omboridan ancha issiq edi.

Lekin Ivan shu kuni negadir Gankanikiga borishni istamadi. Feruzaning entikkan va oqarib ketgan yuzlari xuddi ro'baro'siga kelib turganday, ko'zlari esa munga yolvorib, allanarsadan gina qilayotganday bo'ldi.

Lekin Ganka uning qo'lini sira bo'shatmadi. Uning o'zini ham quchoqlab, o'ziga tortib, „Birga ketdik“, deb yalinib-yolvora berdi.

– Ivanjon! Jonim, men uchun una! Shu bu kun, xolos. Bilmayman, menga nima bo'ldi ekan, yolg'iz qolgali qo'rqaman, juda yomon qo'rqaman. Men seni qo'ymayman, men yolg'iz qolmayman! Yur! Yur!

Yolg'iz qolishni o'ylashi bilanoq u xuddi bezgak tutganday qaltirardi.

– Qo'y! – dedi Ivan. – Nima balo, yosh bolamisan sen? Yolg'iz yotgali ham qo'rqasanmi? Mana bu gapni qarang!

– Voy, bo‘lmaydi! Voy, bo‘lmaydi! Butun dunyoni men-  
ga bersalar ham, men bu kecha yolg‘iz qolmayman. Xohla-  
sang – ur! Xohlasang – o‘ldir! Lekin sensiz qolmayman  
men, yo menikiga borib yotasan, yo men o‘zim sen turgan  
joyga borib yotaman.

– Nima balo, jinni bo‘ldingmi sen? U yerda bir gala  
yigit-yalang yotadi.

– Bo‘lsa bo‘lar! Men ulardan qo‘rqmayman, faqat yolg‘  
iz qolishdan qo‘rqaman!.. Qorong‘iliqdan qo‘rqaman...  
Undan qo‘rqaman...

– Kimdan?

– Undan... Senikidan!.. Senga ta‘zim qilishlarini qara-  
ya! Traktirdan chiqib ketayotganda yuzlarini bir ko‘rding-  
mi uning?

Gankaning Feruzani eslatishlari Ivanning ko‘kragi-  
ga, og‘rigan joyiga qo‘pollik bilan borib tekkan qo‘lday  
tegdi.

– Qo‘y meni! Uni eslatma menga! – dedi u, so‘ngra  
Gankaning yolvorishlariga ko‘nib, u bilan birga tunagali  
ketdi. Ganka uni yo boshlab boradi, yo sudrab. Har holda  
uning qo‘lini sira qo‘yib yubormasdan, gapdan ham sira  
to‘xtamasdan, o‘zi ham birushta qaltirab boradi.

– Nima bo‘ldi senga, hoy qiz? – dedi nihoyat Ivan. –  
Uyib-netib qoldingmi? Yo sovuq o‘tdimi? Bezgak tutayo-  
tibdirmi yo chinakam og‘irroq kasalmisan? O‘zing „dir-  
dir“ qaltiraysan: qo‘llaring sovuq, muzday, boshingdan o‘t  
chiqayotibdir.

– Mayli, Ivanjon, mayli, zarari yo‘q! Uyga borib ux-  
laylik, ertalab turganimizdan keyin hammasi yo‘q bo‘lib  
ketadi.

Lekin bu holat tezgina o‘tib ketmadi, har holda Ganka  
istagan tezlikda o‘tmadi. Uning Ivanga bu qadar suqulib

kelishi ham bekor edi. Ivan uyquga ketar-ketmas Gankani vahima bosar va uni yana uyg'otib yuborardi.

– Ivanjon, uxlama! Bir narsadan gapirib ber menga! – deb pichirlardi u, qo'rqinch qorong'ilikni ko'rmaslik uchun ko'zlarini yuma-yuma.

– Jinni bo'ldingmi sen? – deb so'kdi Ivan. – Men charchagan odamman, uxlamoqchiman. Nima to'g'risida gaplashaman men sening bilan?

– Nima bo'lsa ham mayli! Nima bo'lsa ham uxlamasang bo'ldi! Shu qadar qo'rqamanki...

– Nimadan qo'rqasan?

– Bilmayman nimadan, nimadanligini, qo'rqaman... Nimadanligini bilmayman! Sira uxlayolmayman.

So'ngra yig'lab yubordi. U hamma gapni Ivanga aytib bermakchi bo'lar, lekin allanarsa uni bu fikridan qaytarardi. Shu uchun u hadeb tishlarini qisar, qonatar darajada lablarini tishlar va hech narsa aytmas edi... Tongga yaqin tashqarida havo oqara boshlagachgina u uxlab qoldi.

### **Ivan bilan Ganka**

Bir necha kun o'tdi. Ivan konda ishini qildi; traktirda yeb-ichdi, Feruzani sira o'ylamasdan, Gankanikida yotib yurdi. Ganka tinchlandi va endi kechalari qo'rqmay turgan bo'lib qoldi. Lekin har holda yolg'iz yotgali botina olmasdan, Ivanni kechasi o'zinikiga olib ketmak uchun har kecha har yo'l bilan uni o'ziga tortgali urina boshladi.

Burun Gankanikida yotishga o'zi talabgor bo'lib yurgan Ivan endi xohlamasdan bora turgan bo'ldi. Ganka unga yopishib kelsa, uning g'ashi kelardi. Ganka u bilan gaplashgali boshlasa, u so'kinardi; Ganka kelib yoniga yotsa, u jirkanganday bo'lib, o'zini olib qochardi.

Tez orada bu „qo‘nishlar“ uni badtarroq jirkantiraturgan bo‘ldi. Ganka tez uxlab ketardi; lekin kechasi yana uyg‘onib ketib, allaqanday bo‘g‘iq bir vahimani seza boshlardi.

„Nima balolarni ko‘radi bu tushida? Nega muncha baqiradi?“ – deb o‘ylardi u. O‘sha xil baqirishdan so‘ng qizning og‘ir nafas olishini tinglab turardi. Shundan keyin qiz yana tinchgina uxlab ketardi. Yarim soatcha qiynalgandan so‘ng ko‘zi uyquga ketgan Ivan yana tag‘in dahshatli „dod-voy“larni eshitar, yana uyg‘onib ketardi.

– Ganka, qanday balo seni tushingda bo‘g‘adi? Nega muncha qattiq baqirasan?

– Menmi, – dedi Ganka bir qur seskanib olgach, so‘ngra tishlarini qisdi. – Men hech narsa bilmayman!

– Unday bo‘lsa, mundan keyin sening yoningda boshqa odam kelib tunasin, men bo‘ldim, – deb achchig‘lanib g‘udurlandi Ivan. – Odam bolasinikiga o‘xshamagan yovvoyi bir ovoz bilan shunday baqirasanki, ko‘zimda uyqu-muyqudan asar qolmaydi.

– Qani, qani, Ivancha, qani, qilib ber-chi, qanaqa baqiraman men?

– Xuddi teringni shilib olganday baqirasan.

– Xo‘sh, nimalar deb gapiraman?

– O‘sha gaplaringdan bir narsa uqib bo‘larmidi? Xuddi so‘yilayotgan hayvonday bo‘kirasan!

– Men o‘zim azaldan shunaqaman. Tug‘ma kasalim bu.

– Bekor aytasan. Burun munday baqirishlaringni sira eshitmaganman.

– Shunaqa, ba‘zida paydo bo‘ladi-da, yana yo‘q bo‘lib ketadi. Sen qo‘rqma, Ivancha! O‘tib ketadi.

– Xoh o‘tsin, xoh o‘tmasin, mundan keyin meni bu shumli uyingga hech bir yo‘l bilan olib kelolmaysan!

– Ana xolos, darrov achchig‘ing keldi. Bu yaxshi emas, Ivan! – dedi Ganka; kech kirgach, yana suykandi unga, yolindi, yolvordi, pivalar, araqlar olib berdi. Oxirda mast bo‘lgan Ivanni unatib, yana o‘zinikiga olib ketdi.

Ivan qattiq mast bo‘lsa, juda qattiq uxlar va Gankaning ancha-muncha baqirishlariga uyg‘onmas edi. Shu uchun qiz unga mumkin qadar ko‘p ichirar va hatto uyiga ham bir shisha-yarim shisha olib kelib, Ivanning bolishi ostiga qo‘yib qo‘yardi. Uyqusi ochilib ketsa, darrov bosh ostiga qo‘l uzatsin, olib ichsin, so‘ngra yana uxlab ketsin, deb.

Ori rost, bu xil unashlar natijasida Ivanning rangi olinib, yuzi bir xil ko‘kimtil tusga kirib, boshi og‘riyturgan bo‘lib qoldi. Lekin bu to‘g‘rida Ganka hech bir g‘am yemas, hatto Ivanning o‘zi ham ko‘zguda yuzini ko‘rgali vaqt topmas edi.

Ojizlik bilan boshini quyi solib, u har kun ishiga boradi.

Uning yuzlarida yolg‘iz bir narsa ochiq ko‘rinadikim, u ham bo‘lsa, undagi xafahollik, tabiatidagi quvnoqlikning so‘nishi, o‘yin va kulgiga bo‘lgan havasining yo‘qolishidir.

– Ey, Ivan, sen shu kunlarda allaqanday bo‘lib qolding, – deydilar unga o‘rtoqlari.

– Rost, allanarsa bor, – deb qayg‘irib javob beradi Ivan.

– Nima bo‘ldi senga? Tag‘in kasal bo‘lmagil?

– Do‘xtur, ey, har kun erta bilan boshim og‘riydi. Bu, ehtimol, araqdan bo‘lsa.

– Eyy, yo‘q, araqning o‘ziga bo‘lsa, bosh og‘rimaydi. Agarda unga pivo aralashtirib ichsang, ana unda yomon. Mana shundan bosh og‘rishi mumkin.

– Ha, rost, balki, o‘shandandir. Endi bundan keyin aralashtirmayman.

## **Arina kampir**

Bir kun tush paytida Ivanni zovurdan tortib oldilar. U neft gazidan o'lar darajada bo'g'ilgan holda tuproq uyumi ustida yotardi. Og'ir-og'ir nafas olib, ba'zi-ba'zida bir ryumka araq ichib, o'ziga kelardi. Xuddi shu vaqtda Feruzalar bilan bir uyda yotib turatrgan ishchi xotin – Arina degan kampir kelib kirdi. Bu xotin Feruzaning hango-malarini yaxshi bilar va Ivanni ham tegishincha tanirdi. Shuning uchun ishchilar bilan salom-alik qilgandan so'ng, to'g'ri Ivanning yoniga qarab ketdi.

– Menga qara, Ivan! – dedi kampir. – Feruzang qayerda? Sen uni bilmaysanmi?

– Mening Feruzam? – deb g'udurlandi Ivan. – Qanday qilib meniki bo'lar ekan u?

– Xayr endi, qanday bo'lsa o'shanday, ishqilib, mendan ko'proq seniki. Shuni so'ramoqchi edim sendan: qani, qayerda o'sha qiz?

– Nima, men uning ortidan iz quvlab yuribmanmi?

– Eyy, g'alati odam ekansan-a? Men sendan yaxshi odamsan, deb to'g'rilikcha so'rab yotibman... Sen kampir onangga yumshoq gap bilan javob qilgil, undan keyin jindak araq bilan siylagil.

Ivan hech narsa demasdan, araq quydi-da, kampirga uzatdi. U araqni ichdi. Qarilikdan burishgan lablarini qiyshaytirdi. Kir-mog'or yengi bilan og'zini artirdi.

So'ngra Ivanning yoniga o'tirib, astagina so'zlay boshladi:

– Mana bu siylaganing uchun rahmat! Xuddi ko'nglimga yetib borib to'xtadi. Men nima aytmoqchi edim senga?.. Ha, Feruza to'g'risidaydi. Bilasanmi, ikki haftadan beri biznikida yotmay qo'ydi u. Men o'yladimki, siz endi,

balki, boshqa bir joy olib, birga tura boshlagandirsiz; shuning uchun bizdagi kiyim-kechak solib qo'ygan bir sandig'i bor, qo'rqma, quluflangan, hech kim hech narsasiga tekkanini yo'q. Xudo saqlasin undan! Endi borib, o'sha narsalarni olib ketsin.

Ivan gangib, boshi qotib turardi. Zovurdagi neft gazidanmi yoki ertalabki bosh og'rig'idanmi, yo shu tobda kampir aytgan gaplardanmi, ishqilib, nimadan gangiragan bo'lmasin, shu onda hech narsani anglay olmasdan kampirning gaplarini ham xuddi bir ertakday tinglab o'tirardi.

– Ha, ha, – dedi u birdan boshini qimirlatib, – chinakam, borib narsalarini olsin. Lekin o'zi qayerda ekan?

– Hali sen bilmaysanmi?

– Uni ko'rmaganimga ikki haftadan ko'p bo'ldi.

– Qayerga ketganini ham bilmaysanmi?

– Qayerga ketganini? Shoshmang-a! Biz o'sha kuni... Oqshom chog'i edi... Kirnetskiynikida... jindak koyishib qoldik... O'shanda traktirdan chiqib ketdi, shundan beri ko'rganim yo'q.

– Qaysi kun edi, eslaysanmi?

Ivan kunni eslayolmadi.

– Ikkovingiz g'ijillashib qolgan bo'lsangiz, u, balki, arazlagandir. Sening ko'zingdan yiroq bo'layin, deb boshqa biror joyga ishga o'tgandir. O'zining qayerdaligini senga bildirmaslik uchun, balki, boshqa biror joyda yotib ham yurgandir. Lekin sen, yaxshi yigit, har nima bo'lganda ham uni axtarib ko'rsang bo'lardi, yo'qsa biz yotgan uyning egasi – qorovul chol Feruzaning joy ijarasini bizdan qistab yotir. O'zgalar uchun biz hech qachon to'lamaymiz. Mana shu gap, uy ijarasiga deb uning narsalarini bosib olmasinlar tayin!



– Xo‘p, xo‘p, men surishtiraman... Bir ish qilib o‘zim xabarini beraman.

Kampir ketdi. Ivan bo‘lsa yo bir narsani o‘ylab, yo hissiyotga botib, anchagacha o‘tirdi. So‘ngra o‘rnidan turib, tez-tez ovqat yegali boshladi. Negakim, ovqatdan so‘ng yana qaytib zovurga tushmak kerak edi.

Oqshom u Feruzaning qayerga yo‘q bo‘lib ketgani ni bilmaysanmi, deb Gankadan so‘radi. Ganka ko‘zlarini olaytirib, rangi oppoq paxtaga aylanib, xuddi, so‘z bilan bo‘g‘ilganday bo‘lib g‘urungladi:

– Yo‘q, bilmayman!

Ivan Gankadan mundan ortiq so‘rab o‘tirmadi. Ganka bilan Feruza o‘rtasida ko‘chada bo‘lib o‘tgan mashhur urishdan so‘ng Feruzani Borislaf shaharchasida hech kim ko‘rgani yo‘q.

Ivan Gankadan yana so‘radi:

– Menga qara, Ganka! Sen Feruza bilan ko‘chada bir urishib eding, esingda bormi?

– Ha, bor, avvalboshlab o‘zi osildi.

– O‘sha kunning o‘zida u oqshom chog‘i Kirnetskiyni-kida edi.

– Men ko‘rganim yo‘q uni.

– Ko‘rganing yo‘q? Hoy, rostini gapir!

Gankaning yana rangi o‘chdi. Lekin tezgina o‘zini to‘xtatib oldi.

– Nega sen menga o‘shqirasan?

– Mana, ko‘rasanmi, o‘sha kundan beri qizdan darak yo‘q.

– Sen usiz sira yashay olmaysan-a?

– Mening nima ishim bor u bilan? Shunchaki...

– Yo‘qolgan bo‘lsa yo‘qolibdir, Xudoga shukr, qo‘rqma, jin urmagandir. Sening bo‘yningga tumor bo‘lolmasligini bilgandir, „bor“, deb uyiga qaytib ketgandir.

- Narsalarining hammasini qoldirib ketibdir-da.
- Qoldirsa nima bo‘ladi?! Qancha narsasi bor ekan uning? Uch miridan osharmikan?
- Yo‘q-ey, kiyim-kechaklari bor.
- Unday bo‘lsa, albatta, bir joydan chiqib qoladi.

### **Yangi turmush xayollari**

Ivan biroz tinchidi... „Chinakam ham juda mumkin, – deb o‘yladi Ivan. – O‘sha kuni Feruza juda yomon achchig‘langan edi. Kirnetskiynikidan chiqqach, Borislafdan chiqqach, to‘ppa-to‘g‘ri uyiga qaytgandir“.

Shundan so‘ng Feruza to‘g‘risida hech kimdan hech narsa so‘ramay qo‘ydi. Yakshanba kuni kelgach, Feruza turgan uyga borib, uning uy ijara haqlarini to‘lab, narsalarini o‘zinikiga olib keldi.

Bayram kunlarida o‘z qishlog‘iga tushib, Feruzaning narsalarini o‘ziga topshirishga qaror berdi. Uning bu qarorida Feruzani ko‘rmak yoki u bilan yarashmoq istagi yo‘q edi, albatta. Yolg‘iz uni surishtirib, o‘tkazgan bir necha kunlarida u xuddi o‘z gardanida chinakam ayb borday, allaqanday bir vahimaga yo‘liqqan edi.

Borislafning o‘z hayoti bu o‘tkinchi talvasalarni tez kunda bosib ketdi. Na Ganka, na boshqa birov Feruzani taqir o‘ylamas bo‘ldi. Hatto Ivan ham unutdi uni. Lekin shunda ham Ivanni allaqanday bir narsa qiynab turganday bo‘lardi. Araqqa, ulfatchilik‘a, o‘yin-kulgiga bo‘lgan havaslari so‘ndi. Va kon ishchilari orasida sira ko‘rilmagan ravishcha pullarini ham ehtiyot qila boshladi.

Ikkinchi haftaning o‘zidayoq u topgan pulining tek yarminigina sarf qilib, qolgan yarmini – besh „guldo‘n“<sup>1</sup> ni orttirib qoldi. Lattaga o‘ralgan bu beshlikni olib yurib,

---

<sup>1</sup> *Bir „guldo‘n“* – 80 tiyin; beshligi – to‘rt so‘m.

g'alati rejalar chiza boshladi. „Borislafning turmushi, – deb o'ylar edi u, – chinakam erkin turmush, lekin odam bolasi-ga yarashaturgan turmushmi? Uning erkinligi ham qursin! Erkinlik yolg'iz yakshanba kuni bilan bayram kunlarida, xolos. Boshqa kunlarda sen ish ho'kizidan o'zga emassan. Mundan ortiq xorlik bo'ladimi? Sen kon egasining yoki u belgilagan odamning asl qulisan. Yer ostida hayotingning har bir daqiqasi xavf ostida, yer betida bo'lsa – doim so'kish... Va doim bu badaviylik, shu ifloslik, shu buzuq havo, shu mastlik, shu ibtido<sup>1</sup>.

Ayo, to o'lguncha, to qariguncha uning turmushi shunday o'tadimi? Shuni o'ylagan vaqtda butun vujudi sovuqdan jimirlab ketadi.

O'zi tug'ilgan qishloqning ko'm-ko'k dalalari, chechak to'la qirlari, kulrang terili ho'kizlari, oppoq qilib oqartilgan uylari va kichkina-kichkina bog'lari esiga tushdi uning. Va u birdaniga kelgan shu talvasalar bilan yig'lab yuborayozdi.

Shunday jannatni qanday esipastlik bilan shu issiq yerga alishtirib yurgan ekan u? Shundan so'ng uning xayolida qishloq turmushining ko'rinishlari bir-bir ketin yasov tortib o'ta boshlaylar...

Bu eslatishdan so'ng uning o'ylari to'ppa-to'g'ri Feruzaga keldi. U ham axir uning qishloq turmushidagi go'zalliklaridan biri edi-ku! Agarda quruq charxning qitillashi uning esiga shu topda shu qadar yoqimli bo'lib tushayotgan esa, bu yolg'iz shuning uchundir, quduq boshida, u Feruza bilan birga sevimli so'zlar so'zlashib, ko'p kechalarni kechirgan edi.

Bug'doy o'rog'i vaqtida Feruza otasiga tushlik olib borardi. O'shanda – yolg'iz bu ishlab turgan ekinlik orqa-

---

<sup>1</sup> *Ibtido* – Muftalo bo'lish, ilinish (o'rganib qolish, ko'proq ichkilik, chekish narsalariga).

li yurmak, o'zining go'zal tovushi bilan unga bir martaba „hormang!“ deb va kulrang ko'zchasidan bir kosa-yarim kosa muzday suv berib o'tmak uchungina u qiz eng olis so'qmoq yo'llarni ham izlab topmasmidi?

Bayram vaqtlarida-chi, bayram vaqtlarida... Unda... Unda... Shunday qilib, Ivanning xayoli qishloq turmushidagi go'zalliklarning Feruzaga bog'liq davrlaridan yuzlarcha, minglarcha xotiralarni uning eslarida jonlantira ketdi. Va shunda uning yuragiga allanarsa qadalib, siqdi.

Afsuslar qimirlab, alamlar ko'tarildi. „Feruz haqli edi! Men endi tezlik bilan Borislafni tashlab, qishlog'imga qaytmasam bo'lmaydi!“

To'g'ridir: u o'zining tole'siz ko'rliigi bilan ota merosini sotib sovurdi. Feruzani o'zidan qochirdi. Lekin hali o'zi yosh, kuchli, sog'lom va shuning uchun qo'lidan chiqqanlarning barchasini qaytarib qo'lga kirgizishga yaraydi.

Mana, bir hafta ichida bitta „beshlik“ orttirdi. Holbuki, bir haftada „beshlik“ emas, „sakkizlik“ orttirish ham mumkin. U holda bir yilda to'rt „marg“ yer keladi<sup>1</sup>. Shunday qilib, hech kimga bildirmasdan yangi turmush boshlasa, pulni har tomonga sovurmasdan, tushganini to'plab borishga qaror berdi. Undan u yog'ida bir narsa chiqar.

### **Shartnoma**

Bayramda Ivan chinakam o'z qishlog'iga qaytdi. Bu safargi qaytishda uning yonida lattaga o'ralgan 50 guldo'n pul, boshida esa otameros yerning bir bo'lagini bo'lsa ham qaytadan sotib olish to'g'risida pishiq reja bor edi.

Qishloqqa kirgan hamon u to'ppa-to'g'ri muning otameros yerlarini olgan mushtumzo'rnikiga qarab ketdi.

---

<sup>1</sup> Har „marg“ – yarim desat.

Mushtumzo‘rga sotilgan joy – sabzazor bog‘ va ortida uch marg yer bilan bir qishloq uyidan iborat edi. Mushtumzo‘r bu joyni dehqonchilik qilib foydalanmoq uchun emas, tayyor uyga traktir (pivaxona) ochmoq uchun olgan edi. Lekin, negadir, uning ishi oldinga yurishmadi. Bir qishloqning o‘zida hali ham to‘rtta traktir bo‘lgani uchun beshinchisiga ruxsat olish qiyin edi. Muning ustiga uning ko‘p narsalarini bir martaba o‘g‘ri urib ketdi. Shuning uchun u bu joyga kelgandan so‘ng boyish o‘rniga, juda yo‘qsullanib qoldi. Shuning uchun:

– Falokat joy bu, – der edi u o‘zi ham va bu joyni sotib, boshqa bir joyga o‘tmakchi bo‘lib yurardi.

Shuning uchun otameros yerini olmoqchi bo‘lib kelgan, ayniqsa, xaltasini ham quruq ko‘tarib kelmagan Ivaning mushtumzo‘r uchun juda istakli mehmonlardan bo‘lishi sira taajjub emas edi.

Ular bitishdilar; uch yuz guldo‘n baravariga mushtumzo‘rga sotilgan o‘sha hovli-joy uchun – bir yarim yil orasida berib tugatmak sharti bilan – Ivan ham o‘sha uch yuz guldo‘nni mushtumzo‘rga topib berajak bo‘ldi. Unga qadar joyning ixtiyori mushtumzo‘rda qolajakdir.

Ertasi kun Ivan bilan mushtumzo‘r shaharga tushib, notariusnikida shartnoma qilishdilar. O‘sha yerda Ivan shartnomada ko‘rsatilgan mablag‘ning bir bo‘lagini, ellik guldo‘nni naqd sanab berdi. Shundan so‘ng, o‘zi ham erkin bir nafas oldi. Endi uning oldida belgili bir maqsadi bor. Endi u o‘z yuragida ishlash uchun kuchli bir havas qo‘zg‘olganini va butun borlig‘ida allaqanday yangi bir kuch paydo bo‘lganini sezdi.

Bu kunlarda u Feruza to‘g‘risida oz o‘ylardi. Uning qishloqda yo‘qligini va kelmaganligini mushtumzo‘rdan so‘rab bildi. Yaqinda qizning otasi qizining Borislafda ham

yo‘qligini eshitgach, jandarma idorasiga borib, bolasining axtarmog‘ini so‘ragan ekan. Hozirgacha hech bir natija ko‘rilmagan emish. Ivan qizning otasi bilan ko‘rishishni o‘zi uchun o‘ng‘aysiz bilardi. Mana shu sababli Feruzaning narsalarini otasiga topshirmoq uchun haligi mush-tumzo‘rga berib, o‘zi qishlog‘iga kirmasdan, shaharning o‘zidan to‘ppa-to‘g‘ri Borislafga qarab jo‘nadi.

### Folbinning follari

Kunlar ketidan kunlar, haftalar ketidan haftalar o‘tdi. Jandarmalar Feruza to‘g‘risida Ivandan ham, Gankadan ham, boshqa ishchilar va ishchi xotinlardan ham surishtirdilar. O‘sha o‘zimizga ma‘lum kechaga qadar o‘tgan ishlarning hammasini aniqladilar. Lekin undan nariga o‘tgach, hech narsa bilmadilar va shu bilan bir necha kundan so‘ng surishtirishni ham bas qildilar.

Allakim Feruzaning allaqanday xizmatga kirgani to‘g‘risida ovoza taratgan. Allakimlar uni shaharda allakimning xizmatida ko‘rganlar. Boshqa birov esa uning tog‘ tomonga chiqib ketib, u yerda allaqanday dehqonning qo‘rg‘onida yashay boshlaganini eshitgan. Yana boshqa birovlar uning allaqanday boylar bilan birga Istriy shahariga ketganini gapirganlar. Mana shu bilan tinchlanganday bo‘lganlar.

Ivan Ganka bilan mavlud bayramidan<sup>1</sup> ham burun-roq ayrilishgan edi. Ularning orasiga hech qanday janjal oralagani yo‘q, albatta. Yolg‘iz bora-bora Ganka Ivanning ko‘ngliga tegdi. Unga yoqmay boshladi va hatto Ivan uni ko‘rishni ham istamay qoldi. Boshda Ganka bu ishga lo-qaydlik bilan qaradi.

---

<sup>1</sup> *Mavlud bayrami* – Iso payg‘ambarning tug‘ilgan kuni, xristianlarning mavlud bayrami.

– Demakki, shunday! Ivan meni xohlamay qolgan bo‘lsa, parvoyi palagimga, boshimning g‘alvasi kamrak bo‘lar. Shu choqqacha o‘zim yolg‘iz yashab, o‘zimni eplab kelgan edim, mundan keyin ham eplab ketarman.

Ammo bir necha hafta o‘tgandan so‘ng, Gankaning rangi olinib, sarg‘ayib, ozib qoldi. Uni tag‘in vahima bosa boshladi. O‘zi yolg‘iz uxlayolmay turgan va kechalari cho‘chib uyg‘onib, dodlayturgan bo‘lib qoldi.

Axir bir kun Feruza bilan yotib yura turgan xotinga – Arina kampirga yalinib, mana shu vahimadan qutqarmog‘ini so‘radi.

Kampir folbinlik bilan nom chiqargan edi. Gankaning so‘rovini qabul qilib, va‘da berdi va sekin-asta ehtiyot bilangina, bu vahimaning qachondan paydo bo‘lganini surishtira boshladi. Nimadan bo‘ldi, qanday bo‘ldi va qachondan beri shunday bo‘ldi, deb so‘radi. Ganka ham bu ahvolning kuzdan boshlab ro‘y berganini darrov iqrar qilib qo‘ydi. Feruza ham kuzda yo‘qolgan edi. Lekin mundan boshqa hech narsa aytmadi.

Kampir avval bir idishda suv keltirib qo‘yib, ul idishga ancha dam solgandan so‘ng, bir bo‘lak qo‘rg‘oshinni eritib, Gankaning boshidan aylantirgach, yana shu idishga to‘kdi. So‘ngra idishga tikilib turib, birdan qichqirib yubordi.

– Ey qizim, sho‘ring bor ekan sen yetimning! Hech kim senga ko‘mak berolmaydi!

Ganka qo‘rqqanidan toshday qotib qoldi.

– Ha, nima bo‘ldi?

– Muni qara, jigarim, qo‘rg‘oshin suvga tushgandan keyin qumday tirqirab ketdi.

– Tirqirab ketsa nima bo‘ladi?

– Ey, nimasini aytay senga? U narsani bunday joyda o‘ylash ham yaramaydi.

Ganka gapni uncha kavlab ham o'tirmadi. Kampir esa o'rnidan qo'zg'olmay, idishga tikilib olib, boshini to'lg'ab, allakim bilan tovushsiz gaplashib yotganday, so'lg'in lablarini qimirlatib, „pichir-pichir“ qilib o'ltira berdi.

Unga qarab Ganka o'z yuragida sovuq bir qo'rquv tuydi. Unga shunday tuyildikim, bu kampir hozir allaqanday arvoq bilan gaplashib turadi, so'ngra uning yarim so'nik ko'zlari qizning ko'ngligacha kirib borib, shu topda undagi mudhish sirlarni ham o'qib yotadi.

Qiz birdan kampirning oldida turgan suvli idishni oldida, teraza orqali tashqaridan zovurga irg'itdi. Kampir sira pinagini buzmasdan unga qaradi. Tishsiz og'zi bilan bir kulib qo'ydi.

– Sening ishing ko'p ham yaxshi emas, qizim, yaxshi emas! – dedi kampir. – Bu, sendagi narsa quruq vahima emas, yo' o' o' q...

– Nima, nima narsa bo'lmasa?

– Sening ko'kragingga allaqanday og'ir bir narsa yopishibdir, qizim. Voy, rost gap, rost. Men ko'rib turibman, baribir iqrorga qilmaguningcha qutulolmaysan, bolam.

– Nimalar deb yotibsan sen, kampir? Nimani iqrorga qilar ekanman men? Nima qilibman men, birovni o'ldirib yo birovning bir narsasini o'g'irlabmanmi?

– Men qaydan bilay? – dedi kampir yelkasini qoqib. – Mening ishim emas, o'ksizim, mening ishim emas! Men senga o'zimcha o'quv chiqarib aytayotganim yo'q. Arvoqlarning aytganini aytayotibman. Sen, bolam, bilganingni qil!

Kampir chiqib ketishga boshladi. Ganka mundan so'ng o'zining yana badtarrak besaranjom bo'lajagini va mundan nari o'zi yolg'iz sira uxlayolmayajagini yaxshi sezdi.



Shu uchun kampir dan bu yerga ko'chib kelib, o'zi bilan birga yotishini so'ramoqchi bo'ldi. Muning so'rovlariga kampir unamadi. Lekin bu ham sira bo'shatmasdan yalina bergach, oxirda rozilik berdi. Va shu kunning o'zida ko'chib kelmakchi bo'ldi.

### **Nemis bilan shartnoma**

Ivanni allakim irim-sirim bilan boshini aylantirib qo'yganga o'xshaydi. Mundan o'zga emas. Tanib bo'lmay qolibdir sho'rlik yigitni, bir og'iz ham, yarim og'iz ham og'zidan so'zi chiqmaydi. Xuddi ayiqday – indan chiqmaydi, traktirga kelmaydi, ichkilik ichmaydi, qachon qarasang, xayolga botib yuradi. Baxil bo'lganini ayting! O'zidan ham qizg'onadi-ya... Xuddi itga o'xshab kun kechiradi, hech kim bilan bordi-keldi qilmaydi. Burun qanday yaxshi ko'rardi o'yin-kulgini, ulfatchilikni, xotinbozlikni; endi hozir tanib bo'lmaydi! Birorta xotin muni irim qildirib, shu holga solib qo'ygan, o'zga emas!

Ishchilar o'z oralarida mana shu xil gaplarni ko'p gaplashdilar. Ivan bilan har bir yo'sinda gaplashib ko'rdilar: astoydil ham, ermak qilib ham, hazillashib ham, jiddiy ham – hech biri foyda bermadi.

– Ey, tinch qo'yinglar axir meni! Siz nimani bilasiz? Sizning boshingizda o'zingizniki, mening boshimda o'zimmniki!

Ularning undan eshitgan butun javoblari mana shundan iborat edi. So'ngra ular yenglarini qoqib, undan yiroqlashdilar.

Ba'zilar dedilarki, u ilgari zalolatga ketgan ekan-u, endi tavba qilgan emish. Lekin Ivanning o'zi bu gaplarning hammasiga e'tiborsiz qarardi.

Nihoyat, allaqaydan Ivanning otameros yerini qayta-

dan sotib olmoqchi bo'lganini bilibdilar. Ivanning o'zi bu gapni hech kimga aytmagan edi. Demak, bu gapni uning o'z qishlog'idan kelgan birorta odam yoygan bo'ladi.

– Ha, mana shunga pul yig'ayotgan ekan-da! Shoshmay tur sen! Juda qaltis bir siri borday, bizdan yashiradi-ya!

Shundan biroz o'tgach, Ivanga qattiq bir hazil qildilar: kechasi uning pulini o'g'irladilar. Pulining o'zi ham ko'p emas, 8 guldo'ncha bor edi, xolos. Shunday bo'lsa ham hayf, Ivan „dod-voy“ qildi. Lekin pul ketgan. „Sizning pulingizni o'g'irlabdirilarmi, Ivan?“ deb bir kun unga savol berdi prikazchik<sup>1</sup>.

– Him, him, – deb g'ungullab qo'ydi Ivan.

– Eshitdimki, pulingizni yig'ib borasiz ekan, yer-per olmoqchimisiz? – deb davom qildi prikazchik.

– Ha, yer olmoqchiman.

– Juda yaxshi qilasiz! Xudo yor bo'lsin! Siz o'zingiz durust odam ko'rinasiz. Pul degan narsa – katta gap. Topish – qiyin, yo'qotish – oson. Yelga sovurmak uchungina pul sovurmoq – ahmoqlik. Bu ham bir-u, odam o'z umri, o'z kuchini yelga sovurishi ham bir. Bir kun kelib odam qariydi, kuchdan qoladi, o'shanda ham yana pul kerak bo'ladi.

Prikazchik juda to'g'ri gapirardi, o'zi ham samimiy odam edi. Shundan so'ng Ivan ham unga o'z fikrlarini ochib aytdi. Prikazchik ilgari uni xo'b maqtagach, so'ng dedi:

– Men sizga mana munday maslahat ko'rsataman, Ivan! Nega pulingizni yoningizda olib yurasiz? Mast odamlar o'g'irlab qo'yadilar. Yoningizdagi pullaringizni

---

<sup>1</sup> *Prikazchik* – Kon egasining odami, vakili.

siz menda – kassada qoldiringiz-u, o‘zingiz bitta daftarcha qiling. Har bir oylik tekkanda men sizga o‘zingizga yetarligini beraman, qolgani kassada yota beradi. Men o‘z daftarimga yozib boraman, siz o‘z daftaringizga; shunda adashilmaydi. Yeringiz uchun pul kerak bo‘lganda menga aytasiz, men sizga darrov kassadan olib beraman. Pulingiz ishonchli joyda bo‘ladi, hech kim o‘g‘irlamaydi.

Ivan birdaniga qaror berolmadi, nemis-ku to‘g‘ri maslahat berayotibdir-a, har holda unga ishonib bo‘lmaydi. Lekin, ikkinchi tomondan o‘ylaganda, mundan boshqa iloj ham yo‘q. Bir martaba o‘g‘irladilarmi, yana o‘g‘irlaydilar. O‘sha prikazchikning maslahatiga ko‘ngan yaxshiroq. Shunday qilib, Ivan ko‘ndi.

Xudoga shukr, gina qifa turgan joyi yo‘q. Nemisning qo‘lidagi pul 50 guldo‘nga yetgan hamon darrov oladi-da, pochta orqali yer xususida shartnoma qilib bergan notariusga yuboradi.

Ivan o‘zidan ham, prikazchikdan ham rozi edi; ishlarining yaxshi bo‘lajagiga ishonchi ham tugal deyarli edi. Hali bahor kirib ulgurmagan bo‘lsa-da, u yerga tegishli pulning to‘rtidan uch hissasini berib bo‘lgan edi!

Endi u o‘zining xayollari bilan, butunlay demak mumkin, o‘z qishlog‘ida yashardi. Chuqur zovur yoki qorong‘i konda ma‘dan kavlab turib ham xayoli o‘z qishlog‘ida bo‘lar; o‘zini go‘yo quyoshning yorug‘ shu‘lalari ostida yer haydab, bug‘doy o‘rib, don tashib turgan dehqonday sezardi. Borislaf hayoti uning uchun xuddi bir qorong‘i zindonday edikim, erta-indin u bu zindondan qutulajak, bu kenglikda muni ko‘m-ko‘k ko‘kargan xushbo‘y o‘tlar bilan olma gullariga ko‘milgan olma og‘ochlari qarshi olajaklar!

## Shoʻrlik ota

Roʻza<sup>1</sup> bayramining birinchi haftalarida Borislafga Feruzaning otasi keldi. U Ivanning qayerda ishlaganini surishtirib bilgach, toʻgʻri uning yoniga bordi.

– Ivan, mening qizim qani? – mana shu savol bilan boshlandi ota shoʻrlikning soʻzlari. Ivan koʻrgandan beri u ancha oʻzgargan: ancha oriqlagan, birmuncha qarigan. Ivanning bu cholga juda rahmi keldi.

– Bilmayman, – deb javob berdi u.

– Bilmaysan? Bilishing kerak edi! Uni oʻzing bilan birga Borislafga boshlab kelgan sensan. Uning qayerdaligini sen bilishga tegishsan!

– Durust, Borislafda vaqtida bilardim. Ammo bu yerdan ketgandan beri bilmayman.

– Qayerga ketgan?

– Qayerga ketganini ham bilmayman! Men siznikiga ketdimikan, deb oʻylagan edim. Balki, biror joyga xizmatga kirgandir?

– Hech qayerga kirmabdir. Men koʻp surishtirdim. Jandarmalar ham toza qidirdilar, Istiriyga ham, Stanislafga ham tiligram berdilar. Diragavichda men jar chaqirtirdim. Hech qayerda yoʻq. Endi oxirda sening yoningga keldim, topib ber mening bolamni!

– Men uni goʻrga koʻmganim yoʻq, – dedi Ivan xotirjamlik bilan.

– Zovurga koʻmmading-u nobud qilding! – deb dahshat bilan baqirdi chol. – Sen oʻldirgansan uni. Aytishlariga qaraganda, u sendan boʻyida boʻlib qolgan ekan. Shundan qutulmoqchi boʻlgansan sen. Sen oʻldirgansan uni.

---

<sup>1</sup>Roʻza – xristianlarning „post“ atalgan roʻzalari.

– Qasam ichib beramanki, unday emas, – dedi Ivan va paxtaday oqarib ketdi.

– Ming martaba qasam ichsang ham ishonmayman senga!

– Unday bo‘lsa bilganingizni qiling. Meni osib yuborsangiz ham gapiraturgan gapim shu. Uning qayerga yo‘qolganini men bilmayman.

Shundan so‘ng chol bir bor yumshadi-yu, lekin yig‘lashga, sochlarini yumdalashga boshladi. Ishchilar va prikazchiklar to‘planib kelib, uni yupatmoqqa kirishdilar.

Kirnetskiynikida o‘tgan ma‘lum kechani, Feruzani so‘ng daf‘a o‘sha kechadagina ko‘rganliklarini, Ivan bilan uning o‘rtasida o‘tgan g‘ijillashlarni, uning traktirdan yolg‘iz o‘zi chiqib ketganini bitta-bitta cholga aytib berdilar. „Shundan so‘ng, – dedilar ular, – Ivan yarim kechaga cha traktirda qolgan edi“.

Prikazchik Ivanni „Ichkilik ichmaydi, yomon yurmaydi, yaxshi odam bu“, deb maqtadi. Nihoyat, chol nima qilishni bilmay qoldi. Diragavichda jandarmalardan Ivanning darrov qamoqqa olinishini so‘ragan edi. Endi bu yerda boshqacha o‘ylay boshladi. Bu yigitni qamatdirish hech gap emas, lekin insofdan bo‘larmikan?

Bordi-yu Feruza achchiq qilib bir joyga – tog‘ tomoniga chiqib ketdi, u yerda bir xizmatga kirdi, uyalganidan turgan joyini ataylab bildirmadi? Shular barchasi mumkin narsalar-ku, jandarmalar ham unga: „Noumid shayton“, demadilarmi? Birovni odam o‘ldirishda ayblash oson emas. Feruzaning chinakam o‘ldirilgani to‘g‘risida jindak bo‘lsa ham bir alomat bo‘lsaydi, unda boshqa gap edi.

Shu bilan Feruzaning otasi ham uyiga qaytib ketdi.

## Ganis va Ya'nas

Bayram o'tdi. Havo isiy tushdi. Dol tog'idan ham sovuq ketmagan bo'lsa-da, vodiylarda ko'klam chechak sochib, go'zal yuz ko'rsatib qoldi. Borislafning ko'rinishi – neft aralash shilpillama balchiqning tutash va chuqur bir handag'iga o'xshardi. Shanba kuniydi. Tiniq va bulutsiz ko'kda quyosh kulib turadi. Yangi po'stin va shapka kiygan prikazchik kimsasiz yerlarda – Borislaf bilan Katef Sofiyasi qarshisidagi so'qmoq yo'lda aylanishib, nemis tilida suhbat qilishadilar.

– Ish shu qadar ko'p, bilsang agar, Ganis, tashvish shu qadar zo'rki, miyalarim shundaqa qurib ketdi, – dedi bittasi.

– Hali zovurga yiqilgan odam tufaylidanmi?

– Mastlik yiqitdi uni zovurga! Mastlik tepdi uning beliga!

– Komissiya keldimi?

– Keldi.

– Xo'sh, nima dedi?

– Menga guldo'n jarima soldilar.

– Nega? Nega?

– Beparvolik uchun emish. Men beparvo emishman! Men qarayolmagan emishman! Ularning ortidan xuddi yosh boladay men qarab yurar ekanman. Uning bu xilda yiqilishi, bir hisobda, xayriyatli bo'ldi. Nega desang, boshqa ishchilar zovurga uning o'zi yopishib, o'zi yiqilganini aytib berdilar. Agar haligi shohidlar bo'lmasa, balki, allakim qasd bilan tashlagan, derdilar.

– Oh, Ganis! – dedi Nikolay Ya'nas deb yuritilgan yana biri. Men zararning tagida qoldim! Mening omborimda bo'lgan shikastni eshitdingmi? Eng kami 50 guldo'n tura-

di! Ayb kimda – ma'lum emas. Zararni kim to'laydi? Nikolay Ya'nas.

– Yo'q, men hech narsa eshitmadim. Nima bo'ldi?

– Bizning xizmatchimiz ikkita yangi parra qayish sotib olib, boshqa narsalar bilan birga menga topshirdi. Men ham omborning tokchasiga qo'yib qo'ydim. O'sha tokchada bir shisha oltingugurt suvi bor edi. U narsa, o'zing bilasan, ishga kerak bo'ladi... Shishadagi suv ishga ishlatilib, tagida ozgina qolgan edi. Shisha o'lgurning og'zida mahkamgina shisha qopqog'i bor edi! Bir kun zovurga qayish lozim bo'lib qoldi. Omborga kirdim. Tokchadan qayishni oldim, shundagina falokat bosib, shishaga tegib ketibman. Shisha ag'darildi. Qo'rqqanimni aytgil o'ziming! Shoshilganimgan shishaga ochiq qo'l bilan chang solibman. O'sha onda ikkita barmog'imni kuydirib tashladi! Kuygan qo'lim bilan shishani joyiga qo'yay desam, yana qopqog'i tushib ketdi. Shundan haligi suv o'lgurdan jindagi, ko'p bo'lsa, 2–3 tomchisi qayishga tomib ketdi. Qopqog'ini darrov yerdan oldim-u, shishaning og'zini mahkamlab, yana joyiga qo'ydim.

– Bay, bay! – deb yubordi Ganis.

– Mening sho'rim quridi! Xo'jayin bilib qolmasin, deb hech kimga aytganim ham yo'q. O'z yonimdan to'lab qo'yaman, shekilli, boshqa iloji yo'q.

Ganis Nikolayga achinganini bildirib, bir „uh“ tortdi. So'ngra Borislafga qaytgandan so'ng haligi qirqilgan qayishni ko'rmak uchun Nikolay bilan birga ataylab omborga kirdi.

Ganis Nikolayga juda uzoq tikilib turdi va afsus bildirganday qilib tez-tez boshini qimirlatdi. Bir vaqt Nikolay Ya'nas birozgina teskari qayrilgan edi, Ganis yonidan kichkinagina bir shishacha olib, haligi suvdan bir necha

tomchi quyib oldi. Nikolay muni sezmay qoldi. Ikkalasi ham ombordan chiqdilar. Ya'nas omborni qulflab oldi. So'ngra ikki do'st bir-biriga oq yo'l tilagach, ayrilishdilar.

### **Ivan pullarini qaytarib olmoqchi**

Oradan yana ikki oycha vaqt o'tdi. Borislaf tegrasidagi bug'doylar o'rila boshladilar. Kunning eng issiq vaqtlari keldi.

Ivan xuddi ichiga o't ketgan odamday yashardi. Borislafda yashash borgan sari og'irroq tuyulardi. Oyog'i ostidagi yer o't bo'lib yonardi. Allanarsa uni bog'lar, turtar va Borislafdan haydaganday bo'lardi. U qanday qilib shu yerdan tezroq qutulib ketishdan boshqa hech narsani o'y-lamas edi.

Mushtumzo'rga shartnomadagi pulning hammasini berib tugatmak uchun unga kuzgacha va, balki, qishgacha shu yerda qolib, yana zovurlarda ishlashga to'g'ri kelar. Mana shu narsani o'ylashning o'zi ham uni allaqanday yovvoyi bir qo'rquv bilan qo'rqitardi.

– Yo'q, chidolmasman! – dedi u bir necha daf'a va har daf'a soatlar bilan kunlarni sanardi.

U yana yuz guldo'n pul to'plagan edi. U pullar nemisning qo'lida saqlanar edi, o'sha pullarni olib, qishlog'iga qaytib, mushtumzo'rga topshirmoqchi bo'ldi. Lekin mo'ljallangan vaqt yaqinlashgani sayin yana boshqa bir fikrga ko'prak-ko'prak berilar, xuddi dengizga botayotgan odam bir taxta parchasiga yopishganday, tobora o'sha fikrga yopishardi.

„Yuz guldo'nni-ku to'laganman, – deb o'ylardi u. – Yana yuz guldo'nni endi olib to'layman-da, Borislafni tashlayman. Ketaman-u, yana qaytib kelmayman. Qolgan bir yuz guldo'nni bir ish qilib ishlab yurib topib berarman



yoki birovdan qarzga keltirarman, ammo-lekin bu yerda qolmayajakman“.

Boshda olis xayollar kabi xiraroq bo‘lgan bu fikr bora-bora uning miyasida belgili shakllarga kira boshladi.

U har xil yo‘llar axtara boshladi.

„O‘ylanayin, qizning qancha yo‘qsil bo‘lganda ham 100 guldo‘ni bo‘ladi. Balki, muning ustiga yana biroz yer ham tegib qolar“.

So‘ngra yana haligi pulga ikkita ot olib, aravakashlik qilmoqchi yoki birovga qarolikka yollanmoqchi, yoki podshohlik o‘rmonida sarjinlik bilan mashg‘ullanmoqchi bo‘lib qoladi. Qayerda bo‘lsa ham, qanday qilib bo‘lsa ham biroz pul topib, mushtumzo‘rning pulini berib, o‘zining yerini olmoqchi. O‘z yeri, o‘z joyida hammadan yo‘qsil, hammadan orqada bo‘lsa ham, o‘zi ega bo‘lib, o‘zi ishlamakchi bo‘lardi. O‘zining bu fikrlarini Ivan kimsaga ishonib aytmas edi. Yolg‘iz mo‘ljallagan kuniga bir hafta qolganda nemisga dedi:

– Menga qarang, Ganis, bir haftadan keyin mendan olgan pulning hammasini birdan qaytarib berasizmi?

– Bo‘lmasam-chi? – dedi Ganis. – Xo‘sh, nima gap, pochtadan jo‘natay deysizmi?

– Yo‘q, o‘zim olib ketmakchiman.

– Nega o‘zingiz borib yurasiz? Pochtadan ham yuborish mumkin-ku.

– O‘z ishlarimni ko‘rgim kelayotir. Bilmayman, balki, o‘sha yoqlarda butunlay qolib ketarman.

– Xo‘sh, bizni tashlab ketmakchimisiz?

– Ha, ketmakchi edim, lekin bilmayman... O‘sha mushtumzo‘rning pulini berib, yerni olish uchun o‘sha yoqlarda birorta ish topilsaydi...

– Mayli, ixtiyoringiz, – dedi Ganis Ivanning so‘zini bo‘lib, – juma kuni pulingizni tugal topshiraman.

Shu bilan suhbat tugadi. Shundan keyin Ivan bilan prikazchik o'rtasida pul to'g'rida hech bir so'zlashuv bo'lmadi.

### Qo'rqinch xabar

Juma kuni kechqurun Ivan kechki navbatda ishlashi kerak edi. „Bu, – deb o'yladi u, – yer ostida, zulmat o'lkasida so'nggi kecham bo'lajakdir“. O'sha kechada uning ko'ngli yengil va quvnoq edi, lekin kutmagan bir xabar uning quvna b turgan ta'bini xira qilib qo'ydi.

U biroz araq ichgandan so'ng quruq nonni zakuska<sup>1</sup> qilib, endi konga yaqinlashib kelayotgan vaqtida nari yoqdan o'sha Feruzaning yo'qolganligi to'g'risida birinchi daf'a xabar olib kelayotgan Arina kampir shu yoqqa qarab kelayotir edi. U xuddi pishinganday kelardi. Ivan uni taniyolmadi. Shundan so'ng u o'zining qoq va qora qo'llarini Ivanning orqasidan uzatib, yelkasidan ushlab oldi.

Shunga qadar o'ylanib kelayotgan Ivan, shunda, xuddi uyqudan uyg'onganday bo'lib ketdi va bir qur seskanib olib, so'radi:

– Kim bu?

Aylanib qaragach, kampirning qo'rqinch, sariq va tishiq yuziga ko'zi tushdi. U yuz o'zining ko'm-ko'k lablarini keng ochib va tishsiz milklarini ko'rsatib, allaqanday sovuq bir kulish bilan unga qarab kulganday bo'ldi.

Ivan qaltirab ketdi. Uning miyasiga ixtiyorsiz kelgan birinchi o'y shu bo'ldi: „Ko'zimga bu xil tikilgan o'limdir“ va shunda uning butun vujudini sovuq va xurofiy bir qo'rqinch o'radi.

<sup>1</sup> *Zakuska* – Achchiq bosti, ichkilikdan keyin yeyiladigan luqma.

– Sen hali mendan cho‘chib yuribsanmi? – deb koyishni boshladi kampir va shu onda yuzidagi kulimsirash ham yo‘q bo‘ldi. Uning o‘rniga allaqanday tundlik va tajanglik belgilari ko‘rindi. – Nima balo, men bir ajina yo bir arvohimdim. Muni qarang, muni! Cho‘chib ketgan emish! Go‘yoki butun umrida meni ko‘rmagan!

Shundan so‘ng Ivan kampirni tanib, undan uzr so‘ray boshladi:

– Ey, kechiring! Men sizni taniy olmapman. Men bir xayol bilan ketayotir edim, birdaniga siz chiqib qoldingiz... Munday bir dovushingizni ham chiqarmaysiz...

– Ha... mana shunday! Kampir onaga munday o‘z bilganlaricha bir qarash, salom berish, hol-ahvol so‘rash, bir ryumka-yarim ryumka araq olib berish – yo‘q, yo‘q, yo‘q, o‘zi pul topib olmasa, tashnalikdan o‘lib keta bersin kampir.

– Qo‘ying, gapirmang, hali o‘lib ketayotganingiz yo‘qku! – dedi Ivan kulimsirab. – Xo‘sh, siz birorta ish bilan kelgandirsiz, albatta?

– Ish deb ham bo‘lmaydi-ya, shunday... Bilmayman. Senga qandoq qilib aytsam. Ha, ish bilan, yaxshi yigit, ish bilan! Har nima bo‘lganda ham siz ikkovingiz bir qishloqning bolalarisiz, albatta; senga aytsam yaxshi bo‘ladi.

– Bir qishloqdan? Kim bilan?

– Kim bilan bo‘lardi? Ganka bilan. Bilasanmi, men o‘sha Gankanikida yotib yuraman. Endi shu tobda bola sho‘rlik butun-butun yotib qoldi, men ham kecha-kunduz yonidan jilmay qoldim.

– Yotib qoldi? Xo‘sh, nima bo‘libdir unga?

– Men qaydan bilay, bolaginam? Boshda men xotinlarning o‘zlarida bo‘laturgan bir xil kasalliklardanmikan, deb o‘ylagan edim. Unday emas ekan. Bu boshqa. Allaqanday

bir dard. Muning nimaligiga o'zim ham hayron bo'lib qoldim.

– Kechalari qur-qur baqiradimi?

– Ey... Endi shu tobda kechalarigina emas, kunduzlari ham baqiradi. Ko'zi sal uyquga ketdimi, darrov allani-malarni ko'ra boshlaydi. Shunday baqiradiki, quloqlarni yorib yuboradi. Birdan o'rnidan irg'ib turib, allaqayerlarga chiqqanday, berkinganday bo'ladi, dovollarga borib tirmashadi.

– Siz, axir, dori-morini qilib ko'rmadingizmi?

– Nega qilmayin ekan? Qildim, bolam, qildim. Bilganlarimning hammasini, hammasini qilib ko'rdim, hech bir foyda bermay yotibdir. Foyda berishi ham qiyin. Nega desang, uning miyasida butunlay boshqa bir narsa javlon uradi. Men-ku, u narsani boshdayoq bilib edim-a, lekin aqlim yana boshqa narsaga ketib yurgan ekan. Men o'ylabmanki, qizi tushmagur bola tug'ib qo'ygan-u – munday ishlar bu yerda ayb emas – keyin o'z bolasini o'zi nobud qilgan. Endi o'sha bolaning ruhi ko'ziga ko'rinib, tushlariga kirib, munga hech bir tinchlik bermaydi, deb. Qiz o'zi qo'rqqandi, tinchidi, „yo'q“, dedi. Shundan keyin men ham shoshib qoldim. Nima qilishimni bilmadim. Nimalar deb javraganini bilmakchi bo'lib, necha martabalar kechalari quloq soldim, hech narsa uqib bo'lmadi. Bir-ikkita gapini uqidim, xolos: „Ana u yerda! Zovurda! Suvda! Ko'lmak suvda! Ana, keldi! Ana, keldi!“ deb javraydi. Kim ul, qani, qayerda, taqir bilib bo'lmaydi. Men ko'p aylantirib so'radim – juda o'jar bola! Payraxaday qurib, qaqshab ketdi o'zi, qop-qora bo'ldi – qishda qanday qiz edi? Xuddi momiqday! Bu ahvol bilan ko'pga bormasligini, hech bir umidi qolmaganini o'zi ham biladi. Yana jim, yana aytmaydi.

– Siz chinakam uning ko‘nglida bir siri bor-u, berkita-di, deb o‘ylaysizmi?

– Ha, albatta! U sirni qandoq qilib bilsak ekan, deb bosh qotirib o‘tirish ham kerak emas, men ertaroq bilganman uni.

– Xo‘sh, nimani bilgansiz siz?

– Nimani bo‘lardi, yaxshi yigit? Sening Feruzangni o‘ldirgan o‘sha!

– Feruzani? Ganka-ya? Qandoq qilib? Nima uchun?

– Rost-a! Nima uchun, degin-a! Bo‘lmasa quloq sol, men senga hammasini aytib beray.

### **Kampirning hikoyasi**

Kampir ko‘chada Ivan bilan yonma-yon boradi... Lekin unga yetib yurolmasdan, orqada qola boshlagach, qo‘l uzatib Ivanning etagidan ushladi-da, o‘zi to‘xtadi.

– Shoshilma-da! Ko‘rmaysanmi, hansirab qoldim. Ko‘p shoshilma ishingga! Biroz kamrak toparsan. To‘xta mana bu yerda, gapni eshit!

– Ish vaqtim bo‘lib qoldi. Eshitayotirsizmi? Kechki navbat qo‘ng‘irog‘ini chalayotirlar.

– Kechki navbating qursin, ilohim! Borma bu kun ishingga! Birgalashib Gankanikiga boraylik. Bu ish zarurak.

Ivan bir nafas ikkilanib qoldi.

– Yo‘q! Bu kun kech kirib qoldi. Nima qilaman shu tobda Gankanikida. Ertaga ishdan chiqqan hamon to‘ppa-to‘g‘ri boraman, bo‘lajak ishlar to‘g‘risida gaplashamiz. Qani, aytib bering-chi, nimalarni bila oldingiz undan?

– Nimasini so‘raysan, – dedi kampir, – kecha kechasi bir nafas ham ko‘zini yumolmay chiqdi o‘zi ham. Shunday qiynaldiki, Xudo ko‘rsatmasin! Bu kun erta bilan turib qaragam, oppoq oqarib yotibdir. Yolg‘iz ko‘zi tirik, xolos.

– Ganka, – dedim men, – yo popni chaqirib beraymi?  
U xuddi bir narsa chaqib olganday irg‘ishlab ketdi.

– Pop deysizmi? Nega?

– Nega bo‘lardi, oppog‘im, bu yorug‘ dunyoda bir necha kunlikkina nasibang qoldi. Oxiratning g‘amini yeyish kerak.

– Yo‘q, istamayman, – dedi u, – biroz tinchlansam, tuzalib ketaman.

– Eyy, qizim, munday gaplarni gapirma! O‘zingni ham aldama. Men ko‘rib turibmanki, sanog‘lik kunlaring qolgan, borib popni chaqirib kelay.

– Yo‘q, kerak emas, – dedi u. – Kerak bo‘lganda o‘zim aytaman. Siz chiqmay turing! Men biroz uxlab olayin.

Ko‘zi ilinar-ilinmas yana baqirgali, o‘zini urgali turdi!

– Ana, keldi, ana, keldi! Ana, qo‘li! Ana, uzatdi menga! Ushladi! Qo‘yib yubormaydi, voy-dod, voy-dod, voy-dod! Qutqaring! Onajon, qutqaring!

Yotgan joyidan o‘zini tashladi. Menga osilib olgan, o‘zi „dir-dir“ qaltiraydi, ko‘zi doim orqasida, bir narsadan cho‘chigan boladay hadeb baqiradi, hadeb chiyillaydi.

– Hoy, nima bo‘ldi senga, deyman-u, hadeb qo‘rqaman. Kim kelayotir? Kimni ko‘rayotirsan?

– O‘sha xotin, axir, o‘sha xotin! Ko‘rmay yotibsizmi? Uni qarang, qo‘lida go‘sht degan narsa qolmabdir, qup-qu ruq suyak!

– Xudo o‘zi o‘nglasin sening ishingni! Nimalar depaysan? Kimni ko‘rayotirsan?

– O‘sha xotinni axir, Feruzani!

– Qaysi Feruzani?

Lekin shu joyga kelganda, uning yana o‘jarligi tutadi. Butun vujudi qaltiraydi, hadeb menga yopishadi, ammo og‘zidan bir og‘iz ham gap chiqmaydi, bir navi qilib uni

tinchitdim, joyiga yotqizdim. Endi har xil gaplar bilan ko'nglini xursand qilib o'ttiribman, ikkinchi tomondan, miyamda hamma gaplar aniqlashib yotibdir. Qancha nasihatlar qildim unga, biroz go'sht qaynatib berib, qornini ham to'yg'azdim, endi tinchlanib yotdi-yu, lekin meni taqir yonidan jildirmaydi.

– O'tiring! Meni tashlab ketmang! Uxlab ketmayin, deb qo'rqaman; ko'zim uyquga ketgan hamon yana o'sha xotin kelib qoladi deb qo'rqaman.

– Nega u xotindan muncha qo'rqasan? – deb so'radim men. – U seni nima qila oladi?

– Voy, onajon! Voy, jonimni qoqay! Qanday qo'rqinchligini bilsangiz edi uning! Butun qonlarim muzlab qoladi. Sira betiga qaray olmayman, lekin qaramasdan ham ilojim yo'q. Mening ko'zlarimni allaqanday bir narsa unga tikiltirib qo'yayotganday bo'ladi.

– Demakki, u sening yuragingda ekan-da? Indamaydi.

– Iqror qil, qizim! – deyman men qattqlik bilan. – Ko'rasanmi, sen nima narsani berkitib ketmakchi bo'lding. Odamlardan berkitganing bilan bo'larmidi, qizim? Xudo hamma narsani bilib turadi axir. O'zing ko'rayotibsanki, qanday og'irliklarga qolganingni! Agarda seni dorga osib yuborsalar, mana shu azoblarning o'ndan birini ko'rgancha ham qiynalmas eding.

Qiz gaplarimni xo'p eshitdi, eshitdi-da, so'ngra birdan yig'lashga boshladi. Xuddi yosh boladay ho'ngur-ho'ngur yig'ladi.

– Voy, oyijon, gapingiz rost! Voy, men gunohkorman! Men uni o'ldirganman. U xotin o'sha kuni bo'shashib ketib, mening qo'limga yiqilgan edi, men uni o'sha behush holda zovurga tashlab yubordim. Men o'yladimki, muni

hech kim bilmaydi-yu, undan keyin Ivan meni oladi... Aylanay, onajon, yo'l ko'rsating menga, nima qilaman men endi?

Kampirning bu so'zlarini eshitgach, Ivanning butun badaniga muzdek bir narsa tegib o'tgandek bo'ldi. U o'zini ezilgan kabi tuydi. O'sha kechadagi ishlar, Feruza bilan ayrilish, Gankanikida o'tgan bir kecha, uning o'sha vaqtda bezovta bo'lishlari darrov uning esida jonlandilar. U hatto Gankaning: „U xotindan qo'rqaman“, degan so'zlarini ham esladi va shundagina hamma narsa unga ravshan bo'ldi. Og'ir tuyg'ular bilan ezilib, og'ir nafas oldi.

Undan so'ng kampir Gankaning e'tiroflari<sup>1</sup> to'g'risida gapirib ketdi. Qayerda uning Feruzani zovurga tashlagani, so'ngra qanday qilib noma'lum bir kuch ta'siri bilan iz berkitish uchun yana o'sha zovurga borgani, o'shanda qandoq qilib ishchilardan biriga ko'rinishdan qutulib qolgani, so'ngra qandoq qilib tushlarida Feruzaning muni quvganlari, so'ngra Ivanning munga yomon va sovuq muomala qila boshlagani – mana shularni bitta-bitta naql qildi.

– Xo'sh, shu tobda nima qilayotibdir u? – deb kampirning naqlini bo'lib so'radi Ivan.

– Yig'lab, yig'lab uyquga ketdi. Endi tushida ham urinmasdan, tinch uxlab yotadi. Men uning yonida biroz o'tirdim-da, so'ngra: „Bu gaplarni Ivanga aytsam yaxshi bo'lar“, deb sening yoningga keldim. Qani ayt-chi, nima qilamiz endi?

Ivan bu gaplarni toshday qotib turib eshitdi. Uning ichida allanarsa qo'zg'olgan, allanarsa yulingan, allanarsa dod-fig'on qilganday bo'ldi. U narsa-da ayash tuyg'usi edi, na qattiq koyish va na allaqanday gunohning e'tirofi...

---

<sup>1</sup> Aybga iqror bo'lishlar (*priznaniya*).



– Endi nima qilish lozimligini men qaydan bilay? – dedi u bo‘g‘iq tovush bilan. – Tegishli joyga bildirish kerak. Bu axir mudhish narsa!

– Oqsoqolga<sup>1</sup> boraymi?

– Boring, boring! – dedi Ivan shoshilib va kampirning so‘ziga ulab.

– Balki, sen birga borarsan men bilan? Men negadir qo‘rqayotirman.

– Men nima qilaman siz bilan borib, so‘ngra mendan ham shubha qila boshlaydilar. Yo‘q, o‘zingiz boring. Men ertaga ishdan chiqqan hamon uchrayman, boring, boring!

Shundan so‘ng kampir indamasdan ketdi.

### **Ganisning jinoyati**

Ivan o‘zi ishlayturgan, konga yaqinlashganda nemisni uchratdi. U yot bir ishchi bilan gaplashib, allaqayerga ketmakda edi.

– Shom oydin, Ivan! – dedi Ganis. – Ishga borayotirsizmi?

– Ha, ishga, – dedi qandoq qilib va nimalar deb gapirishni qiyinlik bilan topayotgan Ivan.

– Ertaga bizdan ketasizmi?

– Ha, ketaman.

– Xo‘p, xo‘p, ixtiyor o‘zingizda. Pulingizni ertaga ola bilasiz.

Ivan boshqa hech narsani aytmadan, zovurga qarab ketdi. Ganis esa ertaga o‘sha zovurda Ivanning o‘rnida ishlayajak ishchi bilan gaplashib qoldi.

– Bu yerda sizga yaxshi bo‘ladi! – dedi Ganis. – Men unaqa birovlarning haqiga qiziqaturgan odam emasman.

---

<sup>1</sup> *Oqsoqol* – Shahar hokimi.

Ishonmasangiz, mana shu Ivanning o'zidan so'rang. U hatto oylik olar vaqtlarida pulning bir bo'lagini menga qoldirib, 50 va 100 guldo'nga yetganda hammasini birdan oladi. Endi ertaga bu yerdan ketayotir. Bilasizmi qayerga? O'z yerini o'zi ekib, dehqonchilik qilgali!

– O'z yeriga? – deya tag'in qaytib so'radi ishchi. – Qayerda yeri bor ekan uning? Allaqachon sotib sovurgan-ku!

– Allaqachon sotib sovurgan edi. Endi qaytadan sotib olayotir. To'lanajak pulining so'nggi bo'lagi uchun so'nggi guldo'nni kecha olib edi. Endi ertaga o'zining tug'ilgan qishlog'iga jo'nayajak. Bu yerdan butunlayga ketayotir. Kim ko'rsatdi unga bu yo'lni?.. Ganis ko'rsatdi, albatta! Ishonmasangiz o'zidan so'rang!

Shu onda zovur tomondan shovqin va oyoq tovushlari kelib qoldi. Ko'chada bir ishchi yugurgancha keta turib, bo'g'ila-bo'g'ila qichqiradi:

– Ganis afandi! Ganis afandi!

– Xo'sh, nima gap? – deb so'radi Ganis.

– Darrov zovurga boring! Darrov!

– Nima bo'libdir u yerda? – zo'rg'a so'ray oldi Ganis va javobini ham kutmasdan, zovurga tomon chopdi. Uning ketidan yangi yollangan ishchi ketdi.

Ganis haligi qichqirgan ishchiga yetib borgach:

– Xo'sh, nima bo'libdir? – deb na pichirlash va na bo'g'ilishga o'xshamagan bir ovoz bilan so'radi.

– Allaqanday bir qazo...

– Qanday qazo?

– Eyy... O'zim ham bilmayman, o'zingiz borib ko'ring! Munday narsani butun umrimda ko'rmagan va eshitmagan edim.

Uchalasi ham zovurga yetib bordilar. U yer butun qorong'i, yolg'iz bittagina chiroq turli taxtadan yasalgan

„budka“ning o‘rtasini zo‘rg‘a-zo‘rg‘a yoritib turadi. Zovur labida turgan bir ishchi zovur charxida juda bo‘sh sangillagan qayishni yuqoriga tortmoq bilan mashg‘ul edi.

– Xo‘sh, nima hodisa bo‘ldi? Gapir! – deb baqirdi Ganis, to‘rt tomonga ko‘z yugurtib, ishchilarni cho‘chitgan narsani izlaganday bo‘lib.

– Qayish uzildi.

– Nima? Nechuk u mumkin bo‘lsin?

– Bilmayman. Ana, ko‘ring o‘zingiz.

Zovur bo‘yida turgan ishchi haligi qayishni yana bir daf‘a tortib olib, bir-ikki aylantirib, yana tashladi.

– Xo‘sh, Ivan-chi? Ivan qani?

– Zovurda.

– Nechuk zovurda? Ishlayturgan zovurga tushganmi?

– Albatta, ishlayturgan zovurga tushgan bo‘lsa kerak, lekin tirik qolmagandir.

– Mana muni qarang, bu qayish 10 metrcha joyga ham yetmasdan uzilgan.

– Bu nechuk bunday bo‘ldi? Qanday? Gapir bitta-bit-ta! – deb hali ham nima bo‘lganini anglamasdan, shoshiltira boshladi Ganis.

– Eyy! Muning qandoq bo‘lganini men qaydan bilaman axir? Ivan keldi, qayishni beliga bog‘ladi. Men ham uni asta-sekin zovurga tushira boshladim. To‘lg‘adim, to‘lg‘adim, o‘n metrcha to‘lg‘ab edimmi, birdaniga barmoqlarim dir-dir qaltirab, so‘ngra mana bu og‘ir qayish birdaniga juda jingillab qoldi. O‘sha onda zovurdan qo‘rqinch bir faryod eshitildi-yu, darrov jim bo‘ldi. Mana, bo‘lgan gap shu. Qayish uzildi-yu, Ivan sho‘rlik zovurning qa‘riga, qirq sarjin joyga borib tushdi.

Ganis hech narsa demasdan, sochlarini yulishga va jin-ni kabi pitillashga boshladi.

– Voy, voy! Mana falokat! Hoy, menga qarang... Ul, balki, o‘limgandir! Menga qarang, Dmitriy, – deb yangi yollangan ishchiga yuz o‘girdi ul. – Siz nima deysiz, balki, u tirikdir?

– Ha, mumkin. Zovurning tagi tosh emas-ku?

– Yo‘q, tuproq.

– Agar metinning ustiga tushmagan yoki tushib keta-yotib boshi yorilgan bo‘lmasa, balki, hali tirikdir.

– Unday bo‘lsa, oh-voy eshitalardi-ku? – deb qo‘ydi ishchi.

– Tushing siz, Dmitriy! Tushing, balki, qutqara olarsiz.

– Men-ku tushaman-a, – dedi Dmitriy, – lekin uni ko‘tarolmasdan uzilgan qayish – qanday qayish ekan, shunga hayronman.

U zovurga yaqin kelib, qayishni ushlab ko‘rdi; qayishning bir uchidan ikki metr chasi zovurda osilib turardi. Bu odam eski ishchilardan bo‘lib, munaqa ishlarni juda yaxshi bilardi; lekin munga kelganda ul ham yot eshikka kelib qolgan buzoqday bo‘lib qoldi. Munday hangomani sira ko‘rmagan edi!

Qayishning uzilgan joyiga juda uzoq tikildi, barmoqlari bilan siypalab ko‘rdi, yoriqqa olib chiqib qaradi va bir narsasiga aqli yetmaganday qilib birushta boshini chayqab turdi.

Ganis rangi o‘chgan holda, qo‘rquv to‘la ko‘zlari bilan uning har bir harakatini kuzatib turardi.

– Anglayolmayman! Anglayolmaymanki, nima bo‘lgan bu qayishga-yu, nega ul uzildi?

– Balki, chirigandir? – deb ko‘p ham botinmasdan so‘radi Ganis.

– Ha, rost, balki, shunday bo‘lgandir. Agarda qasd bilan kesilib qo‘yilganda, kesilgan joyida tekis iz bo‘lardi. Chiriganga o‘xshaydi.

– Eski qayish edi, yangilash kerak edi uni, – ishchining soʻzini darrov olib ketdi Ganis. – Voy, bu kun erta bilan allakim xuddi yelkamdandan tortib: „Ganis, qayishni yangila!“ deganday boʻldi-ya. Shunda men oʻyladim: „Juma kuni yangilab turmayin, yakshanba keladi, oʻshanda yangilayman!“ dedim. Mana endi bu hol! Uning uzilib ketishini kim bilgan edi deysiz?

Bu vaqtda Dmitriy hanuz qayishni koʻrish va boshini chayqash bilan mashgʻul edi.

Bu orada Ganis borib, ombordan yangi qayish olib keldi, uni charxga bogʻladilar, soʻngra Dmitriy tegishli hozirliklarni koʻrgach, zovurga tushib ketdi.

Yarim soat oʻtar-oʻtmas ularning ikkalasini – Ivan bilan Dmitriyni zovurdan tortib oldilar. Ivanning yelka-oyogʻi singan va boshi yoriqgan edi. U zovurning tagiga tirik boʻyincha yetolmagan boʻlsa kerak.

### **Gankaning qamalishi va oʻlishi**

Ertasi kuni tong vaqtida oqsoqol Borislaf orqali oʻziga qarashli xolislar va ikki nafar jandarma bilan birga Ganka turgan uyga keldi. Qiz hali uyqudaydi. Juda koʻp uyqusiz tunlar va kechalardan soʻng shoʻrlik qiz endigina oʻlim uyqusi singari qattiq bir uyquga kirgandi. Kampir eshik ochdi. Hammalari kirdilar. Lekin Gankaning dahshatli ichki azoblar bilan ishdan chiqqan oʻlik va qoq-quruq yuzlarini koʻrgach, uni uygʻotishga botinolmadilar.

– Qoʻy, mayli, uxlay bersin, – dedi astagina oqsoqol. – Biz tashqarida kuta turamiz.

Ular chiqqan hamon Ganka ham uygʻondi.

– Shu yerdamisiz, onajon? – soʻradi ul.

– Shu yerdaman, oppogʻim, shu yerdaman.

– Tushimda ko‘rdimmi yo chinakam bu yerga birov kirdimi?

– Kim kirardi deysan, qizim?

– Allaqanday odamlar... jandarmalar kirganga o‘xshaydi.

– Ha, kirib edilar, qo‘zi bolam.

– Meni izlabmi? – deb so‘radi Ganka o‘rnidan tura boshlab.

– Ha, seni izlab.

– Hamma gapni bilalarmi?

– Bilalar.

Ganka uzoq qarash bilan kampirga tikildi, so‘ngra o‘zining qaqqshagan qo‘lini uzatdi.

– Rahmat sizga, onajon, – dedi. – Men o‘zim ham yuz martaba bormoqchi va hamma narsani aytib bermakchi edim. Lekin sira botinmadim. Endi hamma ish bitibdir, endi men tinchidim.

Shundan so‘ng ul juda qiyinlik bilan o‘rnidan turdi. Kampir kiyintirib qo‘ydi.

Xolislar bilan birga oqsoqol kirdi, uning ortidan jandarmalar kirdilar.

– Xo‘sh, nima bo‘ldi senga? – so‘radi oqsoqol. – Tobing yo‘qmi?

– Ha, tobim yo‘q.

– Bizga aytaturgan gaping bormi?

– Bor.

Shunday qilib, ul, o‘sha kechaniq ishlarini xotirjamlik bilan bitta-bitta aytib berdi. Jandarmalardan biri yozib turdi.

So‘ngra bechora Feruzaning juda ham chirib ketgan jasadini ilgaklar bilan zovurdan tortib olib, murdaxonaga yubordilar. Gankani aravaga solib, Tergovichdagi tergov

avaxtasiga olib ketdilar. Ul, u joyga borganidan keyin birinchi so‘roqqa ham yetmasdan o‘lib qoldi.

Jandarmalar uchun bu ishdan so‘ng darrov boshqasi chiqib keldi; ya’ni allaqaysi konda qayish uzilib, bir ishchining nobud bo‘lganini bildirdilar. U joyga borish, o‘likni ko‘rish, shohidlardan so‘roq olish lozim edi.

Beparvolik bilan, „Qayish chirigan“, – dedi ikkinchisi.

– Mundan ham yomonroq bir gap yo‘qmi ekan munda? Dmitriy pul-mul degan gaplarni ham qilayotib edi...

– Xo‘sh, nima demakchisan? Shu yerda allaqanday bir jinoyat ham bor, demakchisanmi? Qayishni birov ataylab qirqqan, deysanmi?

– Juda mumkin narsa, munga haligi pul sabab bo‘lmog‘i mumkin. Nemis aytadiki, pulni o‘zi olib edi. Holbuki, o‘likning yonidan pul chiqmadi.

– Uyini qarab ko‘raylik bo‘lmasa.

Lekin ul uyda, to‘g‘risi, Ivanning boshqa ishchilar bilan turatrgan joyida hech qanday pul to‘g‘risida hech kim hech narsa bilmas va eshitgan ham emas edi.

So‘roq natijasida jandarmalar shunigina bildilarkim, ilgari bir daf’a Ivanning pulini o‘g‘irlaganlar, shundan beri ul pullarini yonida olib yurmasdan, hech kim bilmas bir yerga yashiruvchi bo‘lib qolgan.

Mundan tashqari, Ganisning: „Ivan to‘plagan pullarini yer olish uchun Tergovichdagi notariusga yuborardi“, degan gapini o‘sha notariusning o‘zi telegramm bilan tasdiq qildi. „Qolgan yuz guldo‘nini hodisadan bir kun burun Ivanning o‘zi olganini Dmitriy tasdiq qildi“, dedi.

– Ganisning: „Pulingizni olsangiz mumkin“, deganini o‘z qulog‘im bilan eshitdim; Ivan esa bu so‘zni eshitgach, „xo‘p“ deganini qilib, boshini qimirlatdi. Va so‘ngra olganini ham aytdi.

Demak, Ivan pullarini olgandan so'ng, keyincha o'z yonida olib ketmak uchun bir joyga berkitib qo'ygan bo'ladi. Shunday bo'lgandan keyin birmuncha joniga qasd qilishdan kimga nima foyda bo'lar edi?

Ish shu bilan tamom bo'ldi. Yolg'iz Ganisga beparvoligi va chirigan qayish ishlatgani uchun 20 guldo'n jarima soldilar.

Ivanni esa o'z Feruzasining suyaklari bilan birga bir go'rga ko'mdilar.

---



## SO'NMAGAN OY QISSASI

### BIRINCHI BOB

Erta tongda shahar bo'ylab zavod gudoklarining chinqirig'i yangradi. Ko'chalarni tun bo'yi bosib yotgan kulrang tuman sudralib borar, yomg'ir maydalab yog'ar edi. Sekin-asta tarqala boshlagan bu tonggi sovuq tuman havoning ochiq bo'lishidan emas, aksincha, bugun ham diqqinafas, og'ir, yomg'irli kun kelishidan darak berardi. Gudoklar ancha vaqtgacha qichqirib turdi, dastlab sekin, bitta, ikkita, uchta, so'ng ko'plagan chinqiriqlar tong oldidan hordiq olayotgan shaharning kulrang osmoniga singib ketdi. Zavod gudoklari yangrar, shahar chekkasidan tinimsiz kelib-ketib turgan poyezdlarni tortuvchi parovozlarning bo'g'iq vishillab chiyillagan tovushi to'xtovsiz eshilib turardi. Bularning hammasi og'ir tumanga o'ralgan shaharning o'pkasi ishlab turganini, u nafas olayotganini bildirardi. Ana shu soatlarda tahririyatlarning bosmaxonalaridagi bosuv dastgohlari yangi gazetalarni bosish bilan mashg'ul edi. Ko'p o'tmay gazeta bog'lamlarini ko'targan o'smir bolalar bosmaxona hovlilaridan bo'm-bo'sh chorrahalarga chiqishib tomoqlarini qirgancha:

– Xitoyda Inqilob! Komandir Gavrilovning kelishi! Komandir kasal! – deb ko'chani boshiga ko'targancha qichqirishga tushadilar.

Ayni shu daqiqalarda janubiy vokzalga bir poyezd kirib keldi. U maxsus poyezd bo'lib, eng oxiriga ko'kish bo'yoqlari tovlanib turgan salon-vagon tirkalgan edi. Uning zinalarida indamas qo'riqchi askarlar tik qotib turar, derazalari qalin pardalar bilan to'sib qo'yilgandi. Tuni bilan to'xtamay yurib kelgan bu poyezd vokzal binosiga sekingina kirib, hech qanday sas-sadosiz zaxira yo'lga o'tib to'xtadi. Perron bo'm-bo'sh edi. Eshiklar yonida yoqasiga yashil band taqilgan maxsus militsiya soqchilari qator tizilishib turishardi. Yengiga romblar qadalgan uchta harbiy salon-vagon oldiga yurib keldi. Baravar chest berib salomlashdilar, kelgan kishilar bo'sag'ada to'xtadi, qo'riqchi vagon ichiga qarab kimgadir shipshib murojaat qildi, so'ng mazkur uch kishi zinadan ko'tarilib, parda orqasida g'oyib bo'ldi. Vagonda elektr chirog'i yondi. Vokzal tomidan telefon simi tortayotgan ikki harbiy aloqachi vagon atrofida g'imirlab yurardi. Mavsumbop eski palto kiygan, ammo boshidagi mo'yna telpagi modadan qolgan yana bir kishi vagon yoniga keldi. U hech kimga chest bermadi. Boshqalar ham unga e'tibor qilishmadi.

– Nikolay Ivanovichga Popov keldi deb aytinglar, – murojaat qildi u.

Qizil askar unga xushlamay qarab, boshdan oyoq razm solib chiqdi, eski boshmog'ini ko'zdan kechirdi, so'ng ohista javob berdi:

– O'rtoq qo'mondon hali turgani yo'q.

Popov qizil askarga do'stona kulimsiradi, negadir sensirab, avvalgidan ham muloyim gapirdi:

– Mayli, ukajon, sen ichkariga kir, kirgin-da, unga haligi Popov keldi, deb qo'ygin.

Qizil askar ichkariga kirdi-yu, tez qaytib chiqdi. Shundan keyin Popov vagonga ko'tarildi. Salonda pardalar tu-

shirib qo'yilgani va elektr chirog'i yonib turgani uchun, hamon tun hukmron edi. Poyezd janubdan kelganidanmi, salon janub havosiga to'la edi: anor, apelsin, nok, a'lo navli sharob, a'lo navli tamaki hidi anqib turar, quyosh nuridan charog'on o'lkaning nafasi ufurardi. Stol ustidagi chiroq yonida ochib qo'yilgan kitob va tarelkada yarmi yeyilgan yorma bo'tqasi turar, bo'tqadan narida yechib qo'yilgan to'pponcha g'ilofi va uzun tasma ilondek cho'zilib yotardi. Stolning narigi chekkasiga bo'sh shishalar terib qo'yilgan. Yengiga romba qadalgan boyagi uchta harbiy stol qarshisiga – devor tagiga qo'yilgan teri qoplangan o'rindiqlarda papkalarini ushlagan ko'yi salobat bosganidan yuvoshgina bo'lib jim o'tirishardi. Popov stol oldigacha keldi, paltosi va telpagini yechib, yoniga qo'ydi va ochiq turgan kitobni olib, ko'z yugurtira boshladi. Vagon xodimi kirib, hech kimga e'tibor bermasdan stol ustini yig'ishtirishga tushdi: shishalarni bir burchakka eltib qo'ydi; anor po'choqlarini patnisga olib, stolga dasturxon yozdi, taxsimchada bitta stakan, kichkina qadah, ikkita tuxum, tuz, dori solingan shishacha keltirib qo'ydi, parda burchagini ko'tarib tashqariga qaradi va deraza pardalarini bir chekkaga qarab surdi, parda bog'ichlari g'irchillab arang siljidi, elektr chiroqlari o'chirildi: salonga yomg'irga to'yingan namchil tonggi kuz havosi yopirilib kirdi. Ammo hamma narsada qandaydir xafagezaklik bordek tuyular edi, burchakda sharob idishiga yashik va uzunasiga o'ralgan gilam ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Qo'liga salfetka ushlagan vagon xizmatchisi eshik yonida haykaldek turib oldi. Odamlarning yuzi bu sovuq tongda sarg'imgir ko'rinar, taralayotgan xira nur qonli sariqsuvni eslatardi. Ostonada vagon xizmatchisi yonida harbiy xodim paydo bo'ldi: safar idorasi ishga tushdi, telefon jiringlay boshladi.

Ana shunda yotoqxonadan qo‘mondon chiqib keldi. U o‘rta bo‘yli, keng yag‘rinli, sarg‘ish kishi bo‘lib, uzun sochlari orqaga taralgandi. Yashil movutdan tikilgan va yengiga to‘rtta romba qadalgan harbiy gimnastyorkasi g‘ijimlanib ketgan edi. Shporli etigi yarqiratib moylanganiga qaramay, yeyilib ketgan poshnalari ko‘p zahmat chekkanidan darak berardi. Bu fuqarolar urushidagi barcha qahramonliklar, ming, o‘n ming, yuz minglab kishilarning qismati, ming, o‘n ming, yuz minglab kishilarning o‘limi, azob-uqubatlari, mayib-majruhligi, sovuq, ocharchilik, o‘lat, safar izg‘irinlari, to‘plar na‘rasi, o‘qlar hushtagi, tungi gulxanlar va bo‘ronlar, tinkani quritadigan safarlar, g‘alaba sururi, mag‘lubiyat alamlari, yana va yana o‘limlar bilan nomi chambarchas bog‘langan, ne-ne mashaqqatlarini yelkasida ko‘tarib, nomi afsonaga aylanib ketgan inson edi. U armiyalar, minglab odamlar ustidan qo‘mondonlik qilgan edi. U g‘alabalar, o‘limlar, porox dudlari, singan suyaklar, tilka-pora bo‘lgan go‘shlar ustidan qo‘mondonlik qilgandi. U qozongan g‘alabalar front orqasida ko‘tarilgan sanoqsiz qizil bayroqlar va minglab odamlarning suronli na‘ralari bilan nishonlanar, bu haqda radiolar butun dunyoga jar solardi. Bu g‘alabalardan keyin qumloq rus dalalarida chuqur o‘ralar qazilar va bu mudhish o‘ralarga ming-minglab odamlarning murdalari ko‘mib tashlanardi. Bu odamning nomi urush haqidagi afsonalar, sarkardalik dahosi, tengsiz jasorat, mardlik, matonat bilan chulg‘anib ketgandi. Bu odam minglab o‘ziga o‘xshagan kishilarni o‘limga jo‘natish yoki saqlab qolish huquqiga ega edi. Hozir esa salonga ko‘pchilik qatori o‘rta bo‘yli, keng yag‘rinli, xushfe‘l, seminariya talabalaridek toliqqan qiyofadagi kishi kirib keldi. Uning chaqqon harakatlari harbiy yoki otliq askardan ko‘ra ko‘proq oddiy fuqaronikiga o‘xshab

ketardi. Boyagi uch harbiy uni ko‘rishi bilan tik turib toshdek qotdi. Ular uchun bu kishi armiya deb ataladigan ulkan mashinaning boshqaruvchisi, ularning taqdiri, birinchi navbatda hayoti uchun, yuksalishlari yoki yuztuban ketishlari uchun amr-u farmon beruvchi, o‘lim va falokatlardan asrovchi hokimi mutlaq qo‘mondon edi. Qo‘mondon ularning oldida to‘xtadi, qo‘l berib ko‘rishmasdan erkin tura- veringlar, degandek ishora qildi. Axborotlarni tikka turgan holda eshitdi: ular bir qadam oldinga chiqib, tik qotgan ko‘yi shaxdam ovozda qisqa va aniq ma‘lumot berishardi. Qo‘mondon axborotlarni mutlaqo e‘tibor bermasdan eshitgach, ularning qo‘llarini siqib qo‘ydi. Nihoyat, u yolg‘iz turgan stakan oldiga kelib o‘tirishi bilanoq vagon xizmatchisi paydo bo‘ldi va yaltiroq choynakdan choy quyib berdi. Qo‘mondon qo‘liga tuxumni oldi.

– Ishlar qanday? – so‘radi u hech qanday rasmiyatsiz, beparvo ohangda.

Harbiylardan biri ma‘lumot berdi, yangiliklarni aytib bo‘lgach, ehtiyotkorlik bilan so‘radi:

– Sog‘lig‘ingiz qanday, o‘rtoq Gavrilov?

Qo‘mondonning yuzi darhol o‘zgarib ketdi, u norozilik bilan gapirdi:

– Mana, Qavkazga borib keldim, davolandim. Endi tuzalдим, – sal o‘ylab turgach, – endi sog‘man, – dedi va yana jim qoldi. – Shunday buyruq beringlar, hech qanday tantanalar, hech qanday faxriy qorovullar bo‘lmasin, umuman... – Tag‘in jim qoldi. – Sizlarga javob, o‘rtoqlar.

Uch harbiy ketish uchun o‘rnidan turdi. Qo‘mondon joyidan qo‘zg‘almay qo‘l uzatdi – ular salondan ohista chiqib ketishdi. Qo‘mondon salonga kirgan paytda Popov unga salom bermagan va kitobni varaqlagancha o‘tiravergan edi. Qo‘mondon ham unga qarab qo‘ygan

bo'lsa-da, xuddi payqamagandek, salomlashmadi. Harbiylar chiqib ketgandan keyin ham qo'mondon u bilan salom-alik qilib o'tirmasdan, xuddi kecha kechqurun birga bo'lishgandek parvosiz so'radi:

– Choy ichasanmi, Alyosha, yo sharobmi?

Popov javob berishga ulgurmasdan yordamchi kirib kelib, „o'rtoq komandir“ga axborot bera boshladi: – Avtomobil platformaga tushirildi, idoraga maktublar kelyapti, bir maktub birinchi raqamli uydan, uni kotib olib keldi – maxfiy maktub – shtabda xonadon tayyorlab qo'yilgan. Tabriklar yo'llangan ko'plab xatlar va telegrammalar bor.

Qo'mondon vagonda turaman, degan javob bilan yordamchini chiqarib yubordi. U hozir o'z armiyasiga emas, begona shaharga kelganini yaxshi his qilar edi: uning o'z shahri va armiyasi bu yerdan minglab chaqirim narida, u shaharda, u yerdagi okrugda ishlari, tashvishlari, mashg'ulotlari, xotini qoldi. Vagon xodimi Popovning javobini kutib o'tirmay stolga choy va sharob uchun stakan qo'ydi. Popov burchakdan chiqib, qo'mondon yoniga o'tirdi.

– Sog'lig'ing qanday o'zi, Nikolasha? – so'radi Popov tug'ishganlardek mehribonlik bilan.

– Sog'lig'im – har galgidek tuzuk, sog'-salomatman, – ammo azizim, tobutim yonida faxriy qorovullikda turishingga to'g'ri keladimi deyman, – dedi Gavrilov, u hazillashyaptimi, jiddiy gapiryaptimi – bilib bo'lmasdi: har holda ovozida achchiq kinoya bordek tuyulardi.

Bu ikki kishi – Popov bilan Gavrilov – eskidan qalin do'st edilar. Ular olis yoshlikdan fabrikada yashirin tashkilotga a'zo bo'lgan, Orexovo-Zuyevoda to'quvchilik qilgan davrlaridan beri birga edilar. Yoshlikda Klyazma daryosi kirib g'oyib bo'ladigan Klyazma o'rmonlari orqasidagi Pokrov shahriga eltadigan yo'l bo'yida – kimsasiz Pokrov

monastrida to'garakchi „ishtonsiz“ to'quvchi yoshlarning yig'ilishlari, taqiqlangan kitoblar, xuddi injildek avaylab „Don chaqiriqlari“ va „Iskra“ni o'qiganlari, ishchi kazarmalari, yig'inlar, uchrashuvlar, beshinchi yilda ishchilarning boshi uzra vizillab uchgan kazak o'qlari va qamchilar o'ynagan stansiyadagi katta maydonlar; keyin birgalikda Bogorodskiydagi qamoq azoblari, so'ng inqilob yo'lini tanlagan bolsheviklarga xos – surgun, qochish, yashirin harakat, Tagan qamoqxonasi, qochish, xorijga ketish, Parij, Vena, Chikago; o'n to'rtinchi yildagi qora bulutlar, Brindizi, Saloniki, Ruminiya, Kiyev, Moskva, Peterburg – o'n yettinchi yil momaqaldiroqlari: Smolnii, Oktabr, Moskva Kremli ustida to'plar na'rasi va ularning biri – Rostov-Dondagi Qizil gvardiya shtabi boshlig'i, ikkinchisi Tula proletarlar harakatining yetakchisi; biri – urush, g'alabalar, to'plar, odamlar o'lim qo'mondoni, ikkinchisi – gubkomlar, ispolkomlar, VSNX, konferensiyalar, majlislar, loyihalar va dokladlar ishtirokchisi. Ikkisi uchun ham hayotning ma'nosi, yashashdan maqsad buyuk jahon inqilobini amalga oshirish butun dunyoda adolat va haqiqat o'rnatish yo'lida kurashishdan iborat. Ular bir-biri uchun bir umrlik do'st: Nikolasha, Aleksey, Alyoshka bo'lib qolgan edilar. Ular uchun amal, martaba, mansab darajasining ahamiyati yo'q edi.

– Menga ochiqchasiga aytaver, Nikolasha, kasaling og'irimi? – so'radi Popov.

– Bilasanmi, menda oshqozon yarasi paydo bo'lgan yoki bo'lishi mumkin. O'zingga ma'lum-ku, og'riqlar, qon qusish, og'ir jig'ildon qaynashlari – bari o'tib ketdi, – qo'mondon Alekseyga engashdi. – Meni Kavkazga jo'natishdi, davolashdi, og'riqlar tuzaldi, ishga tushdim, yarim yil ishlaganimdan keyin yana ko'ngil aynish va og'riqlar boshlandi, yana Kavkazga bordim. Hozir yana og'riqlar

o'tib ketdi, o'zimni sinab ko'ray deb bir shisha sharob ichdim... – Qo'mondon so'zlashdan to'xtadi: – Alyoshka, sharob ichishni xohlasang, ana, taxta tagida turibdi. Senga deb bir quti olib kelganman. Og'zini och.

Kaftlari bilan boshini changallab o'tirgan Popov javob berdi:

– Yo'q, men ertalabdan ichmayman. Gapiraver.

– Ahvol mana shunday, sog'lig'im joyida. – Qo'mondon jim qoldi. Ayt-chi, Alyoshka, meni nega bu yoqqa chaqirishdiykin, bilmaysanmi?

– Bilmayman.

– Buyruq oldim – Kavkazning o'zidan to'g'ri yetib kelish haqida, hatto xotinimning oldigayam borolmadim. – Qo'mondon jim qoldi. – Kim bilsin, nima bo'lyapti? Armiyadagi ishlar joyida, syezdlar, boshqa tadbirlar yo'q... – O'zing Kavkazda bo'lganmisan? Haqiqatan ham ajoyib o'lka, – bizda uni shoirlar yarim kunlik joy deb atashadi, – bu so'zning ma'nosini yaxshi tushunmayman, haqiqatan ham har gal yarim kun turgandek bo'laman. Bordim-u, qaytdim... Anor yeysanmi, Alyosha? Menga mumkin emas, yordamchilarimni siylayapman. – Yaxshi qilamanmi?

Qo'mondon armiya haqida gapirdi, u to'quvchiligini allaqachon unutgan „Qizil Armiya“ sarkardasi va qizil generalga aylangandi; qo'mondon Orexovo-Zuyevo haqida, u yerda o'tgan damlar haqida jo'shib gapirar ekan, chamas, qay tarzda to'quvchi bo'lganini, ana shu kezlarda daryo yoqasida yashaydigan o'qituvchini sevib qolgani, uni deb yaltillatib moylangan etigiga chang yuqtirmaslik uchun maktab oldigacha yalangoyoq borgani va maktab zinasi yoniga kelgandagina qayta kiygani, unga atab ipak bog'ich bog'langan guldasta va ketvorgan alya shlapasi sotib olgani, so'ng gap-so'zlari o'qilgan kitoblardan



nariga o'tmagani, oqibatda o'qituvchi rad etgani tufayli orziqib kutilgan roman ro'yobga chiqmaganini eslamadi, albatta. To'quvchi-qo'mondon saranjom-sarishtali yaxshi odam bo'lib, hazillashishni sevar va hamma narsadan kulgili vaziyatlar chiqara bilardi, do'sti bilan hazil-huzul qilib chaqchaqlashib o'tirar ekan, vaqti-vaqti bilan nega chaqirilgani esiga tushib, bezovtaligi oshar, ana shunda yana sog'lom to'quvchiga aylanib, bemor qo'mondon haqida gapira boshlardi: „Amaldor, feldmarshal, senator emish! Marjumak bo'tqasini yemayman deydi-ya... Ha, og'ayni, seka<sup>1</sup> odamlarni o'ynatadi, qo'shiqdan so'zni olib tashlab bo'lmaydi-ku!“ – deb jim bo'lib qolardi.

– Nikolasha, nimadan shubhalanayotganingni ochiq tushuntirib bersang-chi? – dedi Popov. – Faxriy qorovul deb valaqlaganing nimasi?.

Qo'mondon darrov javob qaytarmadi, so'ng ohista:

– Rostovda Potapni uchratib qoldim (u o'n sakkizinchi yilning „shonli qahramonlari“dan bo'lgan mashhur inqilobchini partiyaviy laqabi bilan tilga oldi), shunda u aytdiki... meni operatsiyaga yotishga ko'ndirishga urindi, yarani kesishmi yoki tikib qo'yish deysanmi, xullas, shu narsaga qilgan da'vati menga shubhali tuyuldi. – Qo'mondon jim bo'lib qoldi. – Men o'zimni sog'lom his etyapman, butun vujudim operatsiyaga qarshi turibdi, xohlamayman, shundog'am yaxshi tuzalyapman. Og'riqlar yo'qoldi, hatto semira boshladim, yana kim biladi deysan... – kap-katta odam, qariya, amaldor, – qorninga qarab o'tiribman. Uyat. – Qo'mondon jim qoldi, so'ng ochiq turgan kitobni qo'lga oldi. – Tolstoyni – qariyani o'qiyapman – „Bola-lik va o'smirlik“ni, – qariya qotirib yozgan-da, turmush-

---

<sup>1</sup> *Seka* – Markazqo'm.

ni nozik his qiladi, qonniyam... Men qonni ko‘p ko‘rdim, ammo... operatsiyadan yosh bola singari qo‘rqaman, tilib tashlashlarini xohlamayman... Qariya odam qoni nimaligini yaxshi anglagan.

Yordamchi kirib, tik turgancha shtabdan ma‘lumotlar keltirishgani, birinchi raqamli uydan qo‘mondon uchun mashina yuborishganini, u yerga borish zarurligini, yangi telegrammalar olinganini, janubdan jo‘natilgan yuklarni olish uchun kimdir kelganini aytib, batafsil axborot bera boshladi. U stol ustiga bir to‘da gazetalarni qo‘ydi. Qo‘mondon yordamchiga javob berdi va shinel keltirishni buyurdi. Qo‘mondon gazetani yoyib ko‘rdi. Muhim voqealar yoritiladigan joyda: „Qo‘mondon Gavrilovning kelishi“ degan sarlavha bor edi. Uchinchi betda esa „Bugun qo‘mondon Gavrilov o‘z armiyasini vaqtincha tark etib, oshqozonidagi yarasini operatsiya qildirish uchun poytaxtga keldi“, deb yozilgandi. Yana shu xabarda „O‘rtoq Gavrilovning sog‘lig‘i tashvish tug‘diradi“, ammo „Professorlar operatsiya yaxshi o‘tishiga kafolot bermoqdalar“, deb ilova qilingandi. Inqilobning eski jangchisi, askar, qo‘mondon, sarkarda, minglab odamlarni – urush taqdirini hal qilish uchun o‘linga mahkum qilingan odamlarni jangga yuboradigan va qon bilan g‘alaba qozonadigan Gavrilov stol suyanchig‘ini orqaga surdi, qo‘li bilan peshonasini artib, Popovga diqqat bilan tikilib turib gapirdi:

– Alyoshka, eshityapsanmi? – bular behuda emas. – H-ha. Nima qilish kerak? – va qichqirdi:

– Soqchi, shinelni keltir!

Soat kunduzgi o‘n bir bo‘lgan edi, shahar bo‘ylab kunning yashil loyqasi sudralar, ochig‘ini aytganda, bu yashil loyqa ko‘zga ko‘rinmasdi, chunki ko‘plab binolar qad ko‘targan bir parcha yer ustida shahar mashinalari –

aravakash otlarni, tramvay va avtobuslarni, uylardagi yig'ishtirilmagan to'shakdan tortib, qirg'oq bo'ylab mashq qilayotgan askarlargacha, buxgalterlik zallari va harbiy xalq komissariyati xonalarining baland shiftlariga qadar yoyilgan sukunat – hamma narsani chir aylantiradigan, burab tashlaydigan, odamlarni dastgohlar, stollar, idoralar, avtomobillar yoniga, ko'chaga daryodek oqizib boradigan shaharning murakkab mashinalari suroni ostida kunduzgi kulrang havo, yog'ingarchilik, pilchillagan yashil loyqa bilinmay ketar edi.

## IKKINCHI BOB

Shaharning ikki katta ko'chasi tutashgan, – avtomobillar, odamlar, otaravalar turnaqator bo'lib kesib o'tadigan joyda, panjaralar ortida ustunli muhtasham imorat qad ko'targan edi. Panjaralar ortidagi bu imorat yuz yillardan beri mana shu yerda tinch mudroq bosgan ko'yi jim turadi. Imorat peshtoqlariga hech qanday lavha ilingan emas.

...Tush chog'ida mana shu birinchi raqamli uy oldiga usti yopiq „Roys“ mashinasi kelib to'xtadi. Soqchi eshikni ochdi, limuzin ichidan qo'mondon tushdi.

...Uyning narigi chekkasidagi xona oynalarida pardalar yarim tushirib qo'yilgan; deraza orqasida serharakat ko'cha ko'zga tashlanadi; xonada kamin yonib turibdi; stolda – qizil movut ustida uchta telefon apparati bo'lib, ularning qo'ng'iroqlari kamindagi tarasha chirsillashiga qo'shilib, xona sukunatini buzardi, xonaga o'rnatilgan uchta telefon apparati – shaharning uchta qon tomiriga aylanib, sukunat qa'ridan turib shahar ustidan hukmronlik qilar, shahardagi hamma yangiliklar ana shu shohtomirlarga kelib tushar edi. Stol ustida bronzadan quyilgan hashamdor yozuv asboblari turar, qalamdonga o'nga yaqin qizil va ko'k qalamlar solib qo'yilgandi. Xona devorida, yozuv stoli orqasida bir juft quloqchinli radio osilgan, qabulxona qo'ng'irog'i-yu „harbiy trevoga“ tugmasigacha qator saf tortgan edi. Yozuv stolining qarshisida charm o'rindiq. Stol orqasidagi yog'och stulda egilmaydigan odam o'tirardi. Deraza pardalari yarim tushirilgan, yozuv stolidagi yashil abajurda elektr chirog'i yonib turgani uchun egilmas odamning yuzini ko'rib bo'lmasdi.

Qo'mondon gilam ustidan yurib kelib, charm o'ringa o'tirdi.

Birinchi – egilmas odam:

– Gavrilov, sen bilan inqilob tegirmoni haqida gaplashib o'tirmaymiz. Afsuski, tarix g'ildiragi, ayniqsa, inqilob g'ildiragi, men shunday o'ylayman, ko'p hollarda o'lim va qon bilan harakat qiladi. Qon bilan o'lim nimaligini yaxshi bilasan. Ikkimiz och-yalang'och qizil askarlarni Yekaterinovga boshlab borganimiz esingdami? Senda miltiq bor edi, menda ham. Snaryad tushib oting nobud bo'ldi, sen piyoda qolding. Qizil askarlar orqaga qocha boshladilar, ularni to'xtatish uchun qo'lingdagi nagan bilan bittasini otib tashlading. Komandir, qo'rqqulik qilganimda meni ham otib tashlar eding va buni men to'g'ri deb hisoblayman.

Ikkinchi – qo'mondon:

– Ey, sen bu yerga qanday joylashib qolding, ministrga o'xshaysan-a? Bu yerda chekish mumkinmi? Men kuldonni ko'rmayapman.

Birinchi:

– Chekma, keragi yo'q. Sog'lig'ingga to'g'ri kelmaydi. Men chekmayman.

Ikkinchi, keskin, tez:

– Ortiqcha hashamsiz gapiraver, nimaga chaqirding? Diplomatchiliging kimga kerak? Gapir!

Birinchi:

– Shuning uchun chaqirdimki, seni operatsiya qilish zarur. Sen inqilobga kerakli odamsan. Professorlarni chaqirdim, ular bir oyda oyoqqa turib ketadi deyishmoqda. Buni inqilob talab qiladi. Professorlar kutib o'tirishibdi, seni ko'rishadi, tekshirishadi. Buyruq berib qo'yganman. Hatto bitta nemis ham keldi.

Ikkinchi:

– Nima desang deyaver, men baribir chekaman. Mening shifokorlarim operatsiyaning keragi yo‘q, o‘zi bitib ketadi, deyishdi. O‘zimni sog‘lom his qilyapman, hech qanday operatsiya kerak emas, men xohlamayman.

Birinchi qo‘lini orqasiga qo‘ydi, devordagi tugmani bosdi, kotib ovoz chiqarmay kirdi, birinchi so‘radi: „Qabulga turganlar bormi?“ – Kotib bosh silkidi. Birinchi hech narsa demasdan kotibni chiqarib yubordi.

Birinchi:

– O‘rtoq qo‘mondon, to‘rt ming odamni aniq ko‘rinib turgan o‘limga yuborish kerakmi, yo‘qmi, deb bahslashganimizni eslaysanmi? Sen jo‘natishga buyruq berding. To‘g‘ri qilding. Uch haftadan keyin o‘rningdan turib ketasan. Meni kechirasan, buyruq berib qo‘yganman.

Telefon jiringladi, u shaharniki emas, ichki – o‘ttiz-qirqta simlardan biri edi. Birinchi dastani ko‘tardi, tingladi, qayta gapirdi: – „Notami, fransuzlargami? – Albatta rasmiy, kecha kelishganimizdek. Birga xonbaliq ovlagan paytlarimizni eslab turasanmi? Fransuzlar juda tegmanozik bo‘lishadi. Qanday? Ha, ha, burab qo‘y. Hozircha“.

Birinchi:

– Meni kechirasan, o‘rtoq Gavrilov, boshqa gapga o‘rin qolmadi.

Qo‘mondon papirosni oxirigacha chekdi, qoldig‘ini ko‘k va qizil qalamlar orasiga tiqib qo‘yib, o‘rnidan turdi.

Qo‘mondon:

– Xayr.

Birinchi:

– Hozircha.

Qo‘mondon qizil gilamcha ustidan yurib ostonaga chiqdi, „Roys“ uni sershovqin ko‘cha bo‘ylab olib ketdi. Egilmaydigan odam xonada qoldi. Huzuriga boshqa hech kim

kirmadi. Qo'lida qizil qalam ushlab, engashmagan ko'yi qog'oz titib o'tirdi. Tugmachani bosdi – kotib kirdi, unga topshiriq berdi: „Qalamdon ichidagi qoldiqni olib tashlash chorasini ko'ring“. Yana qizil qalamni ushlab, qog'ozlarni o'qishga tushdi. Bir-ikki soat o'tdi, mansabdor qog'ozlarni titdi, ishladi. Faqat bir marta telefon jiringladi, u tinglab javob berdi. „Turkistondagi tovarsiz o'pqonni bekitish uchun ikki millionlik kalish va manufaktura. Ha, o'z-o'zidan ravshan. Ha, boraver. Hozircha“. Tovush chiqarmay xizmatchi kirdi va oyna yonidagi stolga patnisda ustiga salfetka yopilgan bir stakan choy bilan bir parcha yaxna go'sht qo'yib ketdi. Egilmaydigan odam kotibni yana chaqirib so'radi: „Maxfiy ma'lumot tayyormi?“ – Mansabdor katta qog'ozni olib, tashqi ishlar xalq komissariyati, OGPUning Siyosiy va Iqtisodiy bo'limlari, Tashqi Saydo xalq komissariyati, Mehnat xalq komissariyatiga bog'liq ruknlarni ancha vaqt ko'zdan kechirib o'tirdi. Shundan keyin xonaga birin-birin uchlik<sup>1</sup>ka mansub odamlar – hukm yurituvchilar kirib kelishdi.

Tuman quyqasiga belangan sarg'ish tun shahar bo'ylab sudralib borardi. Soat uchlarga yaqin yo'lkalar va havo ko'kish, kulrang tusga kira boshladi.

Soat to'rtda shaharning ho'l fonarlari fohishalarning imo qoqayotgan ko'zlariga o'xshab yona boshlagan, ko'chalar odamga to'lib, avtomobillarning shovqini, zavod gudoklari va poyezdlarning chinqirig'i, tramvaylarning taraq-turug'i hamma yoqni tutgan pallada chekkadagi ikkinchi uy oldiga bir necha avtomobil kelib to'xtadi. Uy qorong'ilik pardasiga chulg'angan, ayni shu qorong'ilik rutubatli nam havoni isitib beradigandek tuyilardi. Uyning daryo qirg'og'idagi kengliklarga qaragan derazalari so'ng-

---

<sup>1</sup>Uchlik – Mash'um „troyka“ nazarda tutilmoqda (tarj.).

gi shafaq nurlarida tovlanar, shafaq u yoqda, kengliklardan narida tirqishdan taralayotgandek yoyilib, qotib qolgan qon tomchilariga o'xshab ko'rinardi. – Eshik oldida peshband bog'lab, piyma kiygan farrosh g'imillar, ikki millitsioner tik qotib turardi. Ichkarida – uyga kiraverishda ham ikki militsioner bor edi. Ikkita Qizil Bayroq nishonini taqqan qizil qo'mondon novdadek silliq, chaqqon ikki qizil askar hamrohligida dahlizga kirdi. Hordiq payti bo'lgani uchun xonalarda sukunat hukm surar, faqat uzoq burchakdan hamshiraning nihoyatda past ovozda daryo qirg'og'ida to'lqinlarga tikilib o'tirishni qo'msab kuylayotgan qo'shig'i arang eshitilardi. Qizil komandir va qizil askarlarni ostonada oq xalatli kishi kutib oldi. „Ha-ha-ha, bilasizmi?“ – shu zahotiy oq hamshiraning daryo to'lqinlari haqidagi qo'shig'i tindi. Qabulxona derazalari daryo qirg'og'iga qaragan bo'lib, parda tutilmagan edi. Devorlar oq bo'yoqlar bilan bo'yalgan, shiftdagi elektr chirog'idan oq nur taralardi. Telefonlar ko'rinmasdi. Xona katta va bo'm-bo'sh edi. O'rtada oq kleyonkali stol, uning atrofida temiryo'llardagiga o'xshash suyanchiqlari baland kleyonkali stullar qo'yilgandi. Devor yonida oq choyshab yopilgan divan va yog'och kursilar. Burchakdagi chanoq ustiga o'rnatilgan oynaband tokchalarga har xil hajmli turli-tuman idishlar, simobli shisha, yashil sovun solingan banka terilgan, yoniga oxorlanmagan sariq sochiq osilgan edi. Birinchi avtomobilda professorlar, terapevtlar, jarrohlar kelishgandi. Belburma kamzul va qora nimcha kiygan odamlar qabulxonaga kirishdi, bu odamlar darhol kamzullarini yechib, oq xalat kiyib olishdi. Derazalardagi qonrang shafaq shu'lalari o'ldi. Odamlar kirib salom berishar, ularni baland bo'yli, sersoqol, xushfe'l, qalin sochli xo'jayin kutib olardi. Fan, ayniqsa, tibbiyot olimlari, aksari hollarda negadir



badbashara ko‘rinadi: yo yonoqlari yaxshi o‘smagan, yo nihoyatda bo‘rtgan bo‘ladi, oqibatda, yonoqlar quloqdan oshib ketadi; ko‘zlariga hamisha ko‘zoynak qo‘ndirilgan, ko‘zoynak esa hatto ko‘z xaltasini eng chekkasida osilib turgan bo‘ladi; taqdir ko‘pchiligini sochdan siqib qo‘yadi, siyrak soqoli bo‘ynida o‘sadi, ba‘zilarining sochi yonog‘i va iyagidagina emas, burnida yoki qulog‘ida ham dimiqib o‘saveradi, ayni shu holat tufaydi bu olimlar davrasi jin-ni-g‘inni odamlar to‘dasiga o‘xshab ko‘rinadi, go‘yo har bir olim, albatta, telbavash bo‘ladigandek bu telbavashlik esa ularni bag‘oyat o‘qimishli qilib ko‘rsatadigandek edi. Ammo bunday telba-teskarilik hozir qabulxonada ko‘zga tashlanmasdi. Xo‘jayin sifatida kutib olayotgan jarroh professorning qalin tuklari burnida ham tikkayib turar, burun uchiga qo‘ndirilgan kichik ko‘zoynagigina uni telbavash qiyofada ko‘rsatardi. O‘ttiz besh yoshlardagi, yaltirbosh, kamzul kiyib, pensne taqqan, ko‘zlari ichiga botib ketgan professor Lozovskiy mezbon qarshisiga keldi.

– Ha-ha-ha, bilasizmi?

Yaltirbosh sersocho‘xoyingaga so‘rg‘ichli muhri buzilgan konvertni uzatdi.

Sersocho‘xoyingaga kishi ichidagi qog‘ozni oldi, ko‘zoynagini to‘g‘rilab, o‘qidi, yana ko‘zoynagini to‘g‘riladi, taajjublandi va qog‘ozni uchini kishiga uzatdi.

Yaltirbosh tantanali ohangda:

– Maxfiy qog‘oz, ko‘ryapsizmi, buyruq o‘rnida. Uni menga ertalab keltirib berishdi. Tushunyapsizmi?

Birinchi, ikkinchi, uchinchi odam past ovozda shoshapisha gapga tushib ketishdi.

– Konsiliumga hojat bormikan?

– Meni shoshilinch tarzda yuborishdi. Universitet rektori nomiga telegramma jo‘natishibdi.

– Bilasizmi, qo‘mondon Gavrilov – haligi... ayni shuning o‘zimi?

– Ha-ha-ha, nima deysiz, – inqilob, armiya qo‘mondoni, formula, va – marhamat.

– Konsilium.

– Janoblار. Gavrilovning o‘zini ko‘rdinglarmi – qanaqa odam ekan?

– Ha-ha-ha, bilasizmi, birodar.

Tik tushib turgan elektr nurida soyalar tebranadi.

Shafaq so‘nib, daryo qirg‘og‘idagi yalanglikni zulmat bosdi. Biri ikkinchisining xalatidagi tugmani ushlab, uchinchisi narigisini qo‘ltig‘idan olib xonada yurib gaplasha boshladilar. Birinchi, ikkinchi, uchinchi baland ovozda, shoshilmay, xotirjam muloqotga kirishmoqda edi.

– Professor Ooppelning jarrohlar syezdida ichki sekretsiya bezlari haqidagi nutqida men o‘n ikki barmoqli ichakka opponentlik qildim.

– Bugun Olimlar uyida...

– Rahmat, xotinim soppa-sog‘, katta kolit bezovta qilib turadi. Yekaterina Pyotrovna yaxshimi?

– Pavel Ivanovich, „Jamoatchi shifokor“da maqolalangiz...

Nihoyat, eshik orqasida qizil askarlarning miltig‘i sharaqlab, poshnalari taraqladi, qizil askarlar kirib, tik qotib turishdi, ostonada baland bo‘yli, novdadek xipcha, ko‘kragiga Qizil Bayroq ordeni taqilgan yoshgina yigit paydo bo‘ldi va eshik yonida joy egallagandan keyin, – qo‘mondon shiddat bilan kirib keldi, qo‘li bilan sochini orqaga tarab, gimnastyorkasi yoqasini tuzatdi va:

– Salom, o‘rtoqlar. Yechinishga buyruq berasizlarmi? – deb so‘radi.

Shunda – professorlar stol atrofidagi kleyonka tortilgan stullarga o‘tirib, tirsaklarini stolga tiradilar, qo‘llarini chalishtirib, ko‘zoynak va pensnelarini to‘g‘rilagandan keyin bemorni o‘tirishga taklif qildilar. Paket keltirgan pensneli yaltirbosh sochi qalin kishiga murojaat qildi:

– Pavel Ivanovich, siz primus inter pares sifatida, o‘ylaymanki, raislik qilishga qarshilik bildirmassiz? – Yechinishim kerakmi? – so‘radi qo‘mondon va qo‘llari bilan yoqasini ushladi.

Konsilium raisi Pavel Ivanovich qo‘mondonning savolini eshitmagandek bo‘lib, raislik o‘rniga o‘tirar ekan, ohista gap boshladi:

– O‘ylaymanki, bemor kasallik alomatlarini qachondan boshlab his qilganini, qanday patologik belgilar aniqlanganini bizga aytib beradi. Shundan keyin bemorni ko‘rishga o‘tamiz.

...Professorlarning mazkur kengashidan keyin shifokorlarga xos tushunib bo‘lmaydigan xat bilan yozilgan bir varaq qog‘oz qoldi, qog‘oz sariq, chiziqsiz edi, u pala-partish yirtib olingan, buning ustiga sifatsiz yog‘ochdan tayyorlangan va mutaxassislar, injenerlarning dalolatiga ko‘ra yetti yilda chirib bitadigan matoh edi.

*Professor falonchi falonchi, prof. falonchi falonchi, prof. falonchi falonchi (yetti marta takrorlanadi) ishtirokida o‘tgan konsilium qarori.*

*Bemor fuqaro Nikoloy Ivanovich Gavrilov oshqozon-osti og‘rig‘i, qusish, jig‘ildon qaynashidan shikoyat qiladi. Xastalik o‘zi sezmaganda ikki yil oldin boshlangan. Faqat ambulatoriyada davolangan va kurortlarga borgan, ammo foydasi bo‘lmagan. Bemorning iltimosiga muvofiq yuqoridagi shaxslar tomonidan konsilium o‘tkazildi.*

*Status praesens. Bemorning umumiy ahvoli qoniqarli. O'pkasi – N. Yurak tomoni biroz kengaygani seziladi, tomiri tez uradi. Oz miqdorda neurasteniya. Oshqozonidan boshqa a'zolarida patalogik o'zgarishlar ko'rinmaydi. Bemorda ulcus ventriculi taxmin qilinadi va uni tez operatsiya qilish zarur.*

*Konsilium bemorni operatsiya qilishga professor Anatoliy Kuzmich Lozovskiyni tavsiya etadi. Prof. Pavel Ivanovich Kokosov operatsiyada yordamchi bo'lishga rozilik bildirdi.*

*Yil, sana, yetti professor imzosi.*

Keyinchalik, operatsiya bo'lib o'tgandan so'ng, shaxsiy muloqotlar paytida professorlardan birontasi ham operatsiya qilish zarur deb qat'iy fikr bildirmagani, aksincha, yara jarrohlik aralashuviziz tuzalib ketadi, degan to'xtamda bo'lgani aniqlandi – ammo bu haqda konsiliumda hech kim gapirmagan, faqat kamgap nemisgina operatsiyaga hojat yo'qligini aytgan, hamkasblari indamagandan so'ng u so'zini o'tkazishga urinmagan, ayni chog'da, konsiliumdan keyin Olimlar uyiga ketishayotganda ko'zlari soch chakalaklari ostida qolgan professor Kokosov avtomobilga o'tirar ekan, professor Lozovskiya: „Xo'sh, bilasizmi, sizga aytsam, agar shu kasallik ukamda bo'lganda, operatsiya qilib o'tirmasdim“, – degan, bunga professor Lozovskiy:

„Ha, albatta, ammo... ammo, bu xavfsiz operatsiya...“ – deb javob bergan. Avtomobil tarillab yurib ketgan. Lozovskiy paltosining barini to'g'rilab yaxshilab joylashib olgandan keyin shofyor eshitmasin, deb shivirlab gapirgan:

– Gavrilov deganlari qo'rqinchli odam ekan, qilt etmasdan „Yechinishga buyruq berasizlarmi?“ – deydi-ya, men

ham, aslida, operatsiyani ortiqcha deb bilaman, – ammo, o‘rtoqlar, sizlar uni zarur hisoblasanglar, menga vaqtini va joyini aytasanglar bas, operatsiya qilinadigan joyga darhol yetib boraman. – Fikri aniq va qisqa.

– Ha-ha-ha, birodar, bilasizmi, bolshevik, bilasizmi, nima ham qila olardik, – degan Kokosov.

Ayni shu kuni kechqurun, shu soatda, kinoda, teatrlarda, varyeteda, qahvaxona va pivoxonalarda minglab odamlar g‘ujg‘on o‘ynagan, o‘yinqaroq avtomobillar ko‘chadagi ko‘lmaklarni chiroqlari bilan yoritib, yo‘l chekkalaridagi fonarlar shu‘lasi g‘alati ko‘rinayotgan odamlar to‘dasini qorong‘ilikdan yulib olayotgan paytda, teatrlar zamon va makonni birlashtirib, greklar, ossuriyaliklar, rus va xitoy ishchilari, Amerika va SSSR respublikachilari haqida safsata sotayotgan, aktyorlar butun hunarini ishga solib tomoshabinlarni darg‘azab bo‘lishga yoki gulduros qarsak chalishga majbur qilayotgan ayni shu pallada shahar ustida, ko‘lmaklar, uylar tepasida mazkur shaharga keragi bo‘lmagan oy ko‘tarilib chiqdi: bulutlar ildam yugurib borishar, osmondagi ko‘k bulutlar va qora o‘pqonlar uzra oppoq oy qo‘rqib ketgandek shoshilar, qochar, qayergadir ulgurish, qayergadir kechikmaslik uchun oshiqar edi.

Ayni shu daqiqalarda birinchi raqamli uydagi egilmas odam hamon o‘z xonasida o‘tirardi. Derazalar qalin pardalar bilan to‘silgan, kamin yonib turar edi. Bino sukunat ichra o‘lgan, bu sukunat yuz yillardan beri davom etib kelayotgandek tuyulardi. Egilmas odam oldida nemis va ingliz tillarida yozilgan qalin kitoblar ochiq turardi, – u siyohli ruchkada rus tilida chiroyli dastxat bilan nemis lainen-Postiga yozib o‘tirardi. Oldidagi ochiq kitoblar davlat, huquq va hokimiyat haqida edi.

Xonaga shiftdan yorug'lik tushib turar va endi bu kishining basharasini ko'rish mumkin edi: u hafaqon, hatto aytish mumkinki, bag'ritosh odamdek ko'rinar, butun diqqati bir nuqtaga yig'ilgan, toliqqanligi sezilmasdi, odam kitoblar va bloknotlarni titib uzoq o'tirdi. So'ng tugmachani bosgan edi, oldiga stenografistka kirdi. U o'qib turib, yozdira boshladi. Nutqidagi asosiy urg'u SSSR, Amerika, Angliya, yer yuzi va SSSR, ingliz sterlinglari va rus bug'doy pudlari, Amerika og'ir industriyasi va Xitoy ishchi qo'llariga qaratilgan edi. Odam baland ovozda, ishonch bilan gapirar, har bir jumlasini puxta, aniq bo'lib quyulib kelardi.

Shahar uzra oy kezar edi.

Ayni shu daqiqalarda qo'mondon katta mehmonxonada Popovning hujrasida o'tirardi, bu yerga o'rnashgan kommunistlar o'n sakkizinchi yildagi qo'zg'olon paytida bir-biriga madad berishi uchun ko'chib kelishgandi. Xona keng, yaxshi jihozlanganiga qaramay hamma mehmonxonalar kabi bu yer omonat manzil ekanligini, vaqti kelib uni tark etish lozimligini sezdirib turardi. Ular uch kishi edilar: Gavrilov, Popov va uning ikki yoshli qizchasi Natashka. Popov divanda cho'zilib yotar, Gavrilov Natashkani tizzasiga o'tqazib o'ynatib o'tirar edi. Gavrilov gugurt yoqdi; bolalar sirli narsalarga hayrat bilan boqishadi, ana shu holatning o'zida ham odamni hayratga soladigan nimadir bor. Natashka lunjini shishirib, lablarini cho'zar va olovni puf lab o'chirishga urinardi, ammo dami yetmas edi. Nihoyat, gugurt yonib bitgandan keyin Natashkaning moviy ko'zlarida sirli bir hayajon, shodlik va qo'rquv aks etar, buni ko'rgach, yana bitta gugurt cho'pini yondirib, Natashkani xursand qilmaslikning iloji yo'q edi. Keyin Gavrilov Natashkani uxlatmoqchi bo'ldi, to'shagi yonida o'tirib: „Sen ko'zlaringni yum, men qo'shiq aytib bera-

man“, – dedi va kuylashga tushdi, u durust kuylay olmas, qo‘shiqni ham shu zahoti o‘zi to‘qib chiqargandi:

*Echki kelib kuyladi:*

*„Uxla qo‘zim uxla, uxla“, –*

So‘ng, jilmayib, Natashkaga va Popovga ayyorona qarab qo‘ydi, miyasiga to‘satdan kelib qolgan va „uxla, uxla, uxla, uxla“ so‘zlariga ohangdosh misralar topib, kelishmagan ovozda yana kuyladi:

*Echki kelib kuyladi:*

*„Uxla, qo‘zim, uxla, uxla, uxla...*

*Ammo siyib qo‘ymagin tag‘in...*

Natashka ko‘zini ochib jilmaydi, Gavrilov esa so‘nggi ikki misrani kelishmagan (aslida, nihoyatda yomon) ovozda Natashka uxlab qolguncha kuyladi.

Keyin Gavrilov bilan Popov ikkalasi choy ichishdi. Popov oq emal bilan „O‘rtoq Popovga Oktabr Inqilobining 5 yilligi sharafiga Lisev zavodining ishchilardan sovg‘a“, deb yozilgan qizil choynakni ko‘tarib borib oshxonadagi kubdan qaynoq suv quyib keldi. Gazeta ustiga stakanlar, tarelkada yog‘ va pishloq qo‘ydi, bir xaltachada qand, boshqasida non bor edi. Popov: „Nikolka, yorma bo‘tqa pishirib beraymi?“ – deb so‘radi.

Bir-biriga qarama-qarshi o‘tirishdi, past ovozda ohista gaplashishdi, shoshiladigan joyi yo‘q edi, choyni ko‘p ichishdi, Gavrilov gimnastyorkasining yoqasini yechib qo‘yib taqsimchada ichdi. Har xil mayda-chuydalar haqida gaplashib o‘tirishdi. Ikkinchi stakan ichilgandan keyin Popov yarimlab qolgan idishni surib qo‘ydi va ancha jim turgandan keyin dardini aytdi:

– Nikolka, mening Zoyam ketib qoldi, qizaloqni qo‘limga tutqazib; qandaydir bir injenernikiga ketdi, kim bilsin, ilgaridan don olishib yurganmi? Uni qoralab, yomon so‘zlar bilan haqorat qilib o‘tirmayman, ammo xayrxo‘shlamay, uzr so‘ramay, qanjiq itdek qochib ketganini aytmasam bo‘lmaydi. Meni hech qachon sevmagan edi deyishgayam tilim bormaydi, imtiyozlardan rosa foydalalanib, baribir shoyi paypoqlar, atir-upalar, pudralarga uchib qochib ketdi. Alam qilar ekan, uni frontda sassiq o‘radan chiqarib olib, avaylab-asradim, parvarishladim, sevdim, tentak bo‘lib, bag‘rimda ushlab yurgan ekanman, u esa oqsuyak ekan, begonaga ilakishib, besh yil mehribonlik ko‘rsatgan odamga tupurib ketdi...

Popov bu mojaroga doir mayda-chuydalarni, aynan mayda-chuyda bo‘lganligi uchun dilni g‘ash qiladigan tafsilotlarni batafsil so‘zlab berdi. Gap bolalarga borib taqalganda Gavrilov qarib qolgan va o‘zi uchun dunyoda yagona bo‘lgan xotini tilga oldi. Natasha haqida ko‘p gaplashishdi, ayniqsa hozir, Popov uni tuvakka o‘tqazishni ham, alla aytib uxlatishni ham bilmaydigan paytda nima qilish lozimligi haqida maslahatlashishdi. Popov unga Vodovozov, Montessori, Pinkevichlarning kitoblarini ko‘rsatdi va qo‘llarini keng yozdi. Butun suhbat davomida sovib qolgan choyni ichishdi.

Oy shahar ustidan shoshilib borardi. Shahar ko‘chalari bo‘shab, tungi hordiq olayotgan, qishloqlarda xo‘rozlar chaqirayotgan, odamlar kechki taomni hazm qilib, kunduzi bajarilgan ishlarning hisob-kitobini tamomlab, erlar, xotinlar, oshiqalar, ma‘shuqalar to‘shakda orom og‘ushiga cho‘mgan pallada Gavrilov Popovnikidan chiqdi.

– Menga o‘qish uchun biron narsa berib tur, faqat bilanmi, sodda bo‘lsin, yaxshi kishilar, ishqiy sarguzashtlar,



oddiy munosabatlar, oddiy hayot, quyosh haqida, odamlar va oddiy insoniy sevinchlar haqida bo'lsin.

Bunday kitoblar Popovda topilmadi.

– Mana senga inqilobiy kitoblar, – dedi hazillashib Gavrilov. – Xo'p, mayli, men yana bir marta Tolstoyini o'qiyman. Bal paytidagi eski qo'lqop haqida juda qotirib yozgan. – Gavrilovning yuzi qoraydi, jim qoldi, so'ng ohista davom etdi: – Men senga, Alyosha, vaqtni behuda sarflamaylik, deb aytishni xohlamagan edim. Bugun men boshliqlar va kasalxonadagi professorlar oldida bo'ldim. Professorlarning aqliga tasanno. Ammo tilib tashlashlarini xohlamayman, butun vujudim bunga qarshi. Ertaga pichoq ostida yotishim kerak. Sen kasalxonaga kel, eski davrlarimizni unutma. Bolalarim va xotinimga xabar berma. Al-vido! – Gavrilov Popovga qo'l uzatmay, xonadan chiqdi.

Mehmonxona oldida usti yopiq mashina turar edi. Gavrilov o'tirib, buyurdi: – „Uyga, vagonga!“ – va mashina torko'chalar bo'ylab g'izillab ketdi. Oy kichkina so'qmoqlardan o'tib, katta yo'lga tushdi; yo'lni kesib o'tgan it akillab, qora sukunat bag'rida g'oyib bo'ldi. Vagon zinasidagi soqchi qo'mondon o'tayotganda tik qotdi. Yo'lakda yordamchi paydo bo'ldi, vagon xizmatchisi boshini chiqarib qaradi, – vagonda elektr chirog'i yondi, – va vagon chekka o'lkalarda bo'ladigan teran sukunat qa'riga cho'mdi. Qo'mondon yotoq-kupega o'tdi, etigini yechib, tungi shippak kiydi, gimnastyorkasi yoqasini yechdi, – „choy“ deb buyurdi. Salonga o'tib, stol chirog'i qarshisiga o'tirdi, xizmatchi choy keltirdi, ammo qo'mondon unga qo'l tek-kizmadi; qo'mondon „Bolalik va o'smirlik“ni uzoq o'qib o'tirdi, xayol surdi. O'rnidan turib yotoqqa kirdi va katta yondaftar ko'tarib chiqdi, soqchiga: „Siyoh keltiring“, – deb buyurdi, keyin shoshilmasdan, har bir jumlanı puxta

o‘ylab, yozishga kirshdi. Birinchi xatni yozib tugatdi, o‘qib ko‘rdi, o‘ylab qoldi, konvertni yelimpladi. Ikkinchi xatni yozdi, o‘ylab turdi, yelimpladi. Uchinchi xatni ham yozdi, negadir shoshilib, juda qisqa yozdi, o‘qimasdan yelimpladi. Vagonda tilsiz sukunat. Zinada soqchi qotib qolgan. Yo‘lakda yordamchi va xizmatchi tik turardi. Hatto vaqt ham qotib qolgandek. Oq jildlarga solinib, manzillari yozilgan maktublar qo‘mondon oldida uzoq yotdi. Nihoyat, u har uchala xatni katta paketga solib yelimpladi va paket ustiga „O‘limimdan so‘ng ochilsin“, deb yozib qo‘ydi. Shaxt bilan o‘rnidan turib, yotoqqa o‘tdi, gimnastyorkasini yechib, uyqudan oldingi yuvinishga kirishdi, yechindi, yotib, chiroqni o‘chirdi. Vagon uch-to‘rt soatgacha zulmat va sukunat qo‘ynida qoldi. Sahar yaqinlashib kelardi. Agar shu paytlarda xizmatchi yotoqqa mo‘ralab qaraganda, hayratdan lol qolgan bo‘lardi, bunga sabab: qo‘mondon bosh qo‘yib yotadigan joyda papiros lahcha cho‘g‘ bo‘lib qizarib turardi, bu o‘rinda hayratlanadigan narsa shuki, odatda, qo‘mondon mutlaqo chekmas edi.

Qo‘ng‘iroq qattiq jiringladi, xizmatchi yugurib kirdi. Qo‘mondon sarkardalarga xos amr qildi:

– Kiyinamiz. Issiq shinel. Garajga qo‘ng‘iroq qiling, – poyga mashinasi, usti ochiq, ikki kishilik, – o‘zim haydayman. Sovetlar uyiga bog‘laning, Popovning xonasiga.

Telefonga kelgan Popovga qo‘mondon shunday dedi:

– Aleksey. Hozir oldingga boraman. Eshik oldiga chiqib tur. Gavrilov gapiryapti. Kechikma.

Yuz ot kuchiga ega ikki kishilik poygachi mashina yelpig‘ichday yozilib, shiddat bilan ikkinchi tezlikda joyidan qo‘zg‘aldi, keskin burilib, oq nur dastasini bosib o‘tdi, – shofyor chekkaga qochib qoldi, – qo‘mondonning o‘zi rulda edi, – signal berdi va mashina ko‘lmaklarni

sachratib, torko'chalardan, do'konlar va tashkilotlarning lavhalari yonida shamoldek uchib, kengliklar sari intildi. Popov karaxt ahvolda mudrab turardi. G'ildirak rezinasi yaxshigina yirtilgan mashina tezlikni pasaytirib, Sovetlar Uyi oldida to'xtadi. Popov indamasdan o'tirdi. Mashina ko'chalarni, sersuv ko'lmaklarni, fonar chiroqlarini ortda qoldirib yela boshladi. Havo og'irlashib bordi, u shamolga aylanib mashinaga urilar, hushtak chalar, muzdek sovib, tikandek sanchilar, – chorrahalaridagi fonarlar chiroqlarini silkitib qolar, qarshidan birin-ketin militsionerlar yugurib chiqar va hushtagini chalgancha orqada qolib ketishardi. Mashina uylar va ko'chalar girdobidan chiqib, bor kuchi bilan olg'a intilardi, dastlab tashlandiq bo'lib yotgan kengliklar, tramvay yo'llarida uchraydigan siyrak do'konlar, so'ng zulmat bosgan qora dalalar ortda qola boshladi. Mashina eng katta tezlikda uchib borardi. Shamol va havo aqldan ozgandek tashlanib, badanni kesar, nafasni bo'g'ardi. Mashina ostidagi yo'l silliq oq ro'molga o'xshab qoldi, o'ydim-cho'nqirlar, unda-bunda duch keladigan tosh uyumlari mutlaqo sezilmas, faqat yo'lda katta chuqurchalar chiqib qolganda mashina bir necha sajen yerga ko'tarilib borar, shunda g'ildiraklar ostidan uchib chiqayotgan qum-shag'al shovqini bosilgandek bo'lardi. Bir, ikki, uch marta mashina chiroqlari qishloq uylaridagi devorlarga tiralib o'tdi, qo'y qamalgan qo'tonlar va itlar hurib chopgan qishloqlar bir chekkada qolib ketdi. Ikki tepalik orasidagi jarlikda mashina chiroqlari kulrang paxmoq kuz tumaniga o'ralib qoldi, shunda tumanning uchishi, shiddat bilan harakatlanib chiyillashi, izg'irin bo'lib uvullashi, qor bo'roni singari yuzga sanchilishi mumkinligini payqashdi. Gavrilov rulga egilib o'tirgancha butun diqqat-e'tiborini faqat olg'a, oldinga qaratgan, har bir xatti-harakatini

aniq hisobga olgan holda mashinani tez, chaqqon boshqarib borardi. Popov allaqachon mashina tubida tutqichni changallab, bukilib, hech qayoqqa qaramay qaltirab o'tirar edi. Mashina shu alfozda bir soatga yaqin vaqt ichida yuz chaqirim yo'l bosdi. Qandaydir ko'hna o'rmonzor oldiga yetganda mashina tezligini kamaytirib borib, madorsizlanib, tinchib qoldi va shamollar, sovuq qiyalab yog'ayotgan kuz yomg'irini o'z holiga qoldirib birdan to'xtadi. Popov o'rindiqla qayta joylashdi.

– Papirosingdan ber, Alyoshka, – dedi Gavrilov.

Popov zo'rg'a gapirdi:

– Bunday hunarlarning nima keragi bor, butun ichak-chavog'im uzilib tushgandek bo'ldi. – Ma, chekib ol, shayton yo'ldan urdimi?

Gavrilov chekdi, o'zini suyanchiqqa tashlab tin olar ekan, xayolchanlik bilan dedi:

– Juda toliqqan paytimda, aqlim va xayollarim o'zimga bo'ysunmay qolganda mashinani olaman-da, mana shunday uchaman. Bunday uchish meni va xayollarimni tartibga soladi. Mana shu uchish paytida bo'lib o'tgan gap-so'zlarini, iboralarni, hatto tovush ohangini, chekib tashlangan papiros rangini ham iker-chikirlarigacha eslay olaman. Xotiram yaxshi emas, jang-jadal paytidagi eng mas'uliyatli voqealar ham yodimda qolmaydi, buni keyinchalik menga gapirib berishadi. Ammo mana bunday uchish daqiqalarini yaxshi eslab yuraman. Hozir mashinani telbalarcha haydadim, to'qson to'qqiz foiz majaqlanib ketishimiz mumkin edi, ammo mening har bir harakatim aniq hisob-kitobli, shuning uchun bu sodir bo'lmadi. Men tushunib bo'lmaydigan aniqlik kayfiyati bilan mastman. Rostini aytsam, majaqlanib ketganimizda, menga yaxshi bo'lardi. Qani, gaplashaylik endi.

Gavrilov qoldiqni chaqqonlik bilan uloqtirib yubordi, o'rindiqqa suyanib o'r'nashdi, xayolga toldi, chamasi – o'z-o'zini tinglab, mag'rurligi bilan faxrlanib o'tirar edi.

– Sirasini aytganda, indamay qo'ya qol, hali biz ko'p gaplashamiz. O'tir! Endi qaytamiz. Bunday uchish, bunday shiddat menga yoqadi. Mana shunday yuksak kayfiyat uchun yashasang, shunga intilib umr o'tkazsang arziydi. Umr yo'limizning o'zi bir-birimizga hayotimiz haqida gapirib beradi. O'tir! Ba'zan jim o'tirishga to'g'ri keladi! – dedi Gavrilov g'urur bilan.

Mashina shovqini yana olamni tutdi – u qaytishda ham shamolni, vaqtni, tumanlarni, qishloqlarni orqada qoldirib, tumanlarni va vaqtni raqsga tushishga, qichqirishga, qochishga, Popovni yana tiz cho'kib, egilib, duch kelgan joyni changallab ushlaganicha ichak-chavog'ini avaylashga majbur qilib uchib keta boshladi.

Shahar chekkasidagi tepalikdan o'tayotganda – pastlikda tuman bosgan, loyqa chiroqlari xira shu'la sochib turgan, shovqin-suron ichida tinimsiz guvullayotgan – nihoyatda baxtsiz qiyofadagi shaharni bir necha daqiqa ko'rish mumkin edi.

Bo'zargan tong otib, zavod gudoklari shahar bo'ylab tarala boshlagan paytda mashina harbiy qismga yetib keldi.

## UCHINCHI BOB

### GAVRILOVNING O'LIMI

Birinchi qor, yerni kuzdan chiqarib, qishga uzatadigan, kuzgi pilchillagan loygarchilik, tuman, izg'irin, to'kilgan xazonlar va ko'chalardagi axlatlar orasiga chegara tortadigan, har doim tunda yog'adigan birinchi qor kecha yog'ib o'tdi – va qishning birinchi shaxdam qadamli oppoq kunida shovqin-suronlar gum bo'lib, sokinlik damlari – odamlar qayishni mahkam bog'lab, keyingi ishlar haqida shoshilmay o'y suradigan vaqtlar boshlandi.

Birinchi qor Gavrilov o'lgan kunga to'g'ri keldi. Oq sukunat qo'yniga cho'mgan shahar oq rangga belanib, tinchib qoldi, shaharga qor bilan kirib kelgan chittaklar daraxt shoxlari va derazalar oldidagi qorlarni to'zg'itib chirqillashadi.

Professor Pavel Ivanovich Kokosov har doim soat yettida o'rnidan turardi, operatsiya bo'ladigan kuni ham shu vaqtda uyg'ondi. Professor adyoldan boshini chiqarib yo'taldi va jun bosgan qo'lini stolga uzatib, odatdagidek paypaslab ko'zoynagini topdi, uni burni ustiga qo'ndirib, sochlarini to'g'riladi. Deraza orqasidagi qayin ustida qor titkilayotgan chittak ko'rindi. Professor xalat kiydi, oyog'iga xonaki tufisini ilib, vannaga yo'l oldi. Professor Kokosovning xonadonidagi pastak shift hozir urf bo'lmay qolgan edi, bu uyida professor kam deganda yigirma yildan beri yashab kelardi, har holda yigirma yillik to'y oldidan bo'sh vaqtlarni ana shu shiftdagi hamma sarg'aygan pardalar, ilig'lik suratlar, charm muqovali kitoblardagi changni

hafsala bilan artib, tozalab chiqishga sarflash lozim... Professor uyg'onganda xona jimjit edi, u pishqirib vannadan chiqqan paytda xotini Yekaterina Pavlovna choyqoshiqni sharaqlatib, professor uchun choyga qand aralashtirmoqda edi, oshxonada samovar pishillab qaynab turardi. Professor xalat va tuflida choyga o'tirdi.

– Xayrli tong, Pavel Ivanovich, – dedi xotini.

– Xayrli tong, Yekaterina Pavlovna, – dedi eri.

Professor xotining qo'lini o'pib, qarshisiga o'tirdi, ko'zoynagini sochi ustidan yaxshilab joylashtirdi, shunda ko'zoynak orqasidan poplarnikiga o'xshab ketadigan, ham samimiy, ham mug'ambir, ham sodda, ham aqlli kichkina ko'zlari ko'rindi. Professor choyni shoshilmasdan ichib, nimanidir aytishga chog'landi. Ammo odatdagi ertalabki choy ichish jarayoniga telefon xalaqit berdi. Telefon bemavrid jiringlagan edi. Professor telefon jiringlayotgan xona eshigiga keskin nazar soldi, taajjub bilan yoshi o'tinqirab, to'lishib qolgan, yapon kimonosi kiygan xotiniga qaradi, – o'rnidan turib, yanada taajjublangan holda telefonga qarab yo'naldi. Professor qartaygan do'rilloq ovozda telefonga gapirdi:

– Xo'sh, xo'sh, men sizni eshitaman. Kim qo'ng'iroq qilyapti va nima ishingiz bor?

Telefondagilar shtabdan gapiryapmiz, deb aytishdi, shtabdagilarga operatsiya to'qqiz yarimda boshlanishi ma'lum, shtabdagilar so'rashyaptiki, biron yordam kerak emasmi, professor uchun avtomobil jo'natsakmikin deyishyapti. – Shunda professorning birdan jahli chiqdi, pishillab, trubkaga to'ng'illadi:

– ...Men, bilasizmi, ayrim odamlarga emas, jamiyatga xizmat qilaman, ha, ha, ha, bilasizmi, birodar, – klinikaga ham tramvayda boraman, birodar. Men o'z burchimni, ke-

chirasiz, vijdonan bajaraman. Bugun ham tramvayda bor-masligim uchun sabab yo‘q, deb hisoblayman.

Professor gapni bo‘lib, trubkani taraqlatib joyiga qo‘ydi. To‘rsayib, pixillab stolga, xotini yoniga qaytib keldi. To‘ng‘illab, mo‘ylovini siladi va tezda tinchlandi. Yana ko‘zoynak orqasidan muloyim, aqlli ko‘zlari ko‘rindi. Professor sekin gapirardi:

– Drakini Luji qishlog‘idagi mujik Ivan kasal bo‘lib qolgan, uch hafta pech ustida inqillab yotadi, qarindosh-urug‘i bilan maslahatlashib, Zemstvo kasalxonasidagi doktor Pyotr Ivanovichga boradi. Pyotr Ivanovich Ivanni o‘n besh yildan beri biladi. Ivan ham Pyotr Ivanovichga ana shu o‘n besh yil ichida o‘n beshtacha tovuq olib borgan, Pyotr Ivanovichning hamma bolasini taniydi, hatto jahli chiqib bir o‘g‘lining qulog‘ini cho‘zib ham qo‘ygan. Ivan Pyotr Ivanovichga tovuq bilan ta‘zim qiladi. Pyotr Ivanovich uni ko‘radi, eshitadi va zarur bo‘lsa shoshilmasdan, xotirjam, ishni ko‘zini bilib, operatsiya qiladi, sirasini aytganda, mendan yomon qilmaydi. Operatsiya yaxshi chiqmasa, Ivan o‘lib ketadi, xoch tiklab qo‘yishadi, vassalom... Yoki mening oldimga anavi Anatoliy Yurevich Svinitskiy keladi. Boshidan nima o‘tgan bo‘lsa hammasini aytadi. Men uni ko‘raman, yetti martalab qayta ko‘raman, uni tekshiraman va xulosamni aytaman: – Boravering, bi-rodar... Agar menga „Operatsiya qiling“, – desa qilaman, o‘zi xohlamasa, hech qachon zo‘rlamayman.

Professor jim qoldi.

– Konsiliumlardan yomon narsa yo‘q, Yekaterina Pavlovna. Anatoliy Kuzmichni xafa qilgim kelmaydi. Anatoliy Kuzmich meni xafa qilishni xohlamaydi. Bir-birimizga xushomad qilamiz, bir-birimizga ilmimizni ko‘rsatmoqchi bo‘lamiz, bemor bo‘lsa karaxt, xuddi bolsheviklarning



namunali ko'rgazmasidek musiqali tomosha, hech kim kasalni durustroq bilmaydi, – „Ko'ryapsizmi, Anatoliy Kuzmich, ko'ryapsizmi, Gerr Shiman...“

Professor jim qoldi.

– Bugun men o'z kasalxonamda bolshevik, qo'mondon Gavrilovning operatsiyasida yordamchi bo'laman.

– U, anavimi, – dedi Yekaterina Pavlovna, – haligi... bolsheviklarning gazetasida... dahshatli ism! – Nega siz operatsiya qilmaysiz, Pavel Ivanovich?

– Ha, hech qanday vahimali joyi yo'q, albatta, – javob berdi professor. – Lozovskiy qilsa nima bo'пти, hozir yoshlarning davri kelgan, ular o'zlarini ko'rsatishlari kerak. Umuman olganda, oxir-oqibatda, ana shu konsiliumlardan keyin ham bemorni hech kim yaxshi bilmaydi, garchi barcha ulug'larimiz uni paypaslab, nurga solib eshitib ko'rishganiga qaramay. Eng muhimi, odamni bilishmaydi, odam emas, formula bilan qiziqishadi, – birinchi sonli falonchi general, deb har kuni gazetaga yozishib, odamlarda qo'rquv uyg'otishadi. Operatsiyani qandaydir boshqacha o'tkazishga urinib ko'r-chi, butun Yevropaga jar solib onangni ko'rsatishadi.

Professorning yana jahli qo'zidi, pishilladi, pishqirdi, stoldan turib oshxona eshigiga qarab qichqirdi: „Masha, etik!“ va kiyinish uchun xonasiga ketdi. Qoshlarini, soqolini, mo'ylovini, sochini taradi, burma kamzul, samovardek yaltillatib tozalangan etik kiydi, cho'ntagiga toza dastro'mol soldi va izvosh keldimi deb derazadan qaradi, izvosh eshik oldida turar, yigirma yildan beri professor Kokosov oshxonasida yashayotgan kucher Ivan o'rindiqdagi qorni tozalamoqda edi.

Professor Anajtoliy Kuzmich Lozovskiy yashaydigan uy Kokosovning xonadoniga o'xshamas edi. Agar Koko-

sovning xonadoni o'tgan asrning oxiri va boshlaridagi rus shaharlariga xos bo'lsa, Lozovskiyning uyi ming to'qqiz yuz yettinchi yildan to'qqiz yuz o'n oltinchi yilgacha urf bo'lgan an'analarni o'zida mujassamlantirgandi. Bu yerda og'ir pardalar, katta divan, dubdan yasalgan stolga shamdon o'rniga qo'yilgan yalang'och bronza ayol haykalchalari, devorlarga asl gilamlar, ular ustiga ilingan „San'at olami“ ko'rgazmasidan olingan ikkinchi navli suratlar bor edi. Lozovskiyy divanda yolg'iz o'zi emas, yosh, chiroyli xotini bilan uxlardi; oxorlangan bezakli ko'ylagi polga to'shalgan gilam ustida yotardi. Lozovskiyy uyg'onib, xotining yelkasidan sekin o'pdi va bardam turib, parda bog'ichini tortdi. Og'ir surp parda burchakka surilib, xonaga kunduzgi yorug'lik kirdi. Hayotdan o'zicha lazzat olishga o'rgangan Lozovskiyy ko'chaga, qorga, osmonga shodon boqdi, bo'ydoq kishilar singari xonaga qaradi va pijama kiydi, oyog'iga laklangan xonaki tufli ilib, yuvinishga borishdan oldin xonani yig'ishtirishga kirishdi – stolni tozaladi, yarim ichilgan qizil sharobni kitob javonining pastki tokchasiga qo'ydi, kuldon, siyohni, yondaftarcha, kitoblarni oldi. Elektr choynak simini tokka uladi, choynakka kofe soldi, xotini bemalol uxlardi, bu ayol sevish, sadoqatli yoriga o'zini baxshida etishni baxt deb biladigan xotinlar toifasidan ekanligi ko'rinib turardi. U uyg'ondi, ko'zlarini ishqalab:

– Azizim, – deya xushnudlik bilan ko'zini ochdi, charog'on qish kunini, daraxtlarga ingan qorni ko'rib, o'rni-dan qo'zg'alar ekan, qo'llarini ibodat qilayotgandek qovushtirib shodon qichqirdi: – Azizim, birinchi qor, qish, azizim...

Professor uzun, oppoq qo'lini xotining yelkasiga qo'ydi, boshini o'ziga tortib:

– Ha, ha, qish, bahorim, marvaridgulim, – dedi.

Shu payt telefon jiringladi. Professorning telefoni divan tepasiga – gilam ustiga osilgan edi. Professor dastakni olib, „Ha, ha, sizni eshityapmiz“, dedi. Shtabdan qo‘ng‘i-roq qilishgan ekan, professorga avtomobil yuboraylikmi deb so‘rashdi.

Professor javob berdi:

– Ha, ha, marhamat! Operatsiyadan aslo tashvishlanmanglar. U a‘lo darajada o‘tadi, bunga ishonchim komil. Mashina masalasida, operatsiyadan oldin ba‘zi ishlarim bor edi. Ha, ha, marhamat, soat sakkizga.

Professor xursand bo‘lib trubkani ilib qo‘ydi va xotiniga g‘urur bilan:

– Marvaridgulim, kiyin, menga mashina yuborishadi, seni sayr qildirib, uyga keltirib qo‘yaman. Tez bo‘l! – U xotinini quchoqlab, yelkasiga boshini qo‘ydi. O‘ta baxtiyor odamlargina, odatda, o‘zlarini shunday tutadilar.

Vaqt chorak kam sakkiz edi. Baxtiyor er-xotin shoshapisha kiyinishdi. Professor kiyinar ekan, Xitoy piyolasiga qahva quydi. Xotini tabassum qilib, ohorlangan ko‘ylagiga ilma tugma qadab qo‘ydi. Uydan chiqish oldidan professor tantanavor qiyofada, ammo biroz salobat bosgan holda, yuqorida aytilgan o‘ttiz-qirqta telefon tarmog‘iga ega bo‘lgan telefon tizimiga ulanib, surishtira-surishtira birinchi sonli uydagi xonaga bog‘landi, u izzat-hurmatini joyiga qo‘yib, boshqa yangi topshiriqlar bormi, deb so‘radi, telefon trubkasidagi shiddatli ovoz operatsiya tamom bo‘lishi bilanoq ma‘lumotnoma yozib kelishni buyurdi.

Professor: „Juda yaxshi, bajaramiz“, – dedi va trubkaga ta‘zim qilib, bir muddat egilib turdi. Darvoza oldida mashina dudutladi.

Operatsiya kuni, ertalab, operatsiyaga qadar Gavri-

lovning oldiga Popov keldi, Hali tong otmagan, chiroqlar o‘chirilmagan edi, ammo gaplashishga ulgurishmadi, hamshira oxirgi marta huqna qilish uchun Gavrilovni vannaga yetaklab ketdi. Gavrilov vannaga borayotib shunday dedi:

– O‘qib qo‘y, Alyosha, Tolstoy „O‘smirlik“da kom-il-fo va kom-il-fo emas deb yozgan. Qariya qonni yaxshi his qilgan! – Bu Gavrilovning o‘lim oldidan Popovga aytgan so‘nggi so‘zi edi.

Popov ayoq shitirlab turgan tonggi sukunat ichida uyiga qaytar ekan, katta ko‘chani qo‘yib, kichik torko‘cha orqali jar yoqasiga chiqdi – narida, daryo orqasidagi qor bosgan kenglikda – ufq ortida, ko‘kish tuman qa’rida oy o‘lib bormoqda, sharq esa qizargan, qon qusgan, sovuq edi. Popov shaharga dala orqali o‘tib borish uchun daryo yoqasiga tushdi – sharq shafaq ichida yonardi. Gavrilov shu chog‘da oyna orqasidan daryo qirg‘og‘iga qarab turardi – u Popovni ko‘rdimikin? Kasalxona xalatida, vannadagi oyna oldida orexovo-zuyevolik to‘quvchi, nomi urushda afsonaga aylanib ketgan, minglab, o‘n minglab, yuz minglab kishilarga rahnamolik qilgan, minglab, o‘n minglab, yuz minglab kishilarning o‘limiga, mayib-majruhligiga, azob-uqubatlariga, sovuq, ocharchilik, safar izg‘irinlari, jaziramalariga, to‘plar gumburlashiga, o‘qlar hushtagiga va tungi shamollarga, gulxanlarga, hujumlarga, g‘alabalarga, mag‘lubiyat, qochish va yana minglab o‘limlarga ko‘nikib ketgan odam turardi. Vanna derazasi oldida qo‘lini orqasiga qilib osmonga tikilib, harakatsiz turgan bu odam qo‘lini oldinga cho‘zib, terlagan deraza oynasiga „O‘lim, huqna, kom-il-fo emas“, deb yozdi va yechina boshladi.

Operatsiya oldidan jarrohlik xonasi va Gavrilovning bo‘lmasi orasidagi yo‘lak shivirlashib gaplashayotgan, shovqin chiqarmay u yoqdan bu yoqqa pitir-pitir yurayot-

gan odamlar bilan to'ldi. Kechqurun Gavrilovning qorniga shirani so'rib oladigan va oshqozonni yuvadigan uchi egik kulrang kauchuk naycha tushirishdi, ko'ngil aynitishi va ruhiyatga ta'sir etishidan tashqari, bu g'alati asbob unga odamning izzat-nafsini tahqirlovchi narsa bo'lib tuyuldi. Ertalab operatsiyadan oldin so'nggi huqna qilishdi. Gavrilov jarrohlik xonasiga kasalxona xalati, dag'al matoli ishton va ko'ylakda (tugma o'rniga bog'ich tikilgan), yalang oyog'iga kasalxona raqami yozilgan tuflki kiygan holda kirdi (ohorlangan ichkiyimlari ertalab oxirgi marta almashtirilgandi), rangi o'chgan, ozib qolgan, toliqqan edi. Xona dahlizida spirt solingan ruhli uzun qutichalar shaqillab qaynar, oq xalatli kishilar jim turishardi. Jarrohlik xonasi juda keng bo'lib, poli, devorlari, shifti boshdan oyoq oq moy bo'yoq bilan bo'yalgandi. Xona nihoyatda yorug', bir tomoni yaxlit oynadan iborat bo'lib, u daryo tomonga qaragan. Xona o'rtasida cho'zinchoq oppoq jarrohlik stoli. Bu yerda Gavrilovni Kokosov bilan Lozovskiy kutib olishdi. Kokosov ham, Lozovskiy ham oq xalatda, boshlarida oshpazlarnikiga o'xshagan oppoq qalpoq, Kokosov hatto soqolini ham oq mato bilan o'rab olgan, faqat kiprigi qalin ko'zlarigina ochiq edi. Devor bo'ylab oq xalat kiygan kishilar turishardi. Gavrilov hamshira hamrohligida xonaga kirdi. Professorlarga indamasdan itoatkorona ta'zim qilib, stol oldiga keldi, qo'llarini orqaga qo'yib oynadan daryo tomonga tikildi. Ikkinchi hamshira ruhlangan uzun qutichada sterilizatsiya qilingan jarrohlik asboblarini olib keldi.

Lozovskiy Kokosovdan shivirlab so'radi:

– Boshlayveramizmi, Pavel Ivanovich?

– Ha, ha, bilasizmi, – javob berdi Kokosov.

Professorlar qo'llarini qayta-qayta yuvib, oq simob

kukuniga ishqalab yod surkadilar. Xloroformator niqobini ko‘zdan kechirib, pufagini ushlab ko‘rdi.

– O‘rtoq Gavrilov, boshlaymiz, – dedi Lozovskiy. – Qani, marhamat qilib stolga yoting. Tufolini yeching.

Gavrilov xijolat bo‘lgandek hamshiraga qarab, ko‘y-lagini yechdi, u esa Gavrilovga oddiy buyumga qaragan-dek boqib, yosh bolaga jilmaygandek kulimsiradi. Gavrilov stolga o‘tirib, oldin bir, keyin ikkinchi tufisini yechdi va chaqqonlik bilan yotdi, boshidagi yostiqni to‘g‘rilab, ko‘zini yumdi. Shunda hamshira odatiy chaqqonligi bilan oyoqlarini qayishga bog‘lab, uni stolga mahkamlab qo‘ydi, Xloroformator ko‘zini sochiq bilan bekitdi, og‘iz va burni-ga vazelin surkadi, yuziga niqob kiygizib, qo‘lidan tutib ko‘tardi, tomirini ushladi va niqobga xloroform sepdi, xo-nani xloroformning tishni qamashtiradigan shirin hidi tutdi. Xloroformator operatsiyani boshlash muddatini aniqladi. Professorlar indamay oyna oldiga borib turishdi. Hamshira sterilizatsiya qilingan skalpel, salfetkalar, har xil qisqichlar, pinsetlar, ninalar, shoyi parchalari singari narsalarni chiqa-rib, sterilizatsiyalangan doka ustiga terib qo‘ya boshladi. Xloroformator yana xloroform quydi. Xonani sukunat bos-di. Shunda bemor boshini qimirlatib ingradi.

– Nafas ololmayapman, bog‘ichni yeching, – dedi Gavrilov tishlarini taqillatib.

– Marhamat, biroz sabr qiling, – javob berdi xloroformator.

Bir necha minutdan keyin bemor ham gapirib, ham kuylay boshladi:

– Muz eridi, Volga ochildi, oltinim mening, oltinim, men, qizaloq, seni sevib qoldim, – kuylar edi qo‘mondon, so‘ng shivirladi: – sen uxla, uxla, uxla. – Jim turgach, keskin: – Klyukva kiselini boshqa bermang, hech qachon,

jonimga tegdi, bu kom-il-fo emas. – Jim qoldi, so‘ng jang paytidagidek qat‘iyat bilan baqirdi: – Chekinishga yo‘l yo‘q! Bir qadam ham! Otib tashlayman... Alyosha, og‘aynim, barcha tezliklar ochiq, hatto yer ko‘rinmaydi. Men hammasini eslayman. Ana shunda inqilob nima, u qanday kuch ekanini angalayman. Menga o‘lim qo‘rqinchli emas. – So‘ng yana kuylashga o‘tdi. – Ural orqasida yashar duradgor, oltinim mening, oltinim...

– O‘zingizni qanday his qilyapsiz? Uxlay olmayapsizmi? – Gavrilovdan sekin so‘radi xloroformator.

Gavrilov ham odatdagi tovushda, ammo sekin, mug‘ombirona javob berdi:

– Yomon emas, nafas ololmayapman.

– Yana biroz sabr qiling, – dedi xloroformator va xloroform quydi, Kokosov tashvishlanib soatiga qaradi, kasallik tarixi ustiga egilib, qayta o‘qidi. Har xil narkotiklarni qabul qila olmaydigan organizmlar ko‘p bo‘ladi, – Gavrilovni yigirma yetti minutdan beri uxlatisholmayapti. Kokosov kichik assistentini chaqirib, ko‘zoynagimni to‘g‘rilab qo‘y degandek yuzini tutdi. Xloroformator xavotir ichida Lozovskiya pichirladi:

– Balki, xloroformni qo‘yib, efirga o‘tsakmikin?

Lozovski y javob berdi:

– Xloroform bilan yana bir marta urinib ko‘raylik. Aks holda operatsiyani qoldirishga to‘g‘ri keladi. Noqulay.

Kokosov atrofiga jiddiy qarab, tashvishli ko‘zlarini yerga qadadi. Xloroformator xloroform quydi. Professorlar jim turishardi. – Qirq sakkizinchi daqiqaga borganda Gavrilov batamom uyquga ketdi. Shunda professorlar oxirgi marta qo‘llariga spirt surdilar. Hamshira Gavrilovning qornini yalang‘ochladi, ori q qobirg‘alar va ozoda qorin ko‘zga tashlandi. Professor Kokosov operatsiya qilinadigan may-

don – oshqozonosti o‘rmini keng-mo‘l qilib moylab, spirt, benzin va yod surtib chiqdi. Hamshira Gavrilovning oyog‘i va boshini o‘rab qo‘yish uchun choyshab uzatdi. Hamshira professor Lozovskiyning qo‘liga yarim banka yod quydi. Lozovskiy skalpelni olib, teri ustida yurgizdi. Qon sachradi, kesilgan teri bir tomonga surildi; teri ostidan sarg‘aygan, qavat-qavat bo‘lib ketgan et, qon tomirlari va yog‘ pardasi ko‘rindi. Lozovskiy odam etini yanada chuqurroq kesib, yaltillab, oqarib turgan binafsharang qatlam – muskul pardasini ajratdi. Kokosov ayiqdek gavdasiga nomunosib chaqqonlik bilan har xil qisqichlarni ishlatib, qon tomirlarini qisib qo‘ydi. Lozovskiy boshqa pichoqda qursoq pufagini qirqdi. Lozovskiy pichoqni qo‘ydi, – sterilizatsiyalangan salfetka bilan qonni artdi. Kesilgan joydan ichaklar va oqish-ko‘kimitir oshqozon qopchasi ko‘rindi. Lozovskiy qo‘lini ichak ustiga qo‘yib, oshqozonni ag‘darib ushladi – ana shunda oshqozonning yaltirab turgan eti orasida, yara bo‘lishi kutilgan joyda, – xuddi mumdan yasab qo‘yilgandek oppoq, buzoqboshi tuxumini eslatadigan chandiq ko‘rindi, – u yara bitib ketganini, operatsiya behuda o‘tkazilayotganini ochiq-oydin ko‘rsatib turardi.

Ammo ayni shu paytda, ayni shu paytda, ayni shu pallada, Lozovskiy Gavrilovning oshqozonini qo‘lida ushlab turgan mahalda:

– Tomir! Tomir! – deb qichqirib yubordi xloroformator.

– Nafas! – beixtiyor unga jo‘r bo‘ldi. Kokosov.

Ana shunda Kokosovning o‘ta yovuz, o‘ta qo‘rqinchli ko‘zlari xuddi sochlari orasidan, ko‘zoynagi ostidan otilib chiqqandek, otilib chiqib, atrofga sudralib ketgandek bo‘ldi, Lozovskiyning ko‘z xaltasi chetidan joy olgan ko‘zlari esa qansharini bosib, yanada qisilib, ichkariga kirib, dahshatli darajada o‘tkir yagona ko‘zga aylanib qoldi. Bemorning



tomiri sezilmas, yuragi urmas, nafas olmay qo‘ygan, oyoqlari sovib borardi. Yurak inqirozi boshlangandi. Xloroformni qabul qilmagan badan xloroform bilan zaharlangan edi. Endi bu odam hech qachon hayotga qaytmaydi, bu odam endi o‘lishi kerak, sun‘iy nafas oldirib, kislorod berib, kamfara, fiziologik eritma yuborib chinakam o‘lim holatini bir soat, o‘n soat, o‘ttiz soatga cho‘zish mumkin, undan narisi imkonsiz, natija shuki, odam hushiga kelmasdan o‘ladi. Gavrilovning operatsiya stolida, pichoq ostida o‘lishi aniq bo‘lib qolgandi. – Professor Kokosov hamshiraga yuzini o‘girib, oldinga cho‘zdi, – hamshira ko‘zoynagini to‘g‘rilab qo‘ydi, professor o‘shqirdi:

– Oynani ochinglar! Kamfara! Eritma tayyorlansin!

Gung assistentlar yanada gung bo‘lib qoldi. Kokosov indamasdan stol ustiga egilib, jarrohlik asboblarini ko‘zdan kechirdi. Lozovskiy ham Kokosov yonida egilib turardi.

– Pavel Ivanovich, – dedi Lozovskiy jahl bilan shivirlab.

– Xo‘sh? – javob berdi Kokosov baland ovozda.

– Pavel Ivanovich, – dedi Lozovskiy yanada sekin, endi jahl ohangi yo‘q edi.

– Xo‘sh? – takrorladi Kokosov baland ovozda va qat‘iy buyurdi.

– Operatsiyani davom ettiring!

Ikkala professor qaddini ko‘tarib, bir-biriga qarashdi, birining ko‘zi sochlari orasidan otilib chiqib turardi. Lozovskiy bir muddat xuddi zarbadan qochayotganda chora topgan odamdek Kokosovdan uzoqlashdi, ko‘zlari ikkiga ajralib, adashib qolgandek bo‘ldi, – so‘ng ular yana birlashib, o‘tkir nigohga aylandi, – Lozovskiy shivirladi:

– Pavel Ivanovich!

Va qo‘lini chandiq ustiga qo‘ydi: u yarani tikish o‘rni-

ga shilliq pardani ko'klab, terini tortib siqib, yuqori qavatini to'rlab qo'yimoqda edi. U qichqirdi:

– Qo'lini bo'shating, sun'iy nafas!

Operatsiya xonasidagi katta oyna ochiq, xonaga birinchi qor sovug'i yopirilib kirar edi. Bemorga kamfara purkaldi. Kokosov xloroformator bilan birga Gavrilovning qo'lini yechdi va yuqoriga ko'tarib, sun'iy nafas oldirishga urina boshladi. Lozovski yarani to'rlayotib yana baqirdi:

– Fiziologik eritma!

Va asistent ayol o'layotgan odamning qon bosimini ko'tarish maqsadida papiros yo'g'onligidek keladigan ikkita ignani bemor ko'kragiga sanchib, tomirga ming kubik eritilgan tuz yubordi. Bemorning yuzida hayot asari yo'q, lablari ko'karib, binafsharang tusga kirgan edi.

Keyin Gavrilovni stoldan ko'tarib, g'ildirakli aravachaga yotqizishdi va palatasiga olib kirishdi. Yuragi hamon urib turar, nafas olardi, ammo u hushiga kelmadi, balki, oxirgi daqiqagacha, kamfara yuborilgan va sun'iy eritma bilan tuzlangan yuragi so'nggi marta urgunga qadar u o'ziga kelmasa kerak, o'ttiz yetti soatdan keyin – kamfara va vrachlarsiz qoldirib ketilgandan keyin u o'ldi: so'nggi daqiqalargacha oldiga ikki professor va bir hamshiradan boshqa hech kim kiritilmadi, ammo qo'mondon Gavrilovning o'lganligi rasman e'lon qilinishidan bir soat oldin yondosh palatadagi tasodifiy qo'shni bu palatada g'alati tovushni eshitdi: u xuddi turmadagi mahbuslar devorni taqillatishiga o'xshar edi. U yoqda, palatada tiriklay o'ldirilgan, kamfara bilan to'yintirilgan mashhur odam yotar edi, tibbiyotda g'alati bir qoida bor, bemorning jarrohlik stolida, pichoq ostida o'lishiga yo'l qo'yilmaydi, palatani professorlar qattiq qo'riqlayotganiga yana bir sabab – bu yerda qo'mondon, fuqarolar urushining, buyuk rus inqilo-

bining qahramoni, nomi afsonalarga aylanib ketgan, o'ziga o'xshagan odamlarni o'linga yuborish uchun cheksiz kuch-qudratga va cheksiz huquqqa ega bo'lgan inson o'lib yotar edi.

Operatsiya soat sakkizdan o'ttiz daqiqa o'tganda boshlangan bo'lsa, Gavrovni g'ildirakli stolda jarrohlik xonasidan olib chiqishganda soat o'n birdan o'n bir daqiqa o'tgan edi. Yo'lakda qorovul professor Lozovskiyni yo'qlab birinchi raqamli uydan ikki marta qo'ng'iroq qilishganini ma'lum qildi va ko'p o'tmay yana qaytib kelib, uni telefonda kutishayotganini aytdi. Lozovskiy telefon oldiga bordi, u birinchi raqamli uy bilan gaplashaman deb o'ylagan edi. Telefonda esa: „Azizim, men seni orziqib kutyapman“, – degan tovush eshitildi. Bir daqiqa ichida Lozovskiyning tishlari g'ijirlab ketdi, chamas, qattiq so'kib yuborishga chog'landi, ammo hech narsa demasdan trubkani otib yubordi. Professor telefonli xonaga yana qaytib kirdi, oyna yoniga borib, birinchi qor manzarasiga tikildi, barmoqlarini tishlab, go'shakni ko'tarib, o'ttiz-qirqta tarmog'i bor telefon tizimiga bog'landi va go'shakka ta'zim qilib operatsiya muvaffaqiyatli o'tganini, ammo bemor juda holdan toyganini, ular, vrachlar ahvoli og'ir deb hisoblashayotganini aytdi, hozir borolmasligi uchun uzr so'radi. Yuqorida, jarrohlik xonasi bilan bemor palatasi oralig'idagi yo'lak, ertalab odamlar shivirlashib yugurib yurgan joy hozir bo'shab qolgan, hech kim ko'rinmas edi.

Gavrilov o'ldi, professor Lozovskiy palatadan oq qog'oz ko'tarib chiqdi, boshini egib, bemor, armiya qo'mondoni, fuqaro Nikolay Ivanovich Gavrilov, ming afsuski, soat birdan o'n yetti daqiqa o'tganda hayotdan ko'z yumdi, deb qayg'uli va tantanali ravishda ma'lum qildi.

Oradan uch soat-u chorak minut o'tganda, ya'ni tungi

soat ikki bo‘lganda kasalxona hovlisiga qizil askarlar rotasi kirib kelib, barcha yo‘llar va zinalarni qo‘riqlay boshladilar. Qo‘mondon jasad yotgan palataga bizga tanish markaziy shtab xodimlari – qo‘mondonni vokzalda kutib olgan uch harbiy kirib keldi, ular uchun Gavrilov armiya deb ataluvchi ulkan mashinaning asosiy yetakchisi, ularning hayotiga qo‘mondonlik qiluvchi rahnamo edi; endi ular qo‘mondonning jasadiga komandirlik qilish uchun kelgan edilar. Bu paytda qishloqlarda xo‘rozlar qichqira boshlagandi, osmonda bulutlar sudralar, ularning izidan toliqib qolgan to‘lin oy shoshilib borardi. Bu paytda usti yopiq „Roys“da Lozovskiy shitob bilan birinchi raqamli uyga ketmoqda edi; „Roys“ burgut rasmi solingan darvozadan ichkariga kirdi, soqchilar yonidan o‘tib, uy oldida to‘xtadi; soqchi darchani ochdi; Lozovskiy qizil movut qoplangan stol ustida uchta telefon turadigan, yozuv stoli orqasidagi devorda qo‘ng‘iroq tugmachalari askarlardek saf tortgan tanish xonaga kirdi. Xonada Lozovskiy bilan bo‘lib o‘tgan suhbat bizga qorong‘i, ammo u uch daqiqagina davom etdi; Lozovskiy xonadan dahlizga, dahlizdan hovliga qanday chiqqanini bilmay qoldi, palto bilan shlapasini ko‘tarib olgan bu odam Gofman qahramonlarini eslatardi; avtomobil joyida yo‘q edi; Lozovskiy mast odamdek chayqalib borar; bu sokin tunda ko‘chalar kimsasiz edi, ko‘chalar ham Lozovskiy bilan birga chayqalib borardi.

Oy nur sochib turgan kimsasiz tunda ko‘chalar Lozovskiy bilan birga chayqalardi. Gofmanga aylangan Lozovskiy birinchi raqamli uydagi chiqdi. Birinchi raqamli uydagi xonada egilmaydigan odam qoldi. U stol orqasida mushtini stolga tiragancha tik turar, boshi egilgan edi.

Uzoq vaqt harakatsiz turdi. Bu odam qog‘ozlari va formulalaridan ajralib qolgandi. Nihoyat, u qo‘zg‘aldi.

Chaqqon harakatlar bilan orqadagi tugmani bosdi, telefon trubkasini ko'tardi. Navbatchiga: „Poygachi, ochiq“, – deb buyurdi. Telefonda uchlikdagi sheriklaridan biri bilan – chamasi, u uxlab qolgandi – gaplashdi, ovozi juda zaif chiqdi: „Andrey, azizim, odam hayotdan ketdi, – Kolya Gavrilov o'ldi, jangovar do'stimiz endi yo'q. Potapga qo'ng'iroq qil, azizim, biz aybdormiz, men bilan Potap“.

Egilmaydigan odam shofyorga buyurdi: „Kasalxonaga“.

Ko'chalar chayqalmasdi. Oy bulutlar orasidan shoshilib, tipirchilab kezardi, avtomobillar kesilgan novdaga o'xshab yer bag'irlab sudralardi. Kasalxona binosining notinch oynalari qora zulmat qo'ynida xira yaltirardi. Qora yo'laklarga soqchilar qo'yilgan. Uy sukunatga cho'mgan, o'lim bor joyda sukunatga cho'kmay bo'ladimi? Egilmaydigan odam – qora yo'lak bo'ylab qo'mondon Gavrilovning palatasiga kirib bordi. Odam kirib borgan palatada, karavotda qo'mondon Gavrilovning jasadi yotar, nafasni bo'g'adigan darajada kamfara hidi anqir edi. Hamma palatadan chiqib ketdi, palatada egilmaydigan odam va Gavrilovning jasadi qoldi. Odam jasadning oyoq tomonida karavotga o'tirdi. Gavrilovning qo'llari choyshab ustida tanasi bo'ylab cho'zilib turardi. Odam jasadning yonida bukilib sukutga botib uzoq o'tirdi. Palata sokin edi. Odam Gavrilovning qo'lini oldi, uni siqib:

– Alvido, o'rtoq! Alvido, birodarim! – dedi va boshini egib, hech kimga qaramay palatadan chiqdi, „Fortochkani ochib qo'y maysizlarmi, nafas olib bo'lmaydi“, – dedi va qora yo'lak bo'ylab tez yurib zinadan pastga tushdi.

Bu paytda qishloqlarda xo'rozlarning sahargi qichqirig'i boshlangan edi. Odam indamasdan mashinaga o'tirdi. Shofyor buyruqni kutib burilib qaradi. Odam jim edi.

Odam o'ziga keldi va buyurdi: „Shahar tashqarisiga! – Eng katta tezlikda!“

Mashina turgan joyidan shiddat bilan qo'zg'aldi, yelpig' ichday yoyilib, shu'la sochib, tor yo'lkalar, lavhalar, keng ko'chalarni orqada qoldirib katta tezlikda uchib ketdi. Havo shu zahotiy oq mashinaga o'zini urdi. Ko'chalar, uylar, chiroqlar harakatga tushdi, fonarlar chiroqlarini silkitgan holda shiddat bilan orqaga chopa boshladi. Mashina butun kuchi bilan shahar tashqarisiga intilar, go'yo o'z vujudidan chiqib ketgudek bo'lib pishqirar edi. Shahar atrofiga qatnaydigan tramvaylarning simlari, qo'ylar ma'rab, itlar vovullab chopgan qishloq kulbalari orqada qoldi, tekis yo'lda g'izillab ketayotgan g'ildiraklarning tovushi ham eshitilmaydigan bo'ldi. O'nqir-cho'nqirlardan o'tayotganda mashina ko'tarilib, havoda uchib ketayotgandek tuyilardi. Havo, shamol, vaqt, yer hushtak chalar, uvullar, ingrar, sakrar, uchar edi; hamma narsa hududsiz shiddat komida uchib ketayotgan shu pallada faqat bulutlar ortidagi oy va mashinada xotirjam o'tirgan odamgina harakatsiz, jim qotgan edi.

Bir necha kun oldin Gavrilov bilan Popov kelgan o'rmon chekkasiga yaqinlashganda odam „To'xta!“ deb buyruq berdi va mashina zamon, makon hamda shamolni o'z holiga qo'yib, yer va bulutlar ortidagi oyni quvishdan to'xtab, tezligini kamaytirdi. Odam bir necha kun oldin ayni shu yerga Gavrilov kelganini bilmas edi. Odam mashinadan tushdi va indamasdan, sekin yurib o'rmon ichiga kirib ketdi. O'rmonni qor bosgan, tepasida oy shoshilib borardi. Odamning yonida gaplashadigan hamroh yo'q edi. Odam o'rmonda uzoq vaqt qolib ketdi. Qaytib kelib mashinaga o'tirar ekan, buyurdi:

– Orqaga qaytamiz. Shoshilmay haydang.

Tong otganda mashina shaharga yetib keldi. Sharq tomondan qip-qizil sovuq quyosh ko'tarilmoqda edi. Pastlikda – binafsharang, ko'kimtir hamda sarg'ish tumanga o'ralgan shahar yotardi. Odam u tomonga sovuq nazar tashladi. Bu pallada osmondagi oy o'rnida ko'zga arang tashlanadigan, erib borayotgan kichik muz parchasi qolgan edi. Qor bosgan jimlikda shahar shovqin-suroni eshiltilmasdi.

## SO'NGGI BOB

Kechqurun, qo'mondon Gavrilov dafn etilgan, harbiy orkestrning mis karnaylari yangrab, motam bayroqlari egilgan, marosimga kelgan minglab ta'ziyachilar qurshovida sovib bo'lgan inson jasadini sovuq yer qa'riga topshirib qaytishgandan keyin – Popov o'z xonasida mizg'ib qoldi va allamahalda uyg'ondi, soat necha bo'lganini bilib bo'lmasdi. Xona qorong'i va jimjit edi, Natasha yig'lardi. Popov qizi ustiga engashib uni ko'tarib oldi va xona bo'ylab kezib yurdi. Oyna orqasida yugurishdan charchagan oppoq oy ko'rinib turardi. Popov deraza oldiga kelib, sokin tun qo'ynida yiltirayotgan qorga tikildi. Natasha Popovning qo'lidan chiqib, deraza tokchasiga o'tdi. Popov cho'ntagiga Gavrilov kasalxonaga yotishdan oldin kechasi yozgan so'nggi maktubni solib qo'ygan edi. Maktubda shunday yozilgandi:

*„Alyosha, birodarim! Men o'lishimni sezib turibman. Sen meni kechir, yosh bola emassan-ku. Qizingni tebratib o'tirib, shunday fikrga keldim. Xotinim ham qarib qoldi, sen uni yigirma yildan beri bilasan. Unga yozib yubordim. Sen ham yoz. Birga yashanglar, turmush qursanglar ham mayli. Bolalarni o'stiranglar! Kechir, Alyosha“.*

Natasha deraza tokchasida turardi, Popov birdan ko'rib qoldi: u lunjini shishirib, lablarini naycha qilar, oyga qarab, uni mo'ljalga olar va puflar edi.

– Nima qilyapsan, Natasha? – so'radi ota.

– Oyni so'ndiryapman, – javob berdi Natasha. Savdogar xotindek to'lishgan, toliqqan oy bulutlar orasidan suzib borardi.



Ayni shu paytda shahar mashinalari uygʻonib, zavod gudoklari chinqira boshladi. Gudoklar – bitta, ikkita, uchta, – koʻplab gudoklarning chinqirigʻi ohista, ammo uzoq yangrab turdi va kulrang shahar shovqiniga singib ketdi. Bu gudoklar bilan birga oy muzlatib qoʻygan shaharning qalbi nola chekayotganini hamma bilib turar edi.

---

## MOT QILDI

Agafya Juravlevanikiga o'g'li Konstantin Ivanovich keldi. Xotini va qizi bilan onasidan xabar olib, hordiq chiqarib ketishmoqchi.

Novoye qishlog'i uncha uzoq bo'lmasa-da, Konstantin Ivanovich taksida keldi, buning ustiga butun oila a'zolari mashina yukxonasidan ancha chamadon tashidilar. Darhol butun qishloqqa: Agafyanikiga oilasi bilan o'rtancha o'g'li Kostya kelibdi, u badavlat, olim degan gap yoyildi.

Kechga borib hammasini batafsil bilib olishdi: u fan nomzodi, xotini ham, qizi esa o'quvchi ekan. Agafyaga elektr samovar, guldor xalat va yog'och qoshiq olib keshibdi.

Qishloq chollari Gleb Kapustin eshigi oldida to'planishdi. Ular Glebni kutardilar.

Chollar nega Glebnikiga to'planishgani va uni kutishgani aniq bo'lishi uchun Gleb Kapustin haqida ma'lumot berish lozim.

Gleb Kapustin – do'rdoq labli, mallamo'y, ancha bilimdon, pismiqli chol. Novaya qishlog'i u qadar yirik bo'lmasa-da, bu yerdan ko'pgina taniqli kishilar chiqqan: bitta polkovnik, ikkita uchuvchi, shifokor, muxbir... Mana endi Juravlev – nomzod. Taniqli kishilar aylanib, hordiq chiqarib ketgani qishloqqa kelishganda ularning oldiga hamqishloqlari yig'ilib, qiziqarli hikoyalardan eshitardilar.

Agar qishloqdoshlari so‘rab qolishsa, ular o‘zlari haqida so‘zlab berishardi. Gleb Kapustin bir gal obro‘li mehmonni mot qilib qo‘ygan edi. Bundan ko‘pchilik norozi bo‘lgan, ayrimlar esa, xususan, chollar Gleb Kapustin mashhur mehmonni mot qilishini intiqib kutgan edilar.

Glebni kutishga toqatlari bo‘lmay, uning huzuriga borishdi, so‘ngra birgalikda mehmonning oldiga ketishdi. Xuddi spektaklga borishayotgandek ko‘rinadi. Gleb o‘tgan yili qishloqqa kelgan bashang kiyimli, qaddi raso polkovnikni gangitib qo‘ygan edi. 1812-yil urushi haqida suhbatlashgandilar... Moskvaga kim o‘t qo‘yganini polkovnik bilmasligi o‘shanda oshkor bo‘ldi. Aslida, qanaqadir graf ekanligini biladi, ammo familiyasini yanglishtirdi, Rasputin dedi. Gleb Kapustin kalxatdek davolanib, polkovnik ustidan kinoyali kuldi... Va qayirib tashladi. O‘shanda hamma hayajonlanib ketdi, polkovnik so‘kinib qo‘ydi... O‘t qo‘ygan grafning familiyasini aniqlash uchun muallimaning uyiga chopdilar. Gleb Kapustin qizarib ketgan, hal qiluvchi daqiqalarni betoqatlik bilan kutib o‘tirar va „Tinchlaning, tinchlaning, o‘rtoq polkovnik, axir biz Filida emasmiz-ku, to‘g‘rimi?“ deb takrorlardir. Gleb g‘olib bo‘lib chiqdi: polkovnik o‘zining boshiga mushtlay ketdi va esankirab qoldi. U juda ezildi. Shundan keyin Gleb uzoq vaqtgacha qishloq ahlining og‘zidan tushmadi, uning „Tinchlaning, tinchlaning, o‘rtoq polkovnik, axir biz Filida emasmiz-ku?“ deb takrorlashini eslab yurdilar. Juda hayron qolishdi Glebga. Keksalar nima uchun bunday deganini qiziqsinib so‘rashdi.

Gleb miyig‘ida kuldi, so‘ngra o‘jar ko‘zlarini donishmandlarcha qisib qo‘ydi. Qishloqdan chiqqan hamma mashhur kishilarning onasi Glebni xush ko‘rmaydilar. Xavfsirab turishadi undan.

Mana endi nomzod Juravlev keldi...

Gleb ishdan (u yog‘och kesadigan joyda ishlardi) kelib yuvindi, kiyimini almashtirdi... Ovqatlanmadi. Eshik tagida turgan chollarning oldiga chiqdi.

Chekishdi... Biroz u-bu narsa haqida gaplashdilar, ammo Juravlev to‘g‘risida atay gap ochmadilar. Gleb Agafya Juravlevaning yog‘och uyi tomonga bir-ikki qarab qo‘ydi.

– Agafya kampirnikiga mehmon keptimi? – deb so‘radi.

– Fan nomzodlari!

– Nomzodlar? – hayratlandi Gleb. – O-o!.. Ehtiyot bo‘lib gaplashish kerak. Ularga bas kelish jo‘n ish emas.

Chollar kulishdi: lekin kimdir bas kelolmaydi desa, kimdir bas kelishi ham mumkin derdi. Ular sabrsizlik bilan Glebga qarashdi.

– Qani, ketdik, ko‘raylik-chi fan nomzodlarini, – dedi kamtarlik bilan Gleb.

Yo‘lga tushdilar.

Gleb biroz ilgariroqda, qolganlar bamaylixotir, qo‘llarini cho‘ntagiga solganicha, hozir ikkita nomzod o‘tirgan Agafya kampirning yog‘och uyidan ko‘z uzmay borishardi. Chollar go‘yo Glebni oldilariga solib borayotgandek ko‘rinardi. Xatarli yo‘lda qandaydir bezori, uchar yigit paydo bo‘lgani sezilsa, tajribali polvonni mana shunday boshlab borishadi.

Yo‘lda ko‘p gaplashmadilar.

– Qaysi sohadan fan nomzodi ekan? – so‘radi Gleb.

– Qanaqa, mutaxassislik bo‘yichami? Kim biladi deysan. Nomzodlar, deb menga xotinim aytdi. Eriyam, xotiniam nomzod emish...

– Texnika fanlari nomzodlari bor, umumiy ta‘lim bo‘yicha bor, ular, asosan, trepalogiya bilan shug‘ullanishadi, – uqtirdi Gleb.

– Kostya, umuman, matematikani yaxshi bilardi, – Kostya bilan bir maktabda o‘qiganlardan kimdir esladi. – A’lochi edi.

Gleb Kapustin asli qo‘shni qishloqdan edi, shu sabab bu yerlik mashhur kishilarni yaxshi tanimasdi.

– Ko‘ramiz, ko‘ramiz, – mujmal gapirdi Gleb. – Hozir nomzodlar bemaza qovunning urug‘iday ko‘payib ketgan.

– Taksida kelishibdi...

– Axir obro‘yini saqlashi kerak-da! – jilmaydi Gleb.

Nomzod Konstantin Ivanovich mehmonlarni quvnoqlik bilan kutib oldi, stolni yasatishni buyurdi... Mehmonlar Agafya kampir stolga noz-ne‘matlar qo‘yguncha odob yuzasidan kutib turishdi, nomzod bilan suhbatlashdilar, bolalikda birga o‘tkazgan damlarini eslashdi...

– Eh, bolalik, bolalik! – dedi fan nomzodi. – Qani, stolga marhamat, do‘stlar.

Hamma stol atrofiga o‘tirdi. Gleb Kapustin ham cho‘kdi. Ammo sakrashga hozirlik ko‘rayotgan sportchidek yengil o‘tirgani sezilib turardi. U kulimsirab o‘tirar, bolalik haqidagi gaplarni ma’qullar, ko‘zlari esa nomzodni kuzatardi.

Suhbat g‘oyat do‘stona davom etdi. Ular go‘yo Gleb Kapustinni unutishgan edi. Shu tobda u nomzodga dabdurustdan gap tashladi.

– Qaysi sohada o‘zingizni ko‘rsatyapsiz? – so‘radi u.

– Qayerda ishlaysan deyapsizmi? – tushunmadi nomzod.

– Ha.

– Filfakda.

– Falsafada?

– Unchalikmas... Umuman, shunaqa desa ham bo‘lavradi.

– Zarur narsa. – Glebga keragi ham xuddi shu falsafa edi. U jonlanib ketdi. – Xo‘sh, birlamchilik masalasi qanday?

– Qanaqa birlamchilik? – yana tushunmadi nomzod. Glebga diqqat bilan razm soldi. Boshqalar ham Glebga qarashdi.

– Materiya va ongning birlamchiligini aytyapman. – Gleb gap tashlab qo‘ydi.

Bu gapning qanday davom etishini u hushyorlik bilan kuzatib turardi. Nomzod uni ilib ketdi.

– Har doimgiday, – dedi u tabassum bilan. – Materiya birlamchi...

– Ong-chi?

– Ong esa keyin. Nimaydi?

– Bu minimumga kiradimi? – Gleb ham jilmaydi. – Siz kechiring-u, biz bu yerda... ijtimoiy markazdan uzoqdamiz, gaplashgimiz keladi, lekin istagan paytda oldiga chopib boradigan bilimdon kishi yo‘q-da. Hozir falsafa vaznsizlik tushunchasini qanday aniqlayapti?

– Hamishagiday aniqlayapti. Nega enda hozirni so‘raysiz?

– Uning ko‘rinishi yaqinda ochildi-ku. – Gleb nomzodning ko‘ziga tik qarab kuldi. – Shuning uchun so‘rayapman-da. Naturfalsafa, aytaylik, buni shunday hal qiladi, strategik falsafa – mutlaqo boshqacha...

– Umuman, strategik falsafaning o‘zi yo‘q! – hayajonlanib ketdi nomzod. – Siz, umuman, nima to‘g‘risida so‘rayapsiz?

– To‘g‘ri, lekin tabiat dialektikasi bor, – bamaylixotir, hammaga eshittirib davom etdi Gleb. – Tabiatni esa falsafa aniqlaydi. Tabiat unsurlaridan biri timsolida vaznsizlik aniq bo‘ldi yaqinda. Shuning uchun so‘rayapman:

o'zini yo'qotish hollari faylasuflar orasida ham uchrab turadimi?

Nomzod miriqib kuldi. Ammo bir kuldi-yu... O'zida ojizlik sezdi. Xotinini chaqirdi:

– Valya, bu yoqqa kel, bu yerda... g'alati suhbat bo'lyapti.

Valya stolga yaqin keldi, ammo nomzod Konstantin Ivanovich hali ham ojizlik, o'ng'aysizlik sezardi, chunki chollar bu savolga qanday javob berarkan, deb unga termilib turishardi.

– Keling, yaxshisi, – jiddiy ohangda gapirdi nomzod, – nima haqda gaplashishimizni kelishib olaylik.

– Yaxshi. Ikkinchi savol: Shifolning ayrim tumanlaridagi shamanlik muammosiga shaxsan siz qanday munosabatdasiz?

Nomzodlar kulib yuborishdi. Gleb Kapustin ham jilmaydi. Nomzodlarning kulib bo'lishini esa sabr bilan kutdi.

– Bunaqa muammo yo'q deb turib olish mumkin, albatta. Men ham jonim bilan sizlarga qo'shilib kulaman... – Gleb yana oliyjanoblik, samimiylilik bilan kuldi. Ayniqsa, nomzodning xotiniga qarab kuldi, darvoqe, u ham nomzod. – Biroq bu bilan mazkur muammo yo'qolib qolmaydi-ku. To'g'rimi?

– Siz bularni jiddiy so'rayapsizmi? – so'radi Valya.

– Sizning ruxsatingiz bilan. – Gleb Kapustin o'rmi-dan sal turdi va o'zini jiddiy tutgan holda nomzod xotingga ta'zim qildi. U qizarib ketdi. – Savol, albatta, u qadar muhim emas, ammo bizning uquvimiz nuqtayi nazari bo'yicha uni bilish qiziqarli.

– Qanaqa savol o'zi?! – hayqirdi nomzod.

– Shamanlik muammosiga sening munosabating. –

Valya yana beixtiyor kulib yubordi. Ammo birdan tushunib qoldi-yu, Glebga dedi: – Kechiring, iltimos.

– Hechqisi yo‘q, – dedi Gleb. – Tushunaman, ehtimol, men boshqa mutaxassislik bo‘yicha savol bergandirman...

– Bunaqa muammo yo‘q axir, – yana qichqirib yubordi nomzod. U bekor bunday qildi. Bunaqa qichqirish yaxshi emas.

Endi Gleb beixtiyor kulib yubordi. So‘ngra dedi:

– Albatta, yo‘qqa yo‘q-da!

Chollar nomzodga nazar solishdi.

– Muammo yo‘q, bular-chi... – Gleb qo‘li bilan g‘alati, tushunib bo‘lmaydigan qilib nimalarnidir ko‘rsatdi, – raqs-ga tushyapti, shiqildoqchalardek ovoz chiqaryapti... Shundaymi? Ammo istasam... – Gleb qaytardi: – Is-ta-sam – ular go‘yo yo‘qdek. To‘g‘rimi? Chunki agar... Yaxshi! Yana bitta savol: siz nima deysiz, Oy ham aql-idrokli qo‘lning ishimi?

Nomzod miq etmay Glebga termilib turardi. Gleb davom etdi:

– Olimlarning faraz qilishicha, Oy sun‘iy orbita ustida turarmish, uning ichida aqlli mavjudot yashaydi, degan taxminlar ham bor...

– Xo‘sh? – so‘radi nomzod. – Nima bo‘pti?

– Tabiiy trayektoriya bo‘yicha sizning qarashingiz qanday? Umuman, barcha kosmik fanlar qayerga sarf qilinishi mumkin?

Chollar diqqat bilan Glebni tinglashardi.

– Insoniyat kosmos bo‘yicha bizning eng yaqin qo‘sh-nimiz – Oyga tez-tez borib turadi, deb faraz qilaylik. Xuddi shunday, aytish mumkinki, ajoyib kunlarning birida u yerdagi aqlli mavjudot chidab turolmay bizga peshvoz



chiqadi. Shunda bir-birimizning gapimizga tushuna olamizmi? Bunga tayyormizmi?

– Kimdan so‘rayapsiz?

– Sizlardan, donishmandlardan...

– Siz-chi, tayyormisiz?

– Bizlar bilimdon emasmiz, maoshimiz ham u qadar emas. Bordi-yu sizlar uchun bu qiziqarli bo‘lsa, biz, qishloqilar qaysi yo‘nalish bo‘yicha o‘ylashimizni aytib berishimiz mumkin. Aytaylik, Oyning ustki qatlamidan aqlli mavjudot chiqib keldi... Nima qilishni buyurasiz? It bo‘lib hurishnimi? Xo‘roz bo‘lib qichqirishnimi?

Chollar kulib yubordilar. O‘zaro pichirlashdilar. Keyin yana diqqat bilan Glebga tikildilar.

– Biroq shunga qaramay biz bir-birimizni tushunishimiz kerak. To‘g‘rimi? Nima dedingiz? – Gleb javob kutgandek jim qoldi. O‘tirganlarga bir-bir razm soldi.

– Masalan, men qumda quyosh sistemamizning sxemasini chizish va unga mening yerdan ekanligimni ko‘rsatishni taklif qilaman. Skafandrda bo‘lishimga qaramay, menda ham bosh bor, men ham aqlli mavjudotman. Buni tasdiqlash uchun sxemada u qayerdan ekanligini ko‘rsatish mumkin: Oyni ko‘rsatish kerak, so‘ngra uni. Mantiq bormi? Shunday qilib, aniq bo‘ladiki, biz qo‘shnilarmiz. Bundan boshqacha bo‘lishi mumkin emas! Undan keyin men hozirgi bosqichdagi holatga yetgunimga qadar qanaqa yo‘l bilan rivojlanganimni, o‘sganimni tushuntirib berish talab qilinadi...

– Xo‘sh, xo‘sh? – Nomzod joyida qimirlab qo‘ydi va xotiniga ma‘noli qaradi. – Judayam qiziq-ku: qanaqa yo‘l bilan?

Uning bu harakati ham behuda edi, chunki uning ma‘noli boqishi to‘sib qo‘yilgandi. Gleb yuksakka par-

voz qilgan edi... O'sha yerdan, o'sha balandlikdan turib nomzodga zarba bergandi. Qishloqning mashhur kishilari bilan bo'lgan har bir suhbatda shunday holat – Glebning yuqoriga ko'tarilishi sodir bo'lardi. U, ehtimol, mana shu quvonchli holatni kutgandir, chunki bu yog'i o'z-o'zidan, xamirdan qil sug'urganday davom etaveradi.

– Birga kulishgani xotiningizni ham chaqirmaysizmi? – so'radi Gleb. U xotirjam gapirdi, ammo uning ichi, balki, titrab ketgandir. – Yaxshi ish... Faqat, avvalo, biz loaqal gazeta o'qishni o'rganishimiz mumkin bo'lar? A? Nima dedingiz? Nomzodlar uchun bu ham ortiqcha emas deyishadi...

– Eshitsangiz-chi!..

– Biz eshitib bo'ldik! Qanoat hosil qildik, desak ham bo'laveradi. Shuning uchun janob fan nomzodi, sizga tanbeh berishimga ruxsat eting: nomzodlik – bir marta sotib olinadigan kiyim emas. Biroq hatto kiyim ham vaqti-vaqtida tozalab turiladi. Nomzodlik esa kelishganimiz bo'yicha kiyim emas, shunday bo'lgach, saqlash, himoya qilish kerak. – Gleb ohista, ammo shiddat bilan, nafas olmay gapirardi. Nomzod unga qaray olmas, yuzi chidamasdi: u o'zini yo'qotib qo'ygandi, goh xotiniga, goh Glebga, goh chollarga termilardi... Chollar esa unga qaramaslikka harakat qilardi. – Uyga taksida kelish, mashina yukxonasidan beshtalab chamadon tushirish bilan bizlarni hayratda qoldirish mumkin... Ammo siz unutmangki, informatsiya oqimi hozir hamma joyga bir xilda yetib bormoqda. Men shuni aytmogchimanki, bu yerda aks holat hayron qoldirishi mumkin. Shunaqasi ham bo'ladi. Imonim komilki, bu yerni nomzodlar o'z ko'zlari bilan ko'rmaganlar, ularni – nomzodlarni, professorlarni, polkovniklarni esa bu yerliklar ko'rishgan. Ular haqida yaxshi taassurot qoldirishgan

ko'ngillarida, chunki bu yerning odamlari juda ham sodda. Mana, sizga mening maslahatim, o'rtoq fan nomzodi: tez-tez yerga tushib turing. Xudo haqqi, hamma aqlli narsaning boshlanishi zamindan. U qadar xatarli ham emas: yiqilsangiz ham qattiq botmaydi.

– Buni aravani quruq opqochish deyiladi, – dedi nomzod. – Nima balo, zanjirni uzib qochganmisan? Nima gap o'zi axir...

– Bilmayman, bilmayman, – shoshilinch uning gapini bo'ldi Gleb, – bilmayman bu nima deb atalishini. Men qamoqda bo'lmaganman, zanjirdan chiqib qochganim ham yo'q. Nima kerak bunaqa gaplar? Bu yerdagilarning bi-rontasi ham, – Gleb chollarga yuzlandi, – o'tirib chiqmagan – tushunmaydi. Sizning xotiningiz esa ko'zini g'alati qildi... U yoqda qizingiz eʼshityapti. Eshitadi va Moskvada kimgadir „bochka g'ildiratadi“. Bu, ehtimol, jargondir... lekin oxiri yaxshi bo'lmaydi, o'rtoq nomzod. Hamma vositalar ham yaxshi emas, sizni ishontirib aytaman, vositalarning hammasi ham ma'qul bo'lavermaydi. Siz, o'zingiz nomzodlik minimumini topshirganingizda professor uchun „bochka g'ildiratmagansiz-ku“. To'g'rimi? – Gleb o'rnidan turdi. – „O'z ustingizga ko'rpa ham yopolmagansiz“. Chunki professorlarni hurmat qilish kerak – taqdiringiz ularning qo'lida, bizlarning qo'limizdan hech narsa kelmaydi. Shundaymi? Bekor gap... Bu yerda biz ham ozgina... „donishmandlashyapmiz“. Gazetalar ham o'qiymiz, gohida kitoblar titkilab qolamiz... Hatto televizor ham ko'ramiz. Tasavvur qilishingiz mumkinki, biz „KVN“dan, „O'n uch stul“ qahvaxonasidan qattiq hayajonga tushmaymiz. Nima uchun deb so'raysizmi? Chunki u yerda faqat o'ziga ishonish, mag'rurlanish bor. To'g'ri, hamma narsani gapirishi, hal qilishi mumkin. Buning uchun hech nar-

sa deyoilmaysan, albatta. Biroq u yerdagilarning hammasi daho degan tasavvur bermaslik kerak-da. Kimdir tushunadi... Kamtarroq bo'lmoq lozim.

– G'irt safsataboz, tuhmatchi, – dedi nomzod xotiniga qarab. – Barcha ig'vogarlikni o'ziga...

– Topolmadingiz. Butun umrim davomida birovning ustidan bironta – na g'iybat, na anonim xat yozganman. – Gleb chollarga qaradi: ular Glebning bu gapi to'g'ri ekanini bilishardi. – Yanglishdingiz, o'rtoq fan nomzodi. Nimaga jon kuydirayotganimni tushuntirib berishimni istaysizmi?

– Marhamat, tushuntiring.

– Burunga chertib qo'yishni yaxshi ko'raman – dimog'ingizni ko'pam ko'tarib yubormang, me'yoridan oshib ketmasin. Kamtar bo'lish yaxshi, aziz do'stlar...

– Bizning nokamtarligimizni nimada ko'rdingiz? – Valya o'zini tutolmadi. – Qachon dimog'dorlik qildik?

– Yolg'iz qolganingizda yaxshilab bir o'ylab ko'ring. O'ylasangiz – tushunib yetasiz, anglab olasiz. – Gleb nomzodlarga qandaydir achingannamo qaradi. – „Asal“ so'zini yuz marta takrorlash mumkin, lekin bu bilan og'iz chuchimaydi-ku. Buni tushunish uchun nomzodlik minimumi topshirish shart emas. To'g'rimi? Har bir maqolada „xalq“ deb yuzlab marta yozish mumkin, biroq bu bilan maqolaga ilm qo'shilmaydi, boyimaydi. Shuning uchun mana shu haqiqiy xalq oldiga kelishdan oldin o'z'laringizni sal chog'lab olinglar. Tayyorlanib olasizlarmi? Bo'lmasa o'sal bo'lib qolish hech gapmas. Xayr. Ta'tilni yaxshi o'tkazinglar... xalq orasida. – Gleb kulimsirab qo'ydi va shoshilmay kulbadan chiqib ketdi. Mashhur kishilarning oldidan u har doim yolg'iz ketardi.

Nomzodlar huzuridan tarqalayotgan chollarning gaplarini u eshitmadi:

– Rosa bopladi uni!.. Bilimdon, yaramas. Oy haqida bunaqa narsalarni qayerdan biladi?

– Yomon ezdi.

– Qayoqdan bila qoldiykin!

Chollar hayrat va ajablanish bilan boshlarini irg‘ab qo‘yishdi.

– Bilimdon, shayton. Bechora Konstantin Ivanovichning rosa po‘stagini qoqdi... A? Xuddi yosh boladek savaladi-ya! Anavi bo‘lsa, Valya-chi, loaqal og‘zini ham ocholmadi-ya.

– Nima ham derding? Hech narsa deyoilmaysan. Kostya gapirmoqchi bo‘ldi, albatta... U bo‘lsa bitta so‘ziga beshta javob beradi.

– Nima ham qilarding... Bilimdon-da, hayvon!

Chollarning ovozida hatto fan nomzodlariga achinish, rahm-shafqat ohangi sezilardi. Gleb o‘sha Kapustin-da, oldingiday hammani hayron qoldirdi. Ajablantirdi. Qo‘yil qildi hatto. Loaqal andisha ham qilmadi bugun. Yo‘q, andisha yo‘q edi. Gleb – cho‘rtkesar, qahri qattiq. Bunday odamlarni hali hech kim, hech qayerda, hech qachon yaxshi ko‘rmagan.

Ertaga Gleb Kapustin ishga kelishi bilan (darvoqe, u talmovsiraydi, artistlik qiladi) chollardan so‘raydi:

– Xo‘sh, nomzodlarning ahvoli qalay?

O‘zicha kulib qo‘yadi.

– Uni sen qattiq ezding, mot qilding, – deyishadi Glebga.

– Hechqisi yo‘q, – ochiqko‘ngillik bilan ta‘kidlaydi Gleb. – Buning foydasi bor. Qo‘yaver, bekor qolganida bir o‘ylab ko‘rsin. Bo‘lmasa o‘ziga haddan ziyod bino qo‘yib yuboradi...

---

## VANKA TEPLYASHIN

Vanka Teplyashin o'n ikki barmoq ichak yarasi bilan qishloq kasalxonasiga yotdi. Shu holida yotganicha yotaverdi. Bu orada kasalxonaga tuman markazidan bir kishi keldi, shifokor Vankani kabinetiga chaqirdi, shaharlik kishi bilan Vankani aylantirib ko'rishdi, qornini ezib-bosishdi, yelkalariga urib-urib qo'yishdi... O'zlaricha bir nimalarni gaplashishdi. Keyin Vankaga yuzlanishdi:

– Shahar shifoxonasiga borasanmi?

– Nimaga? – tushunmadi Vanka.

– Yotgani-da. Bu yerda yotganingdek, o'sha yoqdayam oyoqni osmondan qilaverasan. Mana... Sergey Nikolayevich davolaydilar.

Vanka rozi bo'ldi.

Shahar shifoxonasiga durustgina joylashtirishdi. Vankani u yerda „xos bemor“ deb atay boshlashdi.

– Xos bemorimiz qani? – deb so'rardi hamshira.

– Qayerda bo'lardi, – deya javob qilishardi Vankaning palatadoshlari, – xalijoyda chekayotgan bo'lsa kerak-da.

– Yana chekyaptimi? Nima qilsa bo'ladi, a, bu xos bemorimizni...

Vankaga shahar shifoxonasida nimadir yoqmadi. Palatadoshlariga boshidan o'tgan savdolarni so'zlab beraverardi: o'tgan yili haydovchilik guvohnomasini olib qo'yish-

moqchi bo'lishganini-yu, bir safar mashinasida cho'kib ketishiga bir bahya qolganigacha...

– Oldinda muz tog' bo'lib do'mpayib qolgan... Eshikni ochib gazni bosdim. Shu mahal lop etib pastga sho'ng'ib ketsam bo'ladimi! – Vanka so'zlayotganda shoshib-pishar, qo'llarini sermar, jonhalak bo'lib bir joyda o'tirolmasdi. – Tog'dan tushayotganday sho'ng'idim o'ziyam! Suv shamolto'sar oynadan yuz-ko'zim demay savalay ketdi. Kattakon muz eshikka urilib, ochilmaydigan qilib qo'ydi. Pastga sho'ng'iyapman-u, qani endi eshikni ocholsam. O'zim allaqachon kabinada suzib yuribman. Bir evini qilib narigi eshikni ochdim, kabinadan chiqib aqqa-baqqa qaradim...

– Sen xuddi, nimaydi... hammomga tushib qoldingmi nima balo: „Chiqdim-u, aqqa-baqqa qaradim”mish. Kamroq alda odamni.

Karavotda o'tirgan Vankaning sodda ko'zlari chaqchayib ketdi.

– Men aldayapmanmi? – Birmuncha fursat bundan ortiq so'z topolmadi. – Topgan gapingni qara-yu. Qanaqasiga aldayman?

Rostdan ham Vankaning soxt-sumbatiga qarab turib uning yolg'onchi emasligiga ishonasan kishi. Eplagan aldaydi.

– Xo'sh, xo'sh? Davom et, Van. Pandavaqilarga e'tibor berma.

– Xullas, tepaga qaradim: ko'kish teshik ko'rindi, xud-di o'sha yerdan tushib ketgandim... o'sha yoqqa intildim.

– O'zi suv tagida qancha vaqt qolib ketding?

– Qayoqdan bilaman! Ko'p bo'lmasa kerak har holda, shunchaki hikoyam cho'zilib ketdi, xolos. Ustiga ustak, gapimni bo'lyapsizlar.

– Xo‘sh, xo‘sh, keyin-chi?

– Xullas, chiqdim... Chopqillab yordamga yetib kelishdi. Birinchi uchragan kulbaga olib kirishdi...

– Keyin darrov araq bilan-a?..

– Oldiniga odekolon bilan obdan ishqalashdi... Keyin bir hafta „qizil chinnigul“ning hidi ketmasa deng. Ana undan so‘ng araqqa yugurishdi.

...Vanka yuragi ziq bo‘la boshlaganini o‘zi ham payqamay qoldi. Deraza oldida soatlab turgancha, o‘zining qalbi-yu aqliga yot-begona ko‘channing hayotiga tikilib qolardi. Yashashlariram bir g‘alati: shovqinlaydi, baqiradimi-yey, bir-birini eshitmaydi-ya. Barchasi yurak qo‘ltiqlab olgan, lekin tepadan hamma odam bir ko‘ringani uchunmi, ular bir joyda yugurayotganga o‘xshaydi. Tez orada Vanka ko‘cha bo‘ylab nigoh sirpantirishga o‘rganib qoldi... Puf desang beli sinar bitta-yarimta satang bir qarich yubkada o‘tib qolganini aytmasa, hammasi bir xil. Vankaga sog‘inch indi. U o‘zini yakka-yolg‘iz seza boshladi.

Ammo-lekin bu shovqin-suron ko‘chada, pastda tuyqus onasini ko‘rib qolganda ajablanib quvonganini ko‘rsangiz edi... Ana, ko‘chani kesib o‘tyapti, alang-jalang boqadi – qo‘rqyapti. Eh, onajonim-a! Ona ko‘ngli bilan sezibdi-da.

– Onam kelyapti! – deya qichqirdi Vanka. Bu inson quvonchi shunchalar erkin va nogahoniy yangradiki, palatadagilar sharaqlab kulib yuborishdi.

– Qani, Vanya?

– Ho‘v, ana! Sumka ko‘tarib kelyapti! – Vanka deraza rafiga osilib, qichqirdi: – Oyi!

– Pastga tushib, kutib ol, – deyishdi Vankaga. – Yo‘qsa o‘tkazishmaydi, bugun qabul kuni emas.



– O‘tkazishadi. Qishloqdan kelganini aytsa... – deya fol ochishdi ba’zilar.

– Heh, „o‘tkazishadi”mish! Anavi ramaqijon qizamiqko‘z turgan bo‘lsa, o‘tkazmaydi.

Vanka pastga chopdi.

Onasi o‘sha ramaqi qizamiqko‘z oldida elanib turgan ekan. Qizamiqko‘z hatto eshitmasdi ham.

– Menga kelishdi! – uzoqdan so‘z qotdi Vanka. – Bu kishi mening onam.

– Chorshanba, shanba, yakshanba – qabul kunlari, – kakkuladi qizamiqko‘z quruqqina qilib.

Vankani ko‘rgan onaizor shodlanib ketdi, endi peshvoz yurmoqchi edi, qizamiqko‘z ushlab qoldi.

– Orqaga.

– Menga kelishdi dedim-ku! – tutaqdi Vanka. – Bu ni-ma qilganing?!

– Qabul kunlari – chorshanba, shanba, yakshanba, – deya yana kukuladi qorovul.

– Bilmabman-da, bolam, – yalinishga tushdi onaizor, – qishloqdan keldim... Bilmabman, bolam. O‘g‘lim bilan bi-ron yerda birpas o‘tirsam bo‘ldi...

Vanka onasining ovoqidagi mungni ilk bor eshitib tong qotdi... Onasining yalinib-yolborishlaridan hamiyati qo‘z-g‘aldi.

– Elanmang, oyi.

– Manavi o‘rtoqqa tushuntiryapman-da...

– Jim turing! – dedi Vanka. – O‘rtoq, – deya murojaat qildi qorovulga boadablik va viqor ila, lekin qorovul unga qayrilib ham qaramadi.

– O‘rtoq deypman! – tovushini balandlatdi Vanka. – Sizga aytyapman!

– Vankajon, – achchig‘i burnining uchida turadigan o‘g‘lini bilgan ona zorlandi.

Birovning dardiga qayishmaydigan qizamiqko‘z go‘yo yonida hech kim yo‘qday bir chetga baqraygancha turaverardi.

– Yuring, hov, anavi yerda o‘tiramiz, – dedi Vanka onasiga tishini tishiga bosib va qorovulning ortida ko‘rinib turgan o‘rindiqli ko‘rsatdi. Keyin bamaylixotir baqako‘zning yonidan o‘tib ketdi.

– Or-r-qaga, – amr qildi qizamiqko‘z irganib va Vankaning yengidan tortmoqchi bo‘ldi.

Vankaga shu narsa kerak edi. Qizamiqko‘z unga teginishi bilanoq, Vanka olako‘zning qo‘lini siltab tashladi-yu, onasiga mehribonlik qildi:

– Mana shu yerga, o‘rindiqla.

Vanka davomini ham kutayotgandi – hozir qizamiqko‘z orqadan kelib ushlaydi. Ushladi ham. Vankaning yo‘l-yo‘l pijamasi yoqasidan. Og‘ritib tortdi. Shu asnoda Vanka uning qo‘lini tutib olib shunday qayirdiki, qizamiqko‘zning og‘zi qiyshayib ketdi.

– Yana bir marta qo‘lingni yugurtirganingni ko‘rsam... – tilga kirdi Vanka salmoqdor so‘zlarni topolmay, – sen bilan... siz bilan jiddiy gaplashishimga to‘g‘ri keladi.

– Van, – yig‘lamsiradi onasi. – Xudoyim-ey, o‘z panohingda asra...

– O‘tiring, – amr-farmo qildi Vanka ovozini cho‘k-tirib. – Manov yerga o‘tiring. Xo‘sh, qishloqlar qalay?..

Qizamiqko‘z birmuncha muddat esankirab qoldi, keyin o‘ziga kelib baqirdi.

– Stigayeyev! Lizaveta Sergejevna!.. Bu yoqqa! Mushtumzo‘rlik qilishyapti! – degancha xuddi savdoyini tutib olmoqchi bo‘lgandek Vankaga qulochini yozib tashlandi. Ammo Vanka joyida qimirlamay o‘tiraverdi, faqat ko‘zlarini go‘laytirib pastdan qizamiqko‘zga tikildi. Shu-

gina nigoh qizamiqko'zni to'xtatdi. Taqqa to'xtab, tag'in baqirdi: – Stigayeyev!

Yon tomondagi xonadan qo'lida bo'ltanon bilan oq xalatli chorpahil Yevstigneyev yugurib chiqdi.

– A? – Anqovsiradi Yevstigneyev.

– Bu yoqqa, yonimga! – qichqirdi qizamiqko'z va qo'llarini yozib Vankaga jasadini tashladi.

Vanka uni qabul qilib oldi... Qorovul orqaga o'mballoq oshib tushdi. Shunda Yevstigneyev „mushtumzo'r"ni ko'rdi-yu, u ham tashlandi.

...Ular Vankani eplasholmadi... Garchi Yevstigneyevning bo'yni yo'g'on bo'lsa-da, ikkovlashib qancha chiranishmasin, Vanka qochmadi ham, tutqich bermadi ham. Stul va to'mbalar kamroq uchishi uchun o'zini ehtiyot qildi. Lekin baribir qorovulning to'mbasi uchdi, grafın chilchil sindi. Shovqin-suron ko'tarildi... Oq xalatlardan birdan ko'payib ketdi. Vankaning shifokori Sergey Nikolayevich chopib yetib keldi... Qizamiqko'z va Yevstigneyevni arang ovutishdi. Sergey Nikolayevich Vankani tepaga olib chiqib ketdi.

– Bunaqa emas-da endi, Ivan...

Vanka esa aksincha, o'zini xilla bosib olgandi. Tushundiki, hozir o'z uyiga jo'naydi. Hatto onasiga kutib turishini tayinladi.

– Nima jin urib anavi bilan pachakilashib yuribsan?

– Onamni ichkariga kiritmadi.

– Aytmaysanmi o'zimga, hammasini joyiga qo'yardim! Palatangga boraver, onaxonni o'zim olib kiraman.

– Kerakmas, hozir uyga ketamiz.

– Qanaqa uy? Nimalar deyapsan?

Lekin Vanka ikki oyog'ini bir etikka tiqib, „ketaman"ga tushib qoldi. Aslida, uyga ketmoqchi bo'lgani uchun

ham xotirjam tortgandi. Sergey Nikolayevich ko'ndirishga rosa urindi. Hatto:

– Onang menikida tura tursin. Uch kun. Qancha xohlasa! Uyimiz keng-kovul. Axir biz hali ishni oxiriga yetkazmadik. Tushunyapsanmi? Sen menga pand beryapsan. Anavi aqlinoqislarga ko'p ham e'tibor beraverma. Ha endi nima qilardik, bori shu-da. Onang esa seni ko'rgani kelib turadi... – deb manzirat ham qilib ko'rdi.

– Yo'q, – dedi Vanka. Onasi qizamiqko'zga mung bilan elangani ko'z oldidan ketmasdi uning. – Qiziq odam ekan-siz, yo'q dedimmi, yo'q.

– Lekin men senga ruxsat bermayman!

– Derazadan oshib tushaman... Tunko'ylakda qochaman.

– Be-ye, – ranjidi Sergey Nikolayevich. – Bekor qil-yapsanda shuni.

– Hechqisi yo'q, – Vankaning zavqi kelib ketdi. Faqat shu doktorning ranjigani chatoq bo'ldi-da. – O'zizga biron-ta yarasi bordan topib olavering... Ana, derazaning tagida bittasi yotibdi, malla, uniyam ichagida yarasi bor.

– Gap bunda emas-da, Ivan.

– Yo'q, – Vanka o'zini tobora yengil his etmoqda edi. – Mendan o'pkalanmang.

– Nimayam derdim... – Sergey Nikolayevichning batar ta'bi tirriq bo'ldi. – Bundoq holda seni ushlab turish ham befoyda. Balki, o'ylab ko'rarsan?.. Zora o'zingga kep qolsang...

– Yo'q. Gap bitta.

Vanka ul-bullarini yig'ishtirgani palatasiga chopdi. Palatada bir-biriga so'z bermay Vankani koyib ketishdi:

– Esini yegan!

– Shu yerda dardingga shifo topayotgan bo'lsang, Sergey Nikolayevich seni otday qilib uyingga jo'natardi.

O‘zining qarichi bilan o‘lchayotgan bu odamlar bilmasdiki, – tez orada onasi ikkisi avtobusga o‘tirishadi-da, qarabsizki bir-ikki soatda Vanka uyida choy ichib o‘tirgan bo‘ladi. Ular buni qayoqdan ham tushunsin!

– Qayoqdagi bir ahmoqni deb sog‘lig‘ingdan voz kechasanmi, o‘rgildim sendaqalardan!

– Odam bo‘lish kerak, – dedi Vanka adovat aralash tantavor ovozda. – Tushunarlimi?

– Tushunarli, tushunarli... Bekorga hovliqyapsan, bekorga...

– Yarimta so‘lkavoyini qistirmaysanmi o‘sha qizamiqko‘zga, olam guliston bo‘lardi.

Vanka hamma bilan shod-xurram xayrlashdi, salomatlik tiladi va yengil tortib pastga hakkalab tushdi.

Pastda o‘zining kiyimlarini olishi kerak edi. O‘lganing ustiga tepganday, kiyimni ham aynan Yevstigneyev berar ekan. Yevstigneyev Vankaga yovqarash qilmadi, aksincha, achingannamo so‘z qotdi:

– Haydashdimi? Qurib ketsin...

Kiyimlarni uzatayotib, sekin engashib, ta’na qildi:

– Anavinga elliktani uzatganingda, hech qanaqa vahima-pahima ko‘tarilmasdi. Eh yoshlar, yoshlar, nahot aqlingiz shunga kelganda kaltalik qilsa?

– Pora bilan og‘izga urish emas, odam bo‘lish kerak, – dedi yana Vanka viqor bilan. Biroq kuyadori hidi anqib turgan, hamma yoqni ilgak bosib ketgan yerto‘lada bu so‘zlar unchalik ham jaranglamadi; Yevstigneyev ham e’tibor berib o‘tirmadi.

– Manavi boshmoqlar senikimi?

– Meniki.

– Oxirigacha davolanmasdan ketyapsan ekan-da...

– Uyda davolanarman.

– „Uyda“mish! Tuzalib bo‘psan...

– Omon bo‘l, Ivan Petrov! – dedi Vanka.

– O‘zing sog‘ bo‘l. Vrachdan iltimos qilsang bo‘lar-di, zora qoldirsa. Yomon yondashib bekor qilding-da o‘zing.

Vanka Yevstigneyevga dardini dasturxon qilib o‘tirma-di, onasining qoshiga shoshdi, hoynahoy, boyaqish ko‘z-yosh qilib o‘tirgan bo‘lsa kerak.

Taxmini to‘g‘ri chiqdi: onasi o‘rindiqa ko‘zyoshla-rini sholro‘moliga artib o‘tirardi. Qizamiqko‘z bo‘lsa o‘zining to‘mbasi yonida yo‘lakka tikilgancha, qoqqan qoziqday turardi. Unga ko‘zi tushgan Vankaning yuragi dukurlab ketdi. Qadamini sekinlatdi – oxirida ichidagini to‘kib solmoqchi bo‘ldi. Lekin hadeganda uzib oladigan gap topolmadi.

– Omon bo‘l! – deya oldi xolos. – Kirdi-chiqdi.

Qizamiqko‘zning ko‘zlari pirpirab ketdi, biroq qayrilib qaramadi – qorovulligini davom ettiraverdi.

Vanka onasining sumkasini ko‘tardi. Ona-bola sal qol-sa saratonni ham davolaydigan, ko‘klarga ko‘tarib maqtaal-gan shahar shifoxonasini tark etishdi.

– Qo‘ying, yig‘lamang, – deb yupatdi onasini Vanka.

– Keting yer iskamaydi-ya sen bolani, – dedi ona di-lidagini tiliga chiqarib. – Ho‘ birda, texnikumdan ham...

– Ha, bo‘pti, bo‘pti... Texnikum-pexnikumi bilan qiri-lib ketsin! Sizga bir gapni aytib qo‘yay: haliginda anavi qi-zil zo‘ldirga yalinganingizday boshqa hech kimga poy-pa-tak bo‘lmang. Xo‘pmi?

– Birini aka, birini opa deb alqamay ko‘p narsaga eri-shib bo‘larkanmi?!

– Ha, endi... bunaqasi ketmaydi-da. Eshitgan quloq-qa – uyat axir.

– „Uyat“mish... Mana, hozir pensiyamga bir dunyo xat-hujjat yig‘ishim kerak, g‘o‘ddaygan bilan ish bitmaydi. So‘ramay ko‘r-chi, biring ikki bo‘larmikin?

– Xo‘p, xo‘p... – Har ne bo‘lganda ham onaning gapi – gap. – Uylar qalay, tinchmi?

– Bir navi. O‘zimizda davolanasanmi endi?

– Haligi... bilmasam, – deb javob qildi Vanka. – Allaqachon sog‘ayib qoldim.

Birmuncha fursatdan so‘ng ona-bola vokzalda avtobusga o‘tirib, uylariga ravona bo‘lishdi.

---

## MUNDARIJA

Nashriyotdan .....	3
<b>Ivan Franko. Feruza.</b>	
<i>Abdulhamid Cho'lpon tarjimasi</i> .....	5
<b>Boris Pilnyak. So'nmagan oy qissasi.</b>	
<i>Ortiqboy Abdullayev tarjimasi</i> .....	70
<b>Vasiliy Shukshin. Mot qildi.</b>	
<i>Mamatqul Hazratqulov tarjimasi</i> .....	119
<b>Vanka Teplyashin.</b>	
<i>Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i> .....	131



*Adabiy-badiiy nashr*

IVAN FRANKO

## **FERUZA**

*Qissa va hikoyalar*

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

**Tarjimonlar:**

**Abdulhamid CHO‘LPON va b.**

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo‘rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
21.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>.  
Ofset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 7,56. Adadi 5000. Shartnoma № 105–20.  
Buyurtma raqami 441-20.

„Ziyo nashr“  
Mas‘uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

**Franko, Ivan.**

F 88 **Feruz.** [Matn]: qissa va hikoyalar / Ivan Franko; tarjimonlar:  
A. Cho'lpon va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 144 b.

ISBN 978-9943-6341-9-0

**UO'K: 821.161.2-3**

**KBK 84(4Ukr)**



# IVAN FRANKO FERUZA



ZIYO NASHR



[t.me/ziyonashr](https://t.me/ziyonashr)

[fb.com/ziyo.nashr](https://fb.com/ziyo.nashr)

[ziyonashr@mail.ru](mailto:ziyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-6341-9-0



9 789943 634190